


Ikromjon KUZIKULOV



QO`QON XONLIGI TARIXI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Ikromjon KUZIKULOV

QO`QON XONLIGI TARIXI

(o`quv-uslubiy qo`llanma)

«Namangan» nashriyoti
2014

UO`K: 812.512.133-1

KBK: 84(5⁹)7

K-88

I. U. Kuzikulov

Qo`qon xonligi tarixi (o`quv-uslubiy qo`llanma). – “Namangan”
nashriyoti, 2014. 84 bet.

Mas`ul muharrir: A. A. Erqo`ziyev,
tarix fanlari nomzodi

Taqrizchilar: M.U. Qayumov,
tarix fanlari nomzodi

Z. Sh. Madrahimov,
tarix fanlari nomzodi

Ushbu o`quv-uslubiy qo`llanma Namangan davlat universiteti
o`quv-uslubiy kengashining 2014-yil 26-apreldagi 8-sonli yig`ilishida
muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN - 978-9943- 4343-0-8

© I. Kuzikulov

© «Namangan» nashriyoti, 2014.

SO'Z BOSHI

Jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblangan vatanimiz ko'p asrlik davlatchilik tarixiga ega. Arxeologik manbalar, "Avesto" kabi mahalliy yozma manbalar, qolaversa, Yunon, Rim, Xitoy tarixchilarining qadimiy asarlarida davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar yetarli. Lekin sho'rolar davrida bir necha ming yillik davlatchiligimiz tarixi to'laqonli o'rganilganligi haqida xulosa qilish qiyin. Garchi ijtimoiy va milliy tenglik haqida jar solingan bo'lsa-da, milliy davlatchilik g'oyalarigina emas, hatto davlatchilik tarixini o'rganishga ham to'sqinlik qilindi. Natijada tarix o'qitishning ilmiylik, ilmiy xolislik, inson omili kabi eng asosiy tamoyillari buzildi. Amir Temur, Shayboniyxon kabi buyuk imperiya qurgan shaxslar yovuzlikda, Dukchi eshon, Po'latxon kabi milliy-ozodlik kurashi rahbarlari yoki Turkiston muxtoriyati rahbarlari ayirmachilik (separatizm)da ayblangan. Vatanimiz tarixi o'rniga Rossiya tarixini o'rganish muhim deb topilgan.

Xonliklar davri tarixi o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrlardan biri hisoblansa-da, Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganish va o'qitishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Aksincha, xonlarning "qonxo'rliqi", "axmoqligi", mingboshi, qozilarning "axloqsizligi" haqida ertaklar to'qilgan ediki, xalqning tasavvurida ularga nisbatan nafrat hissi tarbiyalandi.

Vatan tarixini o'rganishda tarixiy o'lkashunoslik ma'lumotlaridan foydalanish muhimdir. Farg'ona vodiysida vujudga kelib, o'z sarhadlarini qisqa muddat ichida g'arbda O'ratepa, Jizzaxgacha, sharqda esa Issiqko'l hududlarigacha kengayтира olgan, Xitoy imperiyasi bilan Sharqiy Turkistonda urush olib borib, o'zi uchun foydali shartnoma tuzishga majbur qilgan Qo'qon xonligi tarixini o'rganish sho'rolar davrida ahamiyatli emasdi. A. Hasanov, A. Nabiyev, A. Qayumov, E. Hojiyev, A. Troitskaya, H. Ziyoyev, H. Bobobekov, F. G'afforov, V. Akramov, S. Ishanxanov, V. Ploskix, T. Beysembiyev, E. Xurshut, A. Mahkamov, Sh. Vohidov kabi tarixchilarning bir necha asarlari e'lon qilingan. Lekin, bu 167 yillik xonlik tarixi uchun yetarli emas edi. Qo'qon

xonligi tarixiga oid sho'ro davri adabiyotlari ushbu davlatda kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar kommunistik partiya mafkurasiga bo'ysundirilgan holda, sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganilgan.

Mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixini o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ilmiy jurnallarda va ilmiy-nazariy konferensiyalarda xonlik tarixiga oid yuzlab ilmiy maqolalar e'lon qilindi. H. Bobobekov, Sh. Vohidov, Y. Qosimov kabi tarixchilarning asarlari nashr etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Ustoz tarixchilarning izidan borgan bir necha yosh tarixchilar esa Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha tadqiqod ishlarini olib bordilar. Tez orada bu yosh tadqiqodchilarning izlanishlari o'z natijasini berdi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun 2004-yilda Z. A. Ilhomov "Aliqli amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni" mavzusida, 2006-yilda B. Ya. Tursunov "Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari" mavzusida, Sh. Yu. Mahmudov 2007-yilda "Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi (1709-1876-y.y.)" mavzusida, Z. Sh. Madrahimov 2009-yilda "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari" mavzusida, Sh. T. Qo'ldoshev 2009-yilda "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning birinchi yarmi) mavzusida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

2004-yili o'lka tarixini chuqurroq o'rganish maqsadida Namangan davlat universiteti tarix fakul'tetida "Qo'qon xonligi tarixi" nomli maxsus kurs tashkil etildi va tez orada fakul'tet talabalarining eng sevimli fanlaridan biriga aylandi. Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning yozilishiga ham tarix yo'nalishi talabalarining fanga bo'lgan qiziqishlari sabab bo'lgan. O'quv-uslubiy qo'llanmada Qo'qon xonligi tarixi haqida ma'lumot beruvchi manbalar, adabiyotlar, xonlikning vujudga kelishi, shart-sharoitlari, minglar sulolasi, ularning xonlikni rivojlantirishdagi o'rni haqida ma'lumot berish bilan birga xonlikda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, xonlikning tashqi siyosati, xalq harakatlari va madaniyatiga doir ayrim ma'lumotlar o'z aksini topgan.

QO'QON XONLIGI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Reja:

1. Xonlik tarixiga oid mahalliy manbalar.
2. Qo'qon xonligi tarixiga oid rus manbalari.
3. Sho'rolar davrida Qo'qon xonligi tarixining o'rgani-lishi.
4. Mustaqillik yillarida xonlik tarixining chuqur o'rgani-lishi.

Xonlik tarixiga oid mahalliy manbalar. Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar, shu ma'lumotlarda keltirilgan asarlar hamda ularning mualliflari muhim o'rin tutadi. Mustaqillikka qadar xonlik tarixini o'rganishda, asosan, rus sayyohlari va elchilarining asarlariga ko'proq e'tibor berilgan. Natijada mafkura nuqtai nazaridan, tariximiz uchun muhim bo'lgan aksariyat ma'lumotlar kitobxonlar uchun noma'lumligicha qolib ketgan. Xonlik tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan manbalar qadrlidir. Qo'qon xonligi tarixiga oid dastlabki shunday *mahalliy manbalardan* biri Xoja Muhammad Hakimxon To'ra Ho'qandiy tomonidan yozilgan "*Muntaxab at tavorix*" asari hisoblanadi. Muallif O'rta Osiyodagi yirik tariqat vakillaridan biri Maxdumi A'zamning avlodidandir. Hakimxon To'raning otasi Ma'sumxon To'ra bobolari kabi xonlikdagi eng obro'li shaxslardan biri bo'lgan. U Qo'qon xoni Norbo'tabiyning qiziga uylangan va shu nikohdan Hakimxon To'ra tug'ilgan edi (hijriy 1221-yil). Ma'sumxon To'ra Olimxon va Umarxon davrida shayxulislom lavozimini egallagan bo'lib, saroyda xon maslahatchisi hisoblangan. Xonlarga qarindoshligi, qolaversa, otasining obro'si Xakimxon To'raga katta imkoniyatlar ochib berdi. Tog'alari Olimxon va Umarxon bilan harbiy yurishlarda, saroy yig'inlarida va boshqa tantanalarda ishtirok etgan. Muhammad Alixon taxtga o'tirgach, uni Namangan hokimi lavozimiga tayinlagan. Lekin, oradan ko'p vaqt o'tmay, Hakimxon To'ra hibsga olingan va xonlikdan badarg'a qilingan. Hakimxon To'ra Rossiya, Kavkaz, undan Kichik Osiyo orqali haj safariga jo'nagan. Makka va Madina shaharlarini ziyorat qilib, Iroq, Eron orqali ortga qaytgan va

Shahrisabzga kelib joylashgan. Yetti yillik sayohat uning ijodiga ta'sir ko'rsatmay qolmagan. U rus, arab, turk, yunon tillarini o'rgangan. "Muntaxab at tavorix" asari o'zbek tilida yozilgan bo'lib, keyin tojik tiliga ham o'girilgan. Asarda shayboniylar, mang'itlar haqida, shu bilan birgalikda Qo'qon xonligi tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarni yozishda muallif tarixiy manbalar va voqealar shohidi bo'lgan axborotchilar ma'lumotlaridan keng foydalanib, Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, xonlikning chet mamlakatlar bilan aloqalari haqida bayon qilgan. "Muntaxab at tavorix" asari 1843-yilda yozib tugatilgan.

Xonlik vujudga kelganidan keyingi ma'lumotlar orasida biz uchun qimmatli bo'lgan manbalardan biri Muhammad Solih Toshkandiy (asl nomi Muhammad Solih domla Rahim Qoraxoja o'g'li) qalamiga mansub "*Tarixi jadidayi Toshkand*" ("Toshkentning yangi tarixi") asaridir. Muallif haqida ma'lumotlar ko'p emas: toshkentlik, 1830-yilda tug'ilgan, vafot etgan yili noma'lum. Beklarbegi va Xoja Axror madrasalarida o'qigan. Turli shaharlarda, shu jumladan, Farg'ona vodiysi shaharlarida ham bo'lgan. Tarix, geografiya, adabiyot va tibbiyotdan yaxshi bilimga ega bo'lgan. "Tarixi jadidayi Toshkent" asarini 1863-1888-yillari yozgan. Asar ikki jildidan iborat bo'lib, 1-jildi qadim zamonlardan to XV asrgacha Sharq va O'rta Osiyo mamlakatlarida bo'lib o'tgan voqealar haqida ma'lumot bersa, 2-jildida Farg'onaning, shu jumladan Toshkent shahrining XV asr oxiridan XIX asrning 80-yillarigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi.

Yirik tarixiy manbalardan biri "*Tarixi Shohruhiy*" asari Niyoz Muhammad Xo'qandiy qalamiga mansub. Niyoz Muhammad Ho'qandiy 1803-yilda Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan, madrasada ta'lim olgan. Xudoyorxon qo'shinida harbiy kotib lavozimida xizmat qilgan. 1860-yillarda istefoga chiqqanidan so'ng ilmiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. 1876-yili vafot etgan. Qozoq olimi T. K. Beysembiyevning yozishicha, "Tarixi Shohruhiy" 1871-1872-(hijriy 1288-yil)-yillarda Xudoyorxonning ko'rsatmasi bilan fors tilida yozilgan. Ushbu manba birinchi marotaba 1876-yili tarixchilar nazariga tushgan. 1885-yili rus sharqshunosi N. N. Pantusov tomonidan Qozonda chop etilgan. Ayrim qismlari V. V. Bartol'd, I. G. Mallitskiy va V. A. Rodin tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Asarda Qo'qon xon-

larining ayrim yurishlari, xonlikning Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqasi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. "Tarixi Shoxruxiy" asari XVIII asr boshlaridan tortib to XIX asrning 70-yillarigacha Qo'qon xonligida bo'lib o'tgan voqealarni o'z ichiga olgan.

"*Tarixi Farg'ona*" asari ham Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan biridir. Asar 1916-yilda tarixchi olim Is'hoqxon Junaydullo o'g'li Ibrat tomonidan nashr etilgan. Asarda minglarning hokimiyat tepasiga kelishidan tortib, to xonlikning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishigacha bo'lgan ulkan davr tasvirlab berilgan. Har bir Qo'qon xonlari davrlari, harbiy yurishlar, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, qo'zg'olonlar, rus bosqini, uning oqibatlar va xonlikning eng katta shaharlari haqidagi ma'lumotlar berilgan. "Tarixi Farg'ona" biz uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy asardir. Asar 1991-yili Toshkentda "Meros" turkumida ham nashr etilgan.

Xonlik tarixiga oid yana bir manba Mulla Olim Maxdum Hojining "*Tarixi Turkiston*" asaridir. Asar 1992-yili "Qarshi" nashriyotida lug'at va izohlar bilan nashr qilingan. 2008-yilda ushbu asar Toshkentda "Yangi asr avlodi" nashriyotida qayta nashr etildi. Asar sodda, tushunarli tilda yozilgan. Unda xonlik tarixiga oid ma'lumotlar bilan birga minglarning kelib chiqishi haqidagi xabarlar ham berilgan. Masalan: Oltin beshik afsonasi hikoya qilinar ekan, Oltin beshikdan Sulton Elik, undan Xudoyor, Xudoyordan Muhammad Amin, undan Abulqosim, Abulqosimdan Shohmastbiy undan esa Shohruhbiy tug'ilganligi, minglar sulolasining Boburiylarga avlod ekanligi ko'rsatilgan. Minglarning hokimiyatni qo'lga olishidan to ruslarning xonlikni bosib olgunga qadar bo'lgan davr "Tarixi Turkiston" asarining 1-jildida berilgan. Keyingi jildlar Buxoro tarixiga oiddir.

Asosiy manba bo'lmish asarlardan yana biri Mirzaolim Mushrifning "*Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin*" ("Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi" yoki "Qo'qon xonligi tarixi") asari hisoblanadi. Asar muallifi haqida ma'lumotlar ko'p emas: toshkentlik, tug'ilgan va o'lgan-yillari ma'lum emas. Mallaxon va Xudoyorxon zamonlari (taxminan XIX asrning 20-80-yillari)da yashagan. Ma'lumotlarda uning hayoti, ayniqsa, keksalik-yillari mashaqqatli kechgan, deb yozilgan. Olimlarning taxminicha, asar

muallifning umri oxirlarida yozib tamomlangan. Asar Oltin beshik voqeasi va Shohruhbiyning hokimiyatga kelishi bilan boshlanib, 1875-yil voqealarini ham qamrab olgan. Asarda tarixiy ma'lumotlardan tashqari, Mirzaolim Mushrifning she'rlari ham berilgan. Asarning 3 ta asl nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Qo'qon xonligi tarixiga oid rus manbalari. Xonlik tarixini o'rganishda tarixiy hujjatlar, boshqacha qilib ifodalaganda, rus sayyohlari, elchilari va tarixchilarining asarlari ham asosiy o'rin tutadi. Bunday hujjatlarning aksariyati hozirda davlat arxivlarida saqlanadi. Xonlik tarixiga oid hujjatlarning aksariyati rus sayyoh va elchilarning mehnatlari asosida vujudga kelgan. Masalan, Filipp Nazarovning "Записки о некоторых народах и землях средней части Азии Филиппа Назарова" (1821-yil), I. Potaning "Записки о Кокандском ханстве хоронжего Потанина" (1830-yil), Maksimovning "Показание Сибирского казака Максимова о Кокандском владении" (1860-yil), V. V. Vel'ya-minov-Zernovning "Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худаярхана" (1856-yil), "Сведения о Кокандском ханстве" (1856-yil), I. D. Gorcha-kovning "Обозрение Кокандского ханстве в нынешним его состоянии" (1846-yil), A. G. Serebrinnikovning "К истории Кокандского ханства" (1876-yil), N. Pantusovning "О податах и повинностях существовавших в бывшем Кокандском ханстве в последнее время правление Худояр-Хана" (1876-yili), V. Nalivkinning "Краткая история Кокандского ханства" (1886-yil) va boshqalar shunday asarlar qatoriga kiradi. Bu asarlarning muhimligi shundaki, ular chuqur o'rganilgan va ilmiy asoslangan. Mualliflarning barchasi xonlik hududida bo'lib, mahalliy aholi hayoti bilan yaxshi tanish bo'lgan. Rus elchi va sayyohlarining ma'lumotlari o'sha davrda "Вестник русского общества", "Известия русского географического общества", "Военный сборник", "Туркестанские ведомости", "Туркестанский сборник" va boshqa vaqtli matbuot nashrlarida muntazam berib borilgan. Bundan tashqari, alohida kitob sifatida chop etilgan. Yana boshqa chet elik sayyoxlar ham Qo'qon xonligi tarixi haqida ma'lumotlar berganlar, lekin ularning aksariyati bizga noma'lumligacha qolmoqda.

**Sho`rolar davrida Qo`qon xonligi tarixining o`rganilishi.** Sho`rolar davrida tariximiz yoritilgan bo`lsada, yetarlicha ahamiyat berilgan, deb baho berish qiyin. Xonlik tarixiga oid muhim asar *R. Nabiyevning* “Из истории Кокандского ханства” (“Феодальное хозяйство Худояр-Хана”) asaridir. Asar xonlik tarixiga oid manbalar va tarixiy hujjatlar asosida vujudga kelgan. Unda Sheralixonning taxtga kelishi, qipchoqlarning hokimiyatga kelishi, Xudoyorxon, Mallaxon, Sulton Said davrlaridagi voqealar bayon etilgan. Muallif Xudoyorxon davrida xo`jalik yuritilishi, davlat boshqaruvidan tortib, soliq va majburiyatlar, xon xazinasigacha bo`lgan ma`lumotlarga chuqur yondashgan. 387 betdan (shu jumladan, 37 ta ilovadan) iborat “Из истории Кокандского ханства” asari 1973-yili Toshkentda “Fan” nashriyotida chop etilgan.

1987-yilda “Alma-Ata” nashryotidan *T. K. Beysenbiyev* qalamiga mansub, Qo`qon xonligi tarixi haqida keng ma`lumot beruvchi “Тарихи Шахрухи” как исторический источник” asari chop etildi. Kitob muallif tomonidan “Tarixi Shaxruxi” asarini chuqur o`rganishi va tahlil etishi asosida vujudga kelganini sezish qiyin emas. Asarda “Tarixi Shaxruxi”ning yaratilishi hamda muallif haqida ma`lumotlar bor. T. K. Beysenbiyev o`z asarida shu va boshqa manbalardan foydalanib, xonlik tarixiga oid muhim voqealar haqida ma`lumot berilgan. “Tarixi Shaxruxi” asaridagi ma`lumotlarni tahlil qilib, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy voqealar, ayniqsa, aholining etnik tarkibi va xo`jaligi haqidagi ma`lumotlarni alohida-alohida keltirgan.

**Mustaqillik yillarida xonlik tarixining chuqur o`rganilishi.** Mustaqillik yillarida xonlik davri tarixini o`rganishga alohida e`tibor berildi. Xonlik tarixini yoritishga o`z hissasini qo`shgan o`zbek olimlaridan biri *H. N. Bobobekov* hisoblanadi. Uning 1990-yili chop etilgan “Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки” va 1996-yilda chop etilgan “Qo`qon tarixi” asarlari xonlik tarixini o`rganashda muhim o`rin tutadi. Dastlabki asarida olim xonlikda bo`lib o`tgan o`nlab qo`zg`olonlar haqida ma`lumotlar keltirgan va ularni tahlil etgan. Keyingi asar – “Qo`qon tarixi” esa Qo`qon haqidagi eng dastlabki ma`lumotlar, Qo`qon atamasi, minglar sulolasi, Qo`qon shahri ijtimoiy-iqtisodiy,

madaniy hayoti haqida ma'lumot beradi. 2006-yilda asarning ruscha varianti (*"История Коканда"*) e'lon qilindi. Bundan tashqari, ilmiy anjumanlar hamda vaqtli matbuotda olimning xonlik tarixi va uni o'rganishning dolzarb muammolari haqidagi maqolalarini ko'plab uchratish mumkin.

Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim asarlardan biri 1994-yili Namanganda nashr etilgan. Bu asar tarix fanlari nomzodi, dotsent Y. Qosimov qalamiga mansub bo'lib, *"Qo'qon xonligi tarixi ocherklari"* deb nomlanadi. Asar ikki bobdan iborat: birinchi bobda xonlikning aholisi, hududi, davlat tuzilishi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, shaharlar, qo'shin tuzilishi, Qo'qon-Buxoro, Qo'qon-Rossiya munosabatlari, madaniy hayot haqida ma'lumotlar mavjud. Ikkinchi bobda esa xalq harakatlari, xususan, Po'latxon qo'zg'oloni, Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bayon qilinadi.

Mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixiga oid ilmiy izlanishlar katta mehnatlar evaziga ortib bordi. 2004-yilda **tarix fanlari nomzodi unvonini olish uchun** Z. A. Ilhomov "Aliquli amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni" mavzusidagi dissertatsiyasini nihoyasiga yetkazdi. Muallif ushbu ilmiy ishi orqali XIX asr 50-60-yillarida Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Aliquli Amirlashkarning davlat arbobi va lashkarboshi sifatida shakllanishi, Qo'qon xonligi siyosiy hayotidagi faoliyati hamda rus bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi to'g'risida keng ma'lumotlar bergan.

Izlanuvchilardan biri B. Ya. Tursunov 2006-yilda **tarix fanlari nomzodi unvonini olish uchun** "Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari" mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Dissertatsiyada XVIII asr – XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligida yuz bergan siyosiy jarayonlar, Qo'qon xonligining mudofaa tizimi, xonlikdagi harbiy boshqaruv tizimi, harbiy mansablar va ularning vazifalari, harbiy kuchlar, qo'shinning tarkibiy tuzilishi, qo'shin ta'minoti va uning turli usullari, qo'shindagi qurol-aslahalar, qo'shinning moddiy vositalari hamda bu boradagi o'zgarishlar bayon etilgan.

Sh. Yu. Mahmudovning **tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun** 2007-yilda taqdim etilgan “Qo`qon xonligining ma`muriy-boshqaruv tizimi (1709-1876-y.y.)” mavzusidagi dissertatsiyasi xonlik tarixini o`rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Muallif o`z tadqiqotida markazlashgan davlatning tashkil topishi va undagi hukmdorlarning roli, xonlikning ma`muriy-hududiy bo`linishining evolyutsiyasi, Qo`qon xonligida Oliy kengash, uning markaziy boshqaruv tizimida tutgan o`rni, markaziy boshqaruv tizimining mansab va unvonlari, mazkur tizimda yuzaga kelgan o`zgarishlar, mamlakat boshqaruv tizimining mahalliy bo`g`inlari, ularning o`ziga xos jihatlari, soliqlar va soliq tizimida ish yuritish – mahalliy boshqaruv apparatining muhim funksiyasi, aholini ijtimoiy himoyalash hamda bu borada mavjud davlatchilik an`analari kabi masalalarni bayon etgan.

2007-yili yana bir tarixchi N. Topildiyevning “Qo`qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan (XIX asr – 1876-yilgacha)” asari “Fan” nashriyotida chop etildi. Nomidan ko`rinib turibdiki, asarda Rossiya-Qo`qon aloqalari haqida bayon etilgan.

Savdo munosabatlari haqida Z. Sh. Madrahimovning **tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun** yozgan “Qo`qon xonligida savdo munosabatlari” mavzusidagi dissertatsiyasi (2009-y.) Qo`qon xonligi tarixini o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda xonlikdagi savdo-iqtisodiyot markazlari va ularning iqtisodiy hayot rivojida tutgan o`rni, ichki savdo, xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalarida savdoning tutgan o`rni, uning muhim yo`nalishlari, Qo`qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari bilan savdo aloqalarining asosiy jihatlari, savdoning etno-integratsion jarayonlar rivojiga ko`rsatgan ta`siri, bozorlar, karvonsaroylar, ularning o`ziga xos xususiyatlari, bojxona ishi, savdo soliqlarining asosiy jihatlari, bozor infrastrukturasi hamda vaqf instituti aloqalarining karakterli xususiyatlarini yoritgan. 2014-yilda muallifning dissertatsiyasi asosida “Qo`qon xonligida savdo munosabatlari tarixi” asari chop etildi.

2009-yilda Sh. T. Qo`ldoshev “Qo`qon xonligi va Sharqiy Turkiston o`rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar (XVIII–XIX asrning birinchi yarmi)” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qildi. Dissertatsiyada Qo`qon xonligi bilan Sharqiy

Turkiston o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shakllanish jarayoni va taraqqiyoti, Qo'qon hukmdorlarining Xitoy bilan diplomatik munosabatlarida Sharqiy Turkistonning o'rnini, Sharqiy Turkistonda Qo'qon oqsoqollik tizimining o'rnatilishi, uning asosiy xususiyatlari, Qo'qon xonligini Sharqiy Turkiston bilan bog'lovchi karvon yo'llarining o'zaro aloqalarda tutgan o'rnini, o'zaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy yo'nalishlari va ular taraqqiyotida xonlik fuqarolarining roli, Qo'qon xonligi iqtisodiy hayotida sharqiy turkistonliklar ishtiroki, Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston xalqlari o'zaro aloqalarining an'anaviy madaniyatiga ta'siri va san'at sohasidagi aloqalar, ilmiy va adabiy aloqalarning muhim jihatlari o'z aksini topgan.

Shuningdek, mustaqillik yillarida Qo'qon tarixnavislik maktabi vakillari tomonidan yaratilgan xonlik tarixiga oid bir nechta asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi va chop etildi.

Tayanch iboralar: Mahalliy manbalar, "Muntaxab at tavorix", "Tarixi Farg'ona", "Tarixi Turkiston", "Tarixi jadidayi Toshkand", "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", "Tarixi Shohruxiy", rus manbalari, sho'rolar davrida xonlik tarixining o'rganilishi, R. Nabiyeu, H. Bobobekov, "Qo'qon tarixi", "Qo'qon xonligi tarixi ocherklari", mustaqillik-yillarida ilmiy izlanishlar.

Nazorat savollari.

1. Qo'qon xonligi tarixiga oid qaysi mahalliy manbalarni bilasiz?
2. Xonlik tarixiga oid rus sayyohlari va elchilarining ma'lumotlaridan foydalanish mumkinmi?
3. Qaysi o'zbek tarixchi olimlari Qo'qon xonligi tarixi bilan shug'ullanganlar?
4. Mustaqillik-yillarida xonlik tarixiga oid ilmiy izlanishlarning rivojlanish sabablarini ko'rsating.

QO'QON XONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA SIYOSIY TARIXI

Reja:

- 1. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida O`rta Osiyoda siyosiy vaziyat.**
- 2. Qo`qon xonligining tashkil topishi.**
- 3. 1709-1842-yillarda Qo`qon xonligi.**
- 4. 1842-1876-yillarda Qo`qon xonligi.**

**XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida O`rta Osiyoda siyosiy vaziyat.** XV asrda yevropaliklarning Sharqqa olib boruvchi dengiz yo`lini kashf etishlari bilan Buyuk Ipak yo`li inqirozga yuz tutdi. Natijada Buyuk Ipak yo`lida joylashgan O`rta Osiyo jahon sivilizatsiyasidan chetda qolib ketdi. Xalqaro aloqalarning susayishi iqtisodiyotga ham salbiy ta`sir ko`rsatib, O`rta Osiyo iqtisodiy va madaniy jihatdan tushkunlikka yuz tuta boshladi. XVI asr boshlarida hokimiyatning shayboniylar tomonidan egallanishi ham, ashtarxoniylarning hukmronligi ham Movarounnahrning ilgarigi mavqeini tiklay olmadi.

O`rta Osiyodagi inqirozlardan qo`shni davlatlar, ayniqsa, Eron foydalanishga urindi: 1510-yili Shoh Ismoil Xorazmni bosib oldi, Xuroson esa butunligicha Eronga qo`shib olindi. Eronliklarning Xivadagi hukmronligi uzoqqa cho`zilmadi. 1511-yili Xiva shayboniylaridan biri bo`lgan Elbarsxon eronliklarni quvib chiqarib, Xiva xonligiga asos soldi. 1524-yili Shoh Ismoilning o`limi Xiva xonligining o`z hududini kengaytirish imkonini berdi.

Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etilgan davlati Buxoro xonligi deb ataldi. Shu tariqa Movarounnahrda ikki mustaqil davlat paydo bo`ldiki, bu shundoq ham og`ir bo`lgan iqtisodiy va ijtimoiy hayotni juda murakkab ahvolga solib qo`ydi. Buxoro va Xiva o`rtasida doimiy dushmanlik munosabatlari saqlanib qoldi. Ubaydullaxon 1537-yili Urganchni egallagan bo`lsa (1539-yilgacha), Abdullaxon davrida Xiva (1593-yil) qayta egallandi. Oradan ikki yil o`tgach, Xiva turkmanlar yordamida mustaqilligini tikladi, lekin tez orada Xoji Muhammadxon (Xojimxon) yana Eronga qochib ketdi. 1598-yili Abdullaxonning

o'limi Xoji Muhammadning Xivada hokimiyatini tiklashga yordam berdi. Abdulg'ozixon davrida Buxoro atrofi ikki marta talon-taroj qilindi (1655-yil). Ko'p o'tmay, Qorako'l, Karmana kabi hududlar vayron qilindi, 1658-yil Vardonze talanib, bosqinchilik Buxoroga yetib keldi (1662-yil). Buxoroga tinimsiz bosqinchilik yurishlari qilayotgan Xivaning o'zida esa taxt uchun kurash, ayirmachilik (separatizm) avj olgan edi. Bunday harakat Buxoroga ham yot emasdi. Buning ustiga yirik mansabdorlar qo'lida katta miqdordagi yer-mulk to'planib qoldi. Yalangto'shbiy, Oллоhberdibiy kabi shunday mansabdorlarning qo'lida ulkan mulk va bepoyon yerlar to'plangan edi. Bunday shaxslar xon xazinasiga soliqlarni to'lashdan ham bosh tortgan edilar. Xon xazinasining bo'shab qolishi oqibatida o'z yerlarini sotuvga qo'ygan. Katta yer-mulk egalari bo'lmish ruhoniylarning ham mavqei o'sdi.

O'rta Osiyo hududlarida ilgariidek sun'iy sug'orish inshootlari qurish jadal davom etmadi, sug'orish tarmoqlari izdan chiqdi. Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirishi ahvolni yanada og'irlashtirdi. Qishloq xo'jaligi mushkul ahvolda qolgan bo'lsa, hunarmandchilik, og'ir soliqlar oqibatida, kasodga uchray boshladi. Iqtisodiy, siyosiy hayot ilm-fanga ham salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ilm-fan og'ir davrni boshdan kechirmoqda edi. Diniy mutaasiblik asosiy o'ringa chiqdi.

Buxorodagi taxt uchun kurash, ayirmachilik va Xiva xonlarining Buxoroga qayta-qayta uyushtirgan bosqinchilik yurishlari Abdulazizxonni 1680-yili taxtni ukasi Subxonquli foydasiga voz kechib, o'zi hajga jo'nashiga majbur etdi. Subxonqulixonga Buxoroda juda og'ir ahvol meros bo'lib qolgan edi. Uning hokimligi davrida ichki va tashqi ahvol yanada og'irlashdi. Viloyat hukmdorlari mustaqillik talab qilibgina qolmay, xazinaga soliq to'lashdan bosh tortgan bir paytda, xonning shahzodalar bilan munosabati urushgacha borib yetdi. Xivaliklarning Buxoroga hujumi boshlangan vaqtda Samarqand viloyati hokimi Hojiqulibiy o'tarchi Xiva xoni Anushaxonga qo'shildi. Xiva qo'shinlari Buxoro, Karmana, Vardonze va hatto, Samarqandgacha yetib keldilar. Samarqand olingach, Anushaxonning nomiga xutba o'qitilib, uning nomiga tanga zarb etildi. Badaxshon hokimi

Mahmudbiy yordamida xivaliklarni zo'rg'a quvib chiqargan Subxonqulixon Balxga qo'shin tortdi, o'g'li Siddiq Muhammad hibsga olinib o'ldirildi. 1686-yili Anushaxon o'z saroyida fitna oqibatida o'ldirildi. Lekin, xonliklarda ahvol og'irligicha qolaverdi.

Qo'qon xonligining tashkil topishi. Xiva hamda Buxoroda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol og'irlashgan bir paytda ayirmachilik harakatlaridan biri Farg'onada yuz bermoqda edi. Vodiya katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan xojalar jamoasi hokimiyat uchun harakat qilayotgan bir paytda o'zbeklarning ming qabilasi hokimiyatni egallashga eng qulay vaziyat etilganligini tushunib yetgach, 1709-yili o'zlarini Buxorodan mustaqil, deb e'lon qildilar. Targ'ova, Pillaxon, To'qaytepa, Parnok, Tepaqo'rg'on va Qaynar mavzelari yangi mustaqil davlatning dastlabki hududlari hisoblangan. *Minglar sulolasi* Farg'onada mustaqil davlatga asos solar ekan, qabila oqsoqollaridan biri Shohruhbiyni xon deb e'lon qildilar. Shu tariqa vodiya 1876-yilgacha hukmronlik qilgan yangi o'zbek davlati vujudga keldi.

Dastlabki manbalarda xonlik poytaxti bo'lgan Qo'qon shahri Havokand, Xuvakan, Xuvakent, Xo'qand kabi nomlar bilan uchraydi. Qo'qon atamasining ma'nosi haqida esa ko'plab farazlar mavjud. Shulardan 3 tasini asosiy, deb hisoblash mumkin:

1. "Xuk kand" tojikcha "to'ng'iz kavlagan" ma'nosini anglatadi. Bunday qarashning paydo bo'lishiga sabab, manbalarda ko'rsatilishicha, shahar o'rni qamishzor bo'lib, bu yerda yovvoyi cho'chqa (to'ng'iz)lar ko'p bo'lgan.

2. "Yaxshi", "latif" ma'nosini anglatib, shahar bahavo, chiroyli joyda joylashganligi uchun shunday nom olgan (Ho'qandi latif).

3. "Yaxshi", "latif" atamasi shahar aholisiga nisbatan ishlatilgan bo'lib, qo'qonliklarning fe'l-atvori yaxshi bo'lganligidan dalolat beradi.

Buxoro xonligida yuz berayotgan voqealar hamda umumiy shart-sharoitlar Qo'qon xonligining mustahkamlanib olishi va rivojlanishiga yordam berdi. Jo'ybor shayxlari kabi yirik mavqega va yerga ega bo'lgan mulkdorlarning markazga bo'ysunmaslik harakatlari, yirik mulkdorlarning soliqlarni to'lashdan bosh tor-

tishlari, kambag'al aholining mushkul ahvoli tufayli tinimsiz qo'zg'olonlari, Ubaydullaxon II ning 1708-yilgi pul islohotining salbiy oqibatlari kabilarni shunday shart-sharoitlar qatoriga kiritish mumkin.

1709-1842-yillarda Qo'qon xonligi. Shohruhbiyning hukmronlik davri 1721-yilgacha davom etdi. Shohruhbiy hukmronligining dastlabki davrlaridan boshlab davlatni mustahkamlash siyosatini olib bordi. Uning davrida xonlik shakllanib, oyoqqa turdi. Davlat yerlari Sirdaryoning o'ng qirg'og'idagi hududlar evaziga kengaygan. Shoxruxbiyning o'limidan so'ng taxtga uning o'g'illari Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy yoki Shodibiy kelishi kerak edi. Taxt *Abdurahimbiy*ga nasib etdi. Abdurahimbiy xonlik yerlarini kengaytirish uchun astoydil kurashdi. Dastlab Andijon, Marg'ilon, keyin esa Xo'jand yerlarini bosib oldi. Samarqand, Kattaqo'rg'on va Shahrisabz yerlariga tajovuz qildi. Shahrisabz hokimi xavfning oldini olish maqsadida o'z qizi (Oychuchuk)ni Abdurahimbiyga nikohlab berdi. Jizzax egallangach, Abdurahimbiy kasalligi tufayli Xo'jandga qaytishga majbur bo'ldi va 1733-yili vafot etdi. Abdurahimbiy davridagi muhim voqealardan biri xonlik taxtining Tepaqo'rg'onidan Eskiyo'rg'onga ko'chirilibdir.

Abdurahimbiydan so'ng Qo'qon taxtiga Abdurahimbiyning ukasi *Abdulkarimbiy* keldi. Abdulkarimbiy akasi boshlagan ishlarni davom etkazib, shahar qurilishini oxiriga yetkazdi. Shahar mudofaasiga katta e'tibor berdi. Abdulkarimbiy davridagi muhim voqealardan biri qalmoqlarning Farg'ona vodiysiga hujumi bo'ldi. Bu voqea 1745-1746-yillarda sodir bo'lgan. Qalmoqlar O'sh, Andijon va Marg'ilonni bosib olib, Qo'qonni qamal qilganlar. Abdulkarimbiy esa bu paytda poytaxt qal'a devorlarini mustahkamlashga ulgurgan edi. Qo'qon qamali paytida shaharliklar dushman ustunligi uchun O'ratepa hokimi Fozilbekni yordamga chaqirdilar. Abdulkarimbiy qo'shinlari Fozilbekning yordami bilan qalmoqlar ustidan g'alaba qozondi. Shu g'alabadan so'ng Buxoro amirligi Qo'qon xonligini mustaqil davlat sifatida tan olgan. Abdulkarimbiy 1750-yili 40 yoshida vafot etdi. Taxtga uning o'g'li *Abdurahmonbiy* o'tirdi, lekin uning hokimligi uzoqqa cho'zilmadi. To'qqiz oydan so'ng Abdurahmon taxtdan

ag'darilib, Marg'ilonga hokim qilib jo'natilgan. Xonlik taxtiga *Erdona* chiqdi (1751–1752, 1753–1762). Erdona hokimligining keyingi-yilida taxtdan tushirilib, qalmoqlar bosqini davrida ularga garovga berilgan Bobobek qalmoqlarning qo'llab-quvvatlashi bilan taxtga kelgan. Lekin Bobobek bir yildan so'ng Beshariqda o'ldirildi va taxtga yana Erdona keldi. Erdona o'z bobolari singari davlat chegaralarini kengaytirishga astoydil bel bog'ladi. Uning O'ratepaga qilgan dastlabki yurishi muvaffaqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da, keyinroq O'ratepa, Isfara, O'sh, O'zgan yerlarini Qo'qon tarkibiga kiritdi. Bundan tashqari, faol tashqi siyosat olib bordi. Sharqiy Turkistonda ham Xitoy imperiyasiga qarshilik ko'rsata oldi.

Erdonaning o'limidan so'ng taxtga saroy a'yonlarining kelishuvi bilan Shodibiyning o'g'li *Sulaymonbek* taxtga chiqqan. Ammo, uch oydan so'ng u suiqasd tufayli o'ldirilgach, taxtni Abdurahmonning o'g'li *Norbo'tabek* (1763-1798) egalladi. Norbo'tabiy taxtga kelganida o'n to'rt yoshda edi. Lekin, ko'p o'tmay u mohir davlat arbobi bo'lib yetishdi. Norbo'tabiyning hukmronligi davrida isyonkor hokimlarning qarshiligi sindirilib, markaziy hokimiyat mustahkamlandi. Iqtisodni mustahkamlash maqsadida o'tkazilgan pul islohoti yaxshi natija berdi. Qishloq xo'jaligiga katta e'tibor berilib, ekin maydonlari kengaytirildi, sug'orish inshootlari qurildi, hunarmandchilik va savdo-sotiq kuchaydi. Norbo'tabiy davrida Chust, Namangan kabi yirik shaharlarda qo'zg'olonlar bostirilgan. Xo'jand to'la zabt etildi. Norbo'tabiy davri tarix solnomalarida mahsulotlar arzonligi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi bilan qayd etiladi.

1798-yili Norbo'tabiy vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li *Olimbek* o'tirgan (1798-1810) (*ba'zi ma'lumotlarda Olimbekning taxtga chiqqan vaqtini 1800 yil deb ko'rsatilgan*). Olimbek hokimiyatni egallagach, taxtga davogar bo'lgan shaxzodalar va ularni qo'llab-quvvatlovchi mansabdor shaxslarni qatl ettirdi. U hokimiyatni mustahkamlashning yana bir yo'li sifatida qo'shin qudratini oshirishga e'tibor berdi. Olimbek muntazam qo'shin tuzish va uni qurol-aslaha bilan ta'minlash kabi islohotlar o'tkazdi. Tog'li tojiklardan gvardiya tuzdi. 1808-yilda Toshkent hokimi Yunusxo'ja katta qo'shin bilan Qo'qonga yurish

boshlagan. Olimbek o'zi tuzgan muntazam qo'shin yordamida toshkentliklarni mag'lubiyatga uchratgan. Bu g'alaba bilan cheklanib qolmay, Toshkent, Chimkent va Turkiston yerlari bo'ysundirildi. Sharqiy Turkistonga hujumlar uyushtirildi. Aynan, Olimbekning davrida Qo'qon rasman xonlik, deb e'lon qilindi. Shunday muvaffaqiyatlarga qaramasdan, Qo'qonda unga qarshi bir necha guruhlar shakllandi. Shu muxolifatchilarning harakati bilan xonga suiqasd uyushtirilib, o'ldirilgan.

Olimbekning o'limidan so'ng 1810-yili taxtga ukasi *Umarxon* (1810-1822) kelgan. U umrining ko'p qismini qo'ldan ketgan hududlarni qayta birlashtirish bilan o'tkazdi. Chimkent va Turkiston bo'ysundirildi. Toshkent bekligini tugatib, O'ratepa, Samarqand va Jizzaxga qo'shin tortib bordi. Umarxon taxtga o'tirganidan keyin akasi Olimxon davrida chet elga qochib ketishga majbur bo'lgan ayrim shaxslar Qo'qonga qaytdilar. Umarxon O'ratepa, Xo'jand, Toshkent kabi hududlarda davlat yaxlitligini saqlab qolish maqsadida mahalliy feodallarga qarshi urush olib bordi. Mamlakat ichkarisida esa obodonchilik ishlarini olib bordi. Masalan, poytaxtga qaytgan Umarxon mamlakat poytaxtini obod qilish maqsadida qurilishlar boshlagan. 1818-yilda Umarxon farmoni bilan poytaxt shaharda katta Jome' masjidi bunyod qilingan. Bu qurilish din homiysi sifatida uning mavqeini yanada oshirgan. Din peshvolariga homiylik qilganligi sababidan ham Umarxon "Amir-ul-Muslimin" unvonini olgan.

Umarxonning vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li *Muhammad Alixon* (Madalixon) (1822-1842) taxtga o'tirgan. Muhammad Alixon taxtga chiqqanida o'n besh yoshda edi. Yosh xonga davlat ishlarini boshqarishda qaynotasi Yusuf mingboshi yordam bergan. Madalixon otasi va bobolari kabi mamlakat sarhadlarini kengaytirish maqsadida 1834-yili Qorategin, Ko'lob, Darvoz yerlarga yurishlar qilgan. 1826-1831-yillarda Sharqiy Turkistonda Xitoy imperatori hokimiyatiga qarshi kurashdi. Qashg'arda musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod etish uchun olib borgan bu urushlar tufayli Madalixonga din peshvolari tomonidan "g'ozi" unvoni berilgan. Hukmronligining so'nggi yillariga kelib Madalixon hokimiyat ishlaridan ancha uzoqlashib, aysh-ishratga berilib ketgan edi. Davlatni boshqarishda katta tajribaga ega, xon-

ning yaqin maslahatchisi, mingboshi Haqqulining qatl qilinishi, uning hokimiyatiga qarshi bo'lgan saroy ayonlariga juda qo'l kelgan. Sarkardalar o'rtasidagi kelishmovchilik, markaziy hokimiyatga bo'lgan ishonchsizlik oqibatida 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonni bosib olishga muvaffaq bo'lgan.

1842-1876 yillarda Qo'qon xonligi. 1842-yilning yozida Qo'qon xonligi Buxoro amirligiga tobelikdan ozod bo'ldi. *Sheralixon* boshchiligidagi Nasrulloxonga qarshi ommaviy xalq harakati boshlangan edi. Ibrohim Qo'qondan quvilib, Muhammad Sharif otaliq qatl qilindi va Sherali xon deb e'lon qilindi. Qo'qonning Buxoro tobeligidan ozod bo'lishi Nasrulloxonni juda g'azablantirdi, lekin Xiva-Buxoro munosabatlarining keskinlashishi amirni Qo'qon yurishiga to'sqinlik qildi. Xiva xoni Olloqulixon o'zini butun Turkiston podshosi deb e'lon qildi. Bu ham yetmaganidek, 1842-yil sentyabrda Olloqulixon qo'shinlari Buxoro yerlariga hujum qilib, chegara yaqinidagi qishloq va shaharlarni bosib oldi, 15 ming qo'yni Xivaga olib ketdi. Shu kabi voqealar Nasrullo sharqda Qo'qon bilan band bo'lib turgan paytda sodir bo'ldi. Amir Xiva xoni hujumlaridan qo'rqib, Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Buxoro amiri hujumidan qutulgan Qo'qon xonligida davlatni tiklash, xo'jalikni yo'lga solishga kirishildi. *Sheralixon* mingboshi lavozimiga qipchoqlar vakili bo'lmish *Musulmonqul*ni tayinlaydi. *Musulmonqul* Buxoro-Qo'qon urushlari vaqtida Buxoroga tinchlik uchun garov sifatida olib ketilgan, lekin amirni aldab, Qo'qonga kelgan va ozodlik urushida faol kurashib, tanilgan edi. *Musulmonqul* mohir, qobiliyatli lashkarboshi edi. *Musulmonqul*ning bosh vazir (mingboshi) etib tayinlanishi bilan Qo'qon xonligida qipchoqlar ta'siri kuchaydi.

1845-yili *Sheralixon* taxtdan ag'darilib, uning o'rniga *Murodxon* o'tirgan. Lekin uning xonlik davri bir haftaga cho'zildi, xolos. Taxtga *Sheralixon*ning 12 yoshli o'g'li *Xudoyorxon* o'tirdi. 1845-yilgi taxt uchun kurash voqealari manbalarda turlicha tasvirlangan. V. N. Nalivkinning ma'lumotlariga ko'ra, taxtga chiqqan *Murodxon* (*Abdurahmon*ning o'g'li, *Norbo'taxon*ning ukasi bo'lgan) Xivada yashagan bo'lib, Buxoroga kelgan paytda amir uni Qo'qonga hujum qilishga ko'ndiradi. Kelishuvga ko'ra, *Murodxon* taxtga chiqqach, Qo'qon Buxoroga tobe bo'lishi kerak

edi. 1845-yil yozida Murodxon amir qo'shinlari yordamida Qo'qonni egallaydi, Sheralini o'ldirib, o'zini xon deb e'lon qiladi. Musulmonqul bu paytda O'sh qo'zg'olonini bostirish uchun jo'nab ketgan edi. Musulmonqul bu voqealarni eshitib, zudlik bilan Qo'qonga qaytadi va Murodxonni qatl ettiradi. Taxtga Xudoyorxon o'tiradi. Ayrim manbalarda 1845-yilgi taxt uchun kurashlarning barchasini Musulmonqul uyushtirgan, deb qayd etilgan. Davlat mansablarining aksariyatini qipchoqlar egallab olishi Qo'qonga qipchoqlarning ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Sheralixon atrofini qipchoqlar egallab olgan edi. Masalan, Musulmonqul davrida qipchoqlardan O'tanboy Marg'ilonni, Kur – Siddiq Andijonni, Mirzat Namanganni, Ko'ro'g'li Shahrixonni, Sher – Qirovchi va Normuhammad Toshkentni, Norbaxshi Xo'jandni boshqargan. Karimqul dasturxonchi, Qulbobo o'daychi saroyda yirik mansablarga tayinlangan. Vaziyatdan qutulish maqsadida Sherali Musulmonqulga qarshi fitna uyushtirmoqchi bo'ladi. Lekin, mingboshi bundan xabar topib, xonning o'ziga qarshi fitna uyushtiradi. Musulmonqul bu paytda O'sh qo'zg'olonini bostirish uchun poytaxtdan chiqib ketgan bo'lishi kerak edi. O'shdan u to'g'ri Namanganga keladi. Shu yerda o'z qizini Sheralixonning o'g'li Xudoyorxonga nikohlab beradi va uni Namangan hokimi etib tayinlaydi. Ko'p vaqt o'tmay, Musulmonqul Qo'qonga yetib keldi va Murodxon hamda uning yaqinlarini fitna uyushtirish va xoinlikda ayblab, qatl ettiradi. Tabiiyki, o'z kuyovini xonlik taxtiga o'tqazadi (1845-1858), (1862-1863), (1863-1875).

Xudoyorxon juda yosh bo'lganligi uchun davlat ishlarini Musulmonqul o'z qo'liga olgan. Xonlikda qipchoq va qirg'izlarning mavqei oshib ketdi. Qipchoqlar hokimiyati 1850-yillarning boshlarigacha davom etdi. Musulmonqul qonun va qoidalarga xilof ishlarni ko'plab amalga oshirganligi to'g'risida tarixiy hujjatlar saqlangan. Uning bu harakatlaridan saroy ayonlarigina emas, balki yirik qipchoq feodallari orasida ham norozilik kelib chiqqan. Marg'ilon begi O'tanbiy qushbegi, Xo'jand begi Mingboy va boshqa beklari Musulmonqulga qarshi ittifoqqa birlashdilar. Keyinroq bu ittifoqqa Toshkent begi Nurmuhammad ham qo'shilgan. Musulmonqul muxolifat haqida xabar topishi bilan O'tanboyni mansabidan olib tashlaydi. Ayrim amaldorlar esa Toshkentga ketishga majbur bo'ladi. Toshkentda Nurmuham-

mad boshchiligida muxolifat shakllanib, Xudoyorxonni ham o'z tomonlariga og'dirishga harakat qilganlar. Musulmonqul 1847-yili 7-mart kuni 40 ming askar va 2 ta to'p bilan Toshkentga yurish boshlaydi. Lekin, yurish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanadi. Chunki, qo'shinning aksariyati majburiy askarlikka tortilgan, buning ustiga ular dehqonchilik ishlarining qolib ketishidan zarar ko'rishlari mumkin edi. Musulmonqul 23 mart kuni Qo'qonga qaytishga majbur bo'ldi.

1852-yil 16-aprelda 37 ming qo'shin va 8 ta to'pga ega bo'lgan Musulmonqul ikkinchi marta Toshkent yurishini boshlaydi. Bu paytga kelib muxolifat Xudoyorxonni o'z tomoniga ag'darib olgan, Nurmuhammad mudofaa choralari ko'rgan va hatto, Musulmonqul tarafdori bo'lgan Turkiston begi Imobiyni Toshkentga chaqirib, qatl ettirgan hamda uning o'rniga Yusufbek tayinlagan edi.

Musulmonqul va Toshkent (muxolifat) qo'shinlari o'rtasidagi jang Chirchiq daryosi bo'yida bo'lib o'tdi. Xudoyorxonning Musulmonqulga qarshi muxolifatchilar tomonga butunlay o'tganligidan xabar topgach, Qo'qon qo'shinlari o'rtasida bo'linish yuz berdi va qo'qonliklar chekinadi. Qo'qonliklarning ta'qib qilinishi oqibatida minglab odamlar Chirchiq daryosida suvga g'arq bo'ladi. Musulmonqul esa qochib, qirg'izlar orasiga yashirinmoqchi bo'ladi, lekin u hozirgi Namangan viloyatining Uychi qishlog'ida ushlanib, Qo'qonga olib kelinadi va qatl qilinadi. Bu voqealar manbalarda 1852 (yoki 1853)-yillarda ro'y berganligi haqida yozilgan.

Musulmonqul qatl etilganidan so'ng qipchoqlar hukmronligi tugadi. Qipchoqlarni yoppasiga qirg'in qilish boshlanib ketdi. Toshkentda Nurmuhammad o'rniga Xudoyorxonning ukasi (boshqa onadan) Mallaxon qo'yildi, Marg'ilon hokimi O'tanbiy o'ldirildi. Bunda Xudoyorxonning qo'li bor edi. Xonning farmoniga ko'ra, qipchoqlar, hatto, go'dak va qariyalar ham qirg'in qilindi. Sho'ro davri adabiyotlarida yozilishicha: "Ularni ko'chalarda ham, o'z uylarida va hatto masjidlarda ham o'ldirib yuborganlar". Xudoyorxon qipchoqlarni yer yuzidan supurib tashlashni buyurgan. Baliqchi tumanida 1500 dan ortiq qipchoq o'ldirilib, jasadlari daryoga uloqtirilgan. Qirg'in davomida 20 ming qipchoq o'ldirilgan. Ularning mol-mulklari tortib olingan.

Omon qolganlari esa qirg'izlar orasiga yashirinishga majbur bo'lgan.

H. Bobobekov Xudoyorxon-Musulmonqul munosabatlari, qipchoqlar qirg'ini, Musulmonqulning qayta qo'shin to'plab keliishi, uning qatl etilishi voqealarini rus ofitserlari va elchilari hujjatlariga tayanib, 1853-yilda sodir bo'lganligini ta'kidlaydi. Qipchoqlarning qirg'in qilinishi bilan ahvol yaxshilanmadi. 1854-yili qipchoqlar qo'zg'olonining yangi to'liqini boshlandi. Saroydagi ayirmachilik harakatlari davom etdi. Qipchoqlar qirg'inidan so'ng siyosiy hayot va ma'muriy boshqaruv tizimida boshqa guruhlar mavqei kuchaydi.

XIX asrning 60-70-yillari Qo'qon xonligida taxt uchun kurash davri bo'ldi. Rus bosqinchilariga qarshi kurash o'rniga taxt uchun davogarlar ko'payib ichki kurash avj oldi. Xudoyorxon (1862 – 1863), (1865 – 1875), Shohmurod (1862), Sulton Said (1863 – 1865) va Nasriddinbek (1875 – 1876) o'rtasidagi o'zaro kurash ruslarning Qo'qonni to'la bosib olishiga yordam berdi.

Tayanch iboralar: vaziyat, “Qo'qon” atamasi, minglar, Shohruhbiy, “oltin beshik”, Abdulkarimbiy, Erdona, Norbo'tabiy, Olimxon, harbiy islohot, Umarxon, Madalixon, Sheralixon, Musulmonqul, Xudoyorxon, qipchoqlar, qipchoqlar qirg'ini.

Nazorat savollari.

1. Qo'qon xonligining vujudga kelishi arafasida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tushuntirib bering.
2. “Oltin beshik” nima?
3. Qaysi xonlar davrida mamlakat hududi kengaygan?
4. Qaysi hukmdor davrida Qo'qon rasmiy jihatdan xonlik, deb e'lon qilingan?
5. Nasrulloxonning Qo'qon xonligiga qilgan yurishinig sabablari nimada?
6. Qo'qon xonligi hududida qipchoqlar qirg'inining sababi nima?
7. 1853-yil voqealarini tasvirlab bering.

QO`QON XONLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Reja:

- 1. Qo`qon xonligida davlat tuzilishi.**
- 2. Qo`qon xonligi aholisi.**
- 3. Qo`qon xonligida qo`shin.**
- 4. Qo`shin ta`minoti.**

**Qo`qon xonligida davlat tuzilishi.** Qo`qon xonligi ma`muriy jihatdan viloyatlarga bo`lib idora etilgan (*ayrim tadqiqotlarda xonlik bekliklarga ajratilib idora etilganligi haqidagi ma`lumotlar ham bor*). Manbalarga ko`ra, XIX asrning 40-yillariga qadar xonlik hududi ma`muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar esa sarkorlik, oqsoqollik va aminliklarga bo`lingan. Bu davrda Qo`qon xonligi tarkibida Marg`ilon, Andijon, Shahrixon, Naman-gan, Xo`jand, Chust, Isfara, O`ratepa, Qurama, Toshkent va Turkiston viloyatlari bo`lgan.

Qo`qon xoni davlat boshqaruvida mutloq hokimiyatga ega bo`lib, taxt merosiy edi. Hukumat qarorgohi xon o`rdasida joylashgan, davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar ushbu saroyda hal qilingan. Markaziy boshqaruv tizimi ham to`laligicha o`rdada mujassamlashib, unda faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar xon huzuridagi *Oliy kengash* tarkibiga kiritilgan. Markaziy boshqaruv oliy hukmdor, keyin maslahat organi bo`lgan kengash, undan so`ng ijroiya vazifalaridagi mas`ul amaldorlardan iborat bo`lgan.

Davlat boshqaruvida mansab va lavozimlar muhim o`rin tutgan. Xondan keyingi eng katta lavozim mingboshi, ya`ni bosh vazir bo`lgan. Aynan, mingboshi lavozimidagi shaxs viloyat hokimlari va boshqa mansablarga tayinlashda xonga taklif kiritgan. Harbiy harakatlar paytida esa mingboshi amirul lashkar sifatida qo`shinga rahbarlik qilgan. Shulardan ko`rish mumkinki, mingboshi davlat ishlarida katta vakolatlarga ega bo`lgan.

Saroy mansablarini oliy, o`rta va quyi darajalarga bo`lish mumkin. *Oliy darajali mansablarga* mingboshi, biy, devonbegi, xazinachi, inoq, eshikog`asi, parvonachi, beklarbegi, dodxoh,

dasturxonchi, sarkor, otaliq, qushbegi, tunqator, xidoyatchi, sharbatdor, oftobachi, qorovulbegi kabilarni kiritish mumkin. Kitobdor, risolachi, bakovul, mirzaboshi, sarmunshi, mehtar, shig'ovul, mirob, dorug'aboshi, miroxur kabi mansablar esa *o'rta darajali mansablardir*. Bundan tashqari *quyi darajali* mansablar mavjud bo'lib, unga salomog'asi, mirzo, munshi, jilovdor va boshqalar kiritilgan.

Qo'qon xonligi aholisi. Qo'qon xonligi ko'p millatli davlat hisoblanib, ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr 70-yillarida xonlik aholisining umumiy soni 3 milliondan ortiq bo'lgan. Xonlik hududida o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, yahudiylar, arablar, eronliklar, ruslar, tatarlar, dunganlar va boshqa xalqlar yashagan. Son jihatdan aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etgan. Undan keyingi o'rinda *tojiklar* turgan. Ular, asosan, O'ratepa, Xo'jand, Konibodom, Isfara, Qorategin, So'x, Rishton, Chust, Kosonsoy hududlarida yashaganlar. Ularning asosiy xo'jaligi dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo va qisman, chorvachilikdan iborat bo'lgan.

Qozoqlar Sirdaryo qirg'oqlari, Janubiy Qozog'iston past tekisliklarida ko'chmanchilik turmush tarzida yashab, asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan. *Qoraqalpoqlarning bir qismi tarixiy vatanlaridan* jung'orlarning hujumi oqibatida Sirdaryo bo'ylab yangi yerlarga ko'chishga majbur bo'lganlar. Ularning bir qismi Sirdaryoning o'rta oqimida joylashib qolishgan bo'lsa, boshqa bir qismi XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Qo'qon xonlari ruxsati bilan Farg'ona vodiysining markaziy cho'llariga kelib joylashganlar.

Qirg'izlar qoraqirg'izlar deb yuritilib, Farg'ona vodiysining janubi-sharqiy va shimoli-sharqiy hududlarida yashaganlar. Manbalarda ularning umumiy soni 300 ming deb ko'rsatilgan bo'lib, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. XVIII asr o'rtalarida Erdonabiy ularni bo'ysundirishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu ishni amalga oshira olmagan. Bu harakat Norbo'tabiy va Olimbek davrlarida ham davom etgan. Faqatgina Umarxon hukmronligining oxirlaridagina qirg'izlar ustidan nazorat o'rnatilgan.

Xonlik hududidagi *uyg'urlar* avval Xitoyga qarashli bo'lgan Sharqiy Turkiston hududlarida yashaganlar. XVIII asr o'rtalarida Xitoy imperatorlarining tazyiqi ostida Farg'ona vodiysiga (asosan, O'sh, Andijon, Shahrixon hududlariga) ko'chib kelgan. Ko'chish XIX asrda ham davom etgan. Manbalarda ularning soni 70-80 ming bo'lganligi ko'rsatilgan. Uyg'urlarning bir qismi keyinroq o'z vatanlariga qaytib ketganlar.

Dunganlar ham uyg'urlar singari Xitoy imperiyasining tazyiqi oqibatida Sharqiy Turkistondan ko'chib kelganlar. Ularning bir qismi xonlik hududi orqali Rossiyaga ko'chib o'tgan bo'lib, qolganlari esa xonlik hududiga kelib o'rnatilganlar (hozirgi kunda dunganlar Qirg'izistonning Chuy vodiysida istiqomat qiladi).

Ruslar va tatarlarni xonlik shaharlarida tez-tez uchratish mumkin edi. Ruslar va tatarlar savdo va sayyohlik orqali O'rta Osiyoga ko'chib kelgan. Ular usta hunarmand bo'lganliklari uchun Qo'qon xonlari tomonidan himoyaga olingan. Tatarlarni Qo'qon shahri madrasalarida talaba sifatida ham uchratish mumkin bo'lgan. Ular musulmon bo'lganliklari uchun mahalliy qizlar bilan nikohdan o'tishlari qiyin emas edi. Umumiy diniy e'tiqod tatarlarning xonlik shaharlarida muqim o'rnatilib olishlarining eng muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Qo'qon xonligida qo'shin. Xonlik qo'shinining asosiy qismini otliq askarlar tashkil etgan. Bundan tashqari, piyoda askarlar bo'linmasi mavjud bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan Qo'qon xonligida miltiq, ayniqsa, to'plar asosiy o'rin tuta boshlagan. Qo'qon xonligida to'plar XIX asrning 30-yillarida ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, to'pchilar bo'linmasi ilk marotaba Xudoyorxonning birinchi hukmronligi yillarida rasmiy jihatdan tashkil topgan (1845). To'p va to'pchilar, odatda, chegara punktlaridagi qal'alarda saqlangan. Qo'shindagi muhim bo'linmalardan biri merganlar bo'lib, unga jangchilar tanlov asosida yig'ib olingan.

Qo'qon xonligida harbiy safarbarlikka barcha yaroqli erkaklar jalb qilingan. Qaysi hududdan qancha askar safarbar qilinishi hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan edi. Ushbu qoida muntazam qo'shinga ham daxldor bo'lgan. Shuni ta'kidlash

lozimki, askarlikka, ya'ni, muntazam qo'shin tarkibiga, XIX asr rus sayyohlari va zobitlari qayd etganidek, fuqarolar orasidan saralab olingan. Qo'qon xonligida muntazam qo'shin tarkibiga xizmatga olish ayrim vaziyatlarda merosiy bo'lib, harbiy xizmat qilish otadan o'g'ilga o'tganligini ko'rish mumkin. Agar sarboz jang vaqtida halok bo'lsa, qurol-yarog'i va o'rni uning o'g'liga, agar o'g'li bo'lmasa, yaqin qarindoshlariga berilgan.

Xonlikdagi harbiy mansab va unvonlar uch toifaga bo'lingan:

1. Oliy darajadagi mansablarga: mingboshi, amirilashkar, qushbegi, botirboshi, vali (noib), qal'abon, qo'rboshi, yovar, to'pchiboshi, to'qsoba, ponsodboshi kirgan.

2. O'rta darajali harbiy mansab va unvonlarga yuzboshi, ellikboshi, dahboshi, qorovulbegi kiritilgan.

3. Quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlarga askar, sarboz, navkar, mergan, mahram, botur, jazoilchi, to'pchi, qo'rchi, qorovullar kiritilgan.

Harbiy mansab va unvonga tayinlanishda aksariyat hollarda tabaqa va millat muhim rol o'ynamagan. Eng yuqori harbiy mansab *mingboshi* – ming nafar askarning boshlig'i bo'lgan (*ma'muriy jihatdan ming nafar askar bera oladigan mulk hokimi*). Qo'qon xonligida mingboshi lavozimi Olimxon davrida joriy qilingan bo'lib, xondan keyingi asosiy shaxs bo'lgan. U oliy bosh qo'mondon vazifasini ham bajarib, harbiy yurishlarda unga amirilashkar unvoni berilgan. Keyingi mansab *qushbegi* – viloyatlar harbiy kuchlariga bosh bo'lib shu hudud muhofazasi ham unga topshirilgan. Qo'qon xonligida ularning soni 4 ta bo'lgan.

Botirboshi besh yuz nafardan ko'p dasta yoki to'pga boshchilik qilgan, viloyatdagi harbiy qo'shin ishlariga mas'ul bo'lgan. Xonlikda *noib* mansabi ham bo'lib, poytaxtda artilleriyaga javob bergan. U harakatdagi qo'shinning to'plari, ularning saqlanishi va manzilga yetkazilishiga mas'ul bo'lgan. *Qutvol* mansabidagi shaxs qal'abon bo'lib (*komendant*), qal'aga javobgar bo'lgan. Xon tomonidan tayinlangan qal'abonlarning qo'lida harbiy muhandis-sarxang kabi bir necha lavozimlar bo'lgan. *Qo'rboshi* xonlik qo'shinidagi qurol-aslaha ishlab chiqarish, saqlash va kerakli

joyga yetkazish ishlariga ma'sul bo'lgan. Qurol-aslaha ombori boshligi *jibachi* deb atalgan.

Qo'qon xonligida eng muhim harbiy mansablardan biri *yovar* bo'lib, u xon va uning oilasi xavfsizligini ta'minlovchi soqchilar, xon gvardiyasi boshlig'i hisoblangan. Xos soqchilar chet ellik elchilar xavfsizligini ham ta'minlaganlar. Shuning uchun yovar mansabiga eng ishonchli odamlar tayinlangan. Yovar qo'l ostiga to'plangan xos soqchilar tanlab olingan. Ularning aksariyati bolalikdan tarbiya qilingan. Soqchilar Xudoyorxon davrida 400 tadan iborat bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor.

To'pchiboshilar artilleriyaning jangdagi xatti-harakati uchun javobgar bo'lgan. *To'pchiboshilarning* aksariyati chet ellik muraxassislardan tayinlangan. *To'qsoba* – o'z tug'iga ega bo'lgan bo'linma boshlig'i. Ponsodboshi 500 kishilik qo'shin qo'mondoni. Ponsodboshi va undan yuqoridagi mansab egalari o'z mirzalariga ega bo'lgan. Qo'shin 500, ular o'z navbatida yuzlarga bo'lingan. Piyoda qo'shin boshlig'i sarbozboshi deyilgan. Ellikboshi va o'nboshi oliy harbiy unvon (zobit) jumlasiga kirmagan. Ular askarlar orasidan tayinlangan. Xon qarorgohini tunda qo'riqlovchi soqchilar boshlig'i *qorovulbegi* deb nomlangan.

Qo'qon xonligi qo'shinida huquqiy masalalar bilan *qoziaskar* shug'ullangan. U "jihad" e'lon qilgan, o'ljani baholagan va to'g'ri taqsimlanishini nazorat qilgan. Ular harbiy huquqni yaxshi bilishlari shart bo'lgan. Harbiy harakatlar paytida qo'shin joylashgan hudud qozisi o'z vakolatlarini qoziaskarga topshirgan. Qoziaskar qozikalonga bo'ysungan. Qozi – rais unvonidaga shaxs muftiy bergan fatvoning to'g'ri bajarilishini nazorat qilgan. Muftiy esa qozi chiqargan qonun va buyruqlarning sha'riy ekanligini sharhlagan, amalda qo'llanishiga ruxsat bergan. Xonlikdagi harbiy mansablarning aksariyati ma'muriy mansablar bilan aralash bo'lgan.

Harbiylar tayyorlash uchun maxsus o'quv yurtlari bo'lmagan. Aksariyat hollarda harbiy mansablar merosiy bo'lgan, lekin o'g'il quyi mansabdan boshlab xizmat qilgan.

Qo'shin ta'minoti. Qo'qon xonligida lashkarlar davlat tomonidan ta'minlangan. Yuqori harbiy mansablarga alohida

e'tibor berilgan. Tarixchi H. Bobobekovning yozishicha, har bir kishi xon xizmatiga kirayotganida ot, ot abzali bilan ta'minlangan. Safarga chiqish oldidan yuzboshi 2 tilla, ellikboshi 1,5 tilla, askarlar 1 tilladan pul olganlar. Harbiy xizmatdagilarga yil davomida davlat pul yoki natura tarzida mahsulot berib turgan. Jumladan, yuzboshi 175 so'm, ellikboshi 98 so'm, o'nboshi 68 so'm, oddiy askarlar 43 so'm kumush tanga olgan. Y. Qosimov Qo'qon yuzboshilari 1851-yilda 80 pud bug'doy, 240 pud jo'xori, chopon, salla, belbog' va boshqa kiyim-kechaklar, 2 ta qo'y, choy va 1 tillayu 4 tanga maosh olgan, deb yozgan. H. Bobobekovning yozishicha: "Quyi mansabdagi xizmatchilar hukumatdan bir-yilda ikki qopdan arpa, oyiga 1 tilladan pul olardilar. Bundan tashqari, ayrim zamonlarda ularga bahorda 4 tadan yozlik to'n, ko'ylak, etik, salla, do'ppi, belbog', qishda esa issiq chopon, oshlangan po'stin, etik, issiq telpak va ot berilardi".

Xukumat qo'shinni qurol-aslaha bilan ta'minlagan. Qilich, nayza, miltiq berilgan. Lekin, miltiq kamligi uchun ayrimlarga gagina berilgan, xolos. Artilleriyada to'plar soni juda oz bo'lgan (100 ga yaqin). 1842-yildagi Buxoro-Qo'qon urushida Qo'qon mag'lubiyatdan so'ng to'plarning va qurollarning bir qismidan ayrilgan. Zambaraklar harbiy harakatlar paytida otlarda qoshib tortilgan. G'ildirakli zambaraklarning har biriga 6 tadan ot qo'shilgan. O'q-dorilar, maxsus portlovchi moddalar ham sandiqlarga solinib aravalarda tashilgan.

Shohruhbiy davridan boshlab Qo'qon xonligi o'z chegaralarini kengaytirishda qo'shinga tayangan. Abdurahimbiy davrida qo'shin soni 20 ming kishiga yetgan. Abdurahimbiyning 1725-yil Xo'jand qal'asini qo'lga kiritishda 20 ming askari bo'lganligi ma'lum. Qo'shindagi katta o'zgarishlar Olimxon (1798-1810-y.y.) davrida bo'lgan. U tog'li tojiklar va boshqa millat vakillaridan iborat muntazam qo'shin tuzgan. 1805-yili o'qotar qurollar bilan qurollangan 10 ming kishilik muntazam qo'shin mavjud bo'lgan. Ular keyinchalik xonlik qo'shinining zarbdor kuchiga aylandi.

Umarxon davrida ham harbiy ishga yaxshi e'tibor berildi. Madalixon davrida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Buxoro

amirligiga qarashli Qorategin, Darvoz, Ko'lob kabi bekliklar bo'ysundirilgan, Sharqiy Turkistonda faol harakatlar olib borildi.

Buxoro-Qo'qon urushi xonlik qo'shiniga putur yetkazgan bo'lsa-da, Sheralixon davrida harbiy qudratni tiklashga erishgan. U yordamchi harbiy bo'linmalar sonini ko'paytirdi. Shulardan biri "qil quyriq" edi. Manbalarda Sheralixonning Toshkent yurishida "qil quyriq"dan foydalanganligi yozilgan.

Xudoyorxon hokimiyat tepasida turgan paytida qo'shinda askarlar sonini ko'paytirgan. Istambuldan multiqlarni sotib olingan, to'plar sonini ko'paytirilgan. U qo'shinga boshqa millat vakillarini jamlashga harakat qilgan. Bundan tashqari, boshqa millat vakillari bo'lgan qul va g'ulomlar hisobiga qo'shinni to'ldirilgan.

Qo'qon xonligida xonlardan tashqari turli amaldorlar va lashkarboshilar ham qo'shin qudratining yuksalishiga o'z hissasini qo'shganlar. Masalan, Toshkent hokimi Mirza Ahmad parvonachi, lashkarboshi Alimquli (Aliquli) kabilar qo'shin rivoji, ta'minoti bilan astoydil shug'ullanganlar.

Tayanch iboralar: qushbegi, oliy mansablar, o'rta mansablar, quyi darajadagi mansablar, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, tojiklar, ko'chish, hunarmandchilik, amirilashkar, oliy harbiy mansablar, o'rta darajadagi harbiy mansablar, quyi darajadagi harbiy mansablar, "qilquyriq".

Nazorat savollari.

1. Xonlik aholisining milliy tarkibini tushuntirib bering.
2. Mingboshi qanday vazifalarni bajargan?
3. Qaysi mansablar oliy mansablar qatoriga kiritilgan?
4. Xonlik qo'shinidagi oliy darajadagi mansablarni sanab bering.
5. Qo'rboshining vazifasi nimadan iborat edi?
3. Qo'shinda ta'minot qanday amalga oshirilgan?
4. Olimxon davrida qanday harbiy islohot o'tkazilgan?

QO'QON XONLIGIDA IJTIMOY- IQTISODIY MUNOSABATLAR

Reja:

1. Yer-suv (agrar) munosabatlari.
2. Soliq va majburiyatlar.
3. Qo'qon xonligida hunarmandchilik.
4. Ichki va tashqi savdo.

Yer-suv (agrar) munosabatlari. Qo'qon xonligida *yer egaligining* 3 turi mavjud bo'lgan: amlok (davlat yerlari), xususiy yerlar va vaqf. Shunday bo'lishiga qaramasdan, barcha yerlar davlatniki, deb e'lon qilingan edi. Shuning uchun mulkdorlar yerga emas, yerdan olingan mahsulotlarga, imoratlarga egalik qilar edilar. Yerga egalik qilishda shariat qonun-qoidalariga amal qilingan. Agar 3 yil mobaynida yerdan foydalanilmasa, xiroj (ijara) haqi to'lanmasa, yer egasi yerdan mahrum qilingan.

O'z navbatida mulkiy yerlar ham turlarga bo'lingan:

1. Mulki xolis yoki mulki xur – davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun berilgan bo'lib, soliqdan ozod qilingan. 2. Mulki ushr – olinadigan hosilning $1/10$ miqdorida soliq to'lanadigan yerlar bo'lib, bunday yer egalari ham davlat ahamiyatidagi shaxslar bo'lgan. 3. Mulki xiroj – bosib olingan yerlar bo'lib, hosilning $1/4$ yoki $1/5$ qismi miqdorida soliq to'lanadigan yerlar. Aslida mulki xiroj yerlarini bosib olingan yerlardan tashqari, Qo'qon hududlarida uchratish mumkin edi. Urushlar vaqtida mulkiy yerlarga berilgan imtiyozlar bekor qilingan.

Vaqf mulklari – diniy muassalarga qarashli yerlar bo'lib, vaqt o'tishi bilan kengayib borgan, chunki feodallar va xonlar ruhoniylar ta'siri ostida diniy muassasalarga yerlar hadya etganlar. Barcha madrasa, masjid va mozorlar vaqf yerlariga ega edi. Masalan, Marg'ilon atrofida 22530 desyatina (*bir desyatina 1,0925 gektarga teng*), Andijonda 32640 desyatina, Oltinko'l, Izboskan, Novqatda 21270 desyatina yer masjid va madrasalar ixtiyorida bo'lgan. Bulardan tashqari, ruhoniylar katta mulk egalari bo'lganlar. Ular yirik feodallar hisoblanganlar.

Xonlikda xon va uning ixtiyoridagi yerlar ham bo'lib, ular *chek* yerlar, deb atalgan. Masalan, Sheralixonning 291 desyatina yeri bo'lgan. Ayniqsa, Xudoyorxonning *chek* yeri ko'paygan bo'lib, ularning aksariyati sug'oriladigan yerlar bo'lgan. Xudoyorxon davrida yerlar saroy harajatlari uchun sarflanadigan yerlar, ov qilinadigan yerlar, qo'riqxonaga aylantirilgan mulklarga bo'lingan. Bunday yerlar Markaziy Farg'ona yerlarida, hozirgi Pop va Mingbuloq tumanlari hududlarida ham ko'p bo'lgan. Ularni xon qo'shinlari qo'riqlaganlar.

Xonlik hududida shahar va qishloqlarda xon dam olishi uchun barpo qilingan bog'lar bo'lgan. Masalan, Qo'qon shahri yaqinida 400 tanobdan iborat "Afg'on bog'i" va "Urganch bog'i" bo'lgan. U yerda xon va uning oila a'zolari dam olgan. Bunday dam olish maskanlari Namangan, Baliqchi, Marg'ilon, Toshkent kabi shaharlar yaqinida ko'proq bo'lgan. Xon, uning qarindoshlari, feodallar, ruhoniylarning yarlari ko'pligiga qaramasdan, dehqonlarning 40-60 foizida yer bo'lmagan.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysida *sug'orma dehqonchilik* madaniyati miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Vodiydagi dastlabki sug'orma dehqonchilik haqidagi ma'lumotlarni Sima Tsyen, Chjan Tszan va Xoy Chao kabi Xitoy tarixchilarining asarlarida uchratish mumkin. Dehqonchilik madaniyatiga oid ma'lumotlar yozma manbalardan tashqari qoyatosh rasmlarida va arxeologik materiallarda ham aks etgan. Vodiya sug'orma dehqonchilik uchun asosiy sharoitlar — unumdor yer, suv manbalari, qulay ob-havo o'ziga xos dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Qo'qon xonligiga qarashli yerlar Norin, Qoradaryo, So'x, Isfara, Marg'ilonsoy, Isfara, Shohimardon, Aravon, Qurshob, Asht, Novqat, Oqbura, Qorabura, Kosonsoy, Chirchiq, Ohangaron, G'ovasoy, Chodaksoy, Podshootasoy kabi daryo va soylardan suv ichgan. Qo'qon xonligida xon va davlat amaldorlari boshchiligida ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari bunyod etilgan, lekin, yirik inshootlar qurish qiyin kechgan. Suv inshootlari qurilishlarining ko'pchiligi Olimxon va Umarxon davrida amalga

oshirilgan. Tarixchi Y. Qosimovning ma'lumot berishicha, 1803-yili Norin daryosining o'ng sohilida hashar yo'li bilan Yangiariq arig'i kavlangan. U Qizilravot, Uychi, Chortoq, Namangan va Xonobod kabi shahar va qishloqlarni suv bilan ta'minlagan. Yangiariqdan umumiy 96 ta ariq chiqarilgan. 1819-yilda Umarxon farmoni bilan Yangiariq kanalini kengaytirish boshlangan. Farmonga ko'ra, Namangan viloyatidan har bir oiladan bir odam o'z ish quroli va o'n besh kunlik ozuqasi bilan kelishi majburiy bo'lgan. Kanal qurilishiga boshqa viloyatlardan ham aholi hasharga jalb etilgan. Kanal qazish uch yilga cho'zilgan va 100 chaqirimga yetkazilgan. 1819-1821-yillarda esa Shahrixon soyi kavlangan va u Nahri Umarxoniy kanali deb nomlangan. Uzunligi 101 chaqirimdan iborat bo'lgan bu kanalga Qoradaryodan suv olingan. Kanal bitgach, Andijon viloyatining janubi-sharqiy yerlariga suv chiqarilib, qo'riq va bo'z yerlar o'zlashtirish boshlangan, aholi yangi yerlarga ko'chib kelgan. Natijada Shahrixon shahri bunyod etilgan.

Madalixon davrida ham yangi *kanallar* qazilgan. Masalan, Sirdaryoning chap sohilida Gurtepa va Momoxon ariqlari, Toshkent yaqinidagi Xonariq shular jumlasidandir. Madalixon davrida Chirchiq daryosidan Bo'zsuv, 70 chaqirim uzunlikdagi Zog'ariq qazilgan. Chirchiq daryosidan jami 45 ta kanal va ariq chiqarilgan.

Musulmonqul 1839-1840-yillarda xalq kuchi bilan kanal qazdirgan. Bu kanal keyinchalik uning nomi bilan atalgan. 1853-yil Marg'ilon hokimi O'tanboy shahardan 8 chaqirim uzoqlikdagi Fayziobod qishlog'ida Devonarabod qishlog'i tomonga qarab xon buyrug'i bilan ariq qazdirgan. XIX asrning 50-yillarida Chinobod arig'i, keyinroq Xo'ton arig'i kavlangan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu ariqlarning qurilishida sharqiy turkistonlik mardikorlar va xitoy asirlarining mehnati katta bo'lgan. 1862-yili Andijon shimolida Xonariq kanali, 1861-1863-yillarda xon buyrug'i bilan Ulug'nor (yoki Ulug'nahr) kanali qazilgan (ayrim manbalarda Ulug'nor kanali 1869-1870-yillarda qazilganligi ko'rsatilgan).

Soliq va majburiyatlar. Qo'qon xonligida soliq yig'imiga alohida e'tibor qaratilgan. Mirza, amin, sarkor, oqsoqol kabilar

soliq ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar bo'lgan. Soliqlar beklik va xossachi turlariga bo'lingan. Beklik mahalliy viloyat hokimi xazinasiga uchun yig'ilgan bo'lsa, xossachi xon xazinasiga foydasiga olingan.

Yerdan olinadigan asosiy soliq *xiroj* hisoblanib, sharoitga qarab $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ va $\frac{1}{5}$ miqdorida belgilangan. Asosiy soliqlardan yana biri tanob (tanobona) bo'lib, u bog'lar va bedazorlar kabi yerlaridan olingan. *Tanob*ning miqdori aniq belgilanmagan. Tanob miqdori vaqt o'tishi bilan o'zgarib turgan. Qo'qon xonligida XIX asrning o'rtalarida rezavor mevali yerlardan va bog'larning har tanobidan 3 tangadan 11 tillagacha soliq olingan. Xonlikda aholidan olinadigan *zakot* solig'i 40 tillodan ortiq mablag' va chorva mollari mavjud bo'lgan shaxslardan $\frac{1}{40}$ miqdorda xon xazinasiga undirilgan. Chet eldan kelgan savdo karvonlaridan olinadigan zakot miqdori 2,5 % ga, yahudiy va xristianlar tovarlaridan olinadigan zakot esa 5 % ga teng bo'lgan. Chorvadorlardan olinadigan tutun puli kabi soliqlar ham xon xazinasiga yig'ilgan. Umuman olganda, adabiyotlarda o'tin puli, kechuv puli, ko'mir puli kabi 90 tadan ortiq soliq turlari bo'lganligi keltirilgan. Lekin, xonlik aholisining barchasi shu soliqlarga birday tortilgan, deb bo'lmaydi.

Xonlikdagi majburiyatlarning eng asosiysi *harbiy majburiyat* bo'lib, ayniqsa, harbiy harakatlar boshlangan paytda erkaklar qurol-yarog'i bilan belgilangan joyga yetib kelishga majbur edilar. Bundan tashqari, mehnat majburiyatlari mavjud bo'lib, aholi xon va boshqa feodallarning yerlarida tekinga ishlab berishga majbur qilingan. Bu majburiyat bir necha haftaga cho'zilib ketgan. Xonlik aholisi ariq, zovurlar qurilishi, ularni tozalash kabi ishlarga ham jalb etilgan. Bunda ham aholi o'z mehnat qurollari va oziq-ovqatlari bilan kelishlari kerak bo'lgan. Yo'llar, ko'priklar qurilishi va ularni ta'mirlash uchun ham mehnatkashlar jalb qilinib, tekinga ishlab berganlar. Majburiyatning yana bir turi qurilish bilin bog'liq bo'lib, saroy, masjid, madrasa kabi inshootlarning bunyod etilishida aholining ishtiroki ta'minlangan.

Hunarmandchilik. Qo'qon xonligida hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan edi. Hunarmandchilikning asosiy

yo`nalishlaridan biri *to`qimachilik* bo`lib, uning asosiy xom ashyosi mahalliy paxta bo`lgan. To`qimachilik mahsulotining bo`z, karbas, olacha, chit kabi turlari hunarmandchilikning asosiy mahsulotlari bo`lgan.

Qo`qon xonligida paxta mahsulotlaridan tashqari *ipakchilik* bo`lib, ipak va ipak matolar chetga ham chiqarilgan. XIX asr 60-yillari oxirlarida Qo`qon va Marg`ilonning o`zida to`qqiz yuzga yaqin xonadon ipakchilik bilan shug`ullangan. Xonlikda tayyorlangan ipak sifatli hisoblanib, sifatiga qarab – “chilla”, “tafil”, “sarnoq” va boshqa navlarga ajratigan. Shuningdek, xonlikda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan.

Ipakdan turli matolar to`qilgan. Qo`qon, Marg`ilon, Namangan va Xo`jand hunarmandlari ipak (kanoviz, shoyi, atlas va h.k.) va yarim ipak matolar (beqasam, banoras, adras) ishlab chiqarganlar. Qo`qon xonligi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg`ilonda bu gazlama “atlas” yoki “jiba arqoq” nomi bilan mashhur bo`lgan. Lekin, XIX asr boshlaridan O`rta Osiyo bozorlariga ingliz va rus mollarining kirib kelishi bilan mahalliy matolar kasodga uchray boshlagan. Ko`p o`tmay, Qo`qon xonligi ham boshqa O`rta Osiyo xonliklari kabi xomashyo yetishtiruvchi mamlakatlardan biriga aylanib qolgan.

Qo`qon xonligida hunarmandchilikning muhim tarmoqlaridan yana biri *kulolchilik* bo`lib, by mahsulotlarga talab doimo katta bo`lgan. Buxoro va Xiva xonliklari kabi Qo`qon xonligida ham o`ziga xos kulolchilik maktabi shakllangan edi. Rishton shahrida xonlikdagi eng sifatli haridorgir kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, mahalliy me`morchilik inshootlari uchun g`isht pishiruvchi xumdonlar qurilgan. Shu g`ishtlardan madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan.

Xonlikda yog`och va metallga ishlov berish, temir buyumlar ishlab chiqarish ham o`ziga xos tarzda rivojlangan. Qo`qon, Toshkent, Namangan va Andijon shaharlarida yog`ochga ishlov beruvchi, temir buyumlar ishlab chiqaruvchi va boshqa ko`plab ustaxonalar mavjud bo`lib, ular, asosan, bozorlardagi hunarmand-

chilik do'konlarida joylashgan. Ularda tayyorlangan mahsulotlar do'konlarning o'zida sotilgan. Xonlik shaharlarida hunarmandlarning bunday do'konlari ko'pchilikni tashkil etib, XIX asrda birgina Qo'qonning o'zida 400 ga yaqin misgar, 100 ga yaqin kandakor faoliyat yuritgan. XIX asrning o'rtalariga qadar Toshkentda 100 dan ortiq temirchilik ustaxonasi mavjud bo'lgan.

Xonlikning daryo bo'ylarida va ularga yaqin hududlarda joylashgan shaharlarda qayiqsozlik va kemasozlik ham taraqqiy etgan. Qo'qon, Toshkent, Namangan va Xo'jand shaharlari metallga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi hisoblangan. Bu shaharlarda yuqoridagi mahsulotlardan tashqari, miltiq, qilich kabi qurollar tayyorlangan. Temirchilik xonlikning boshqa shaharlarida ham taraqqiy etgan. Xususan, Chust, Shahrixon, Qo'qon, Poytug' va Qorasuv shaharlari Farg'ona vodiysining 5 ta metall buyumlar, asosan, pichoq ishlab chiqarish markazlari bo'lib, ulardan uchtasining bozori Andijonda joylashgan.

Qo'qon xonligida taraqqiy etgan o'ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravaszlik edi. Aravaszlik Qo'qon, Toshkent, Namangan va Marg'ilon shaharlarida rivojlangan bo'lib, xonlikda tayyorlangan aravalar "Qo'qon arava" nomi bilan O'rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo'qon aravaszlik va egar-jabduq tayyorlash bo'yicha O'rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo'qon arava 25-40 pud (1 pud – 16 kg. ga teng)gacha yuk ko'tara olgan va, asosan, otlar yordamida manzilga olib borilgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda faol foydalanilgan.

Zargarlik qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida qadrli kasblardan bo'lgan. Qo'qon xonligida ham bu soha o'ziga xos tarzda taraqqiy etgan bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari an'analariga mos ravishda zargarlik ustaxonalari yirik shaharlarning markazlarida joylashgan. Zargarlik buyumlari tayyorlash borasida poytaxt Qo'qon yaqqol ajralib turgan va O'rta Osiyoda faqatgina Buxoro Qo'qon bilan raqobat qila olgan. Shuningdek, Toshkent zargarlari ham o'z uslubiga ega bo'lganlar.

Xonlikda hunarmandchilikning ko'nychilik va teriga ishlov berish yo'nalishlari ham rivojlangan. Qo'qon, Toshkent, Andijon

va O'sh shaharlarida terini qayta ishlash va undan poyabzal tayyorlash bilan birga teridan kiyim-kechak, bosh kiyim, suv va qimiz uchun meshlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Qo'qon shahrida esa chorva terilarini oshlash, ularga ishlov berish, turli rangga bo'yash va ulardan etik, kavush, mahsi tayyorlash ham ancha ravnaq topgan edi. XIX asr 60-yillarida Toshkentda teridan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan 60 ta do'kon shug'ullangan. Xonlikda tayyorlangan poyabzallarga mahalliy aholi bilan bir qatorda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi cho'l va tog' oldi hududlar aholisi, asosan, qozoq va qirg'izlar orasida talab katta bo'lgan.

Qo'qon xonligi shaharlarida sovun ishlab chiqarish hunarmandchilikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, mahsulotga ichki va tashqi talab katta bo'lgan. Sovungarlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar orqali mahalliy aholining sovunga bo'lgan ehtiyoji to'la qondirilgan. Marg'ilon o'zining ipak matolari qatorida kulrang va qora rangdagi sovuni bilan mashhur bo'lgan bo'lsa, Toshkentda tayyorlangan kulrang sovunga mahalliy aholi orasida talab katta edi.

Xonlikda tayyorlangan qog'oz O'rta Osiyoda mashhur bo'lib, ayniqsa, ilm ahli orasida benihoyat qadrlangan. XVIII asr boshlarida Qo'qonda ikkita qog'oz ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib, ularning biri shaharning "Mo'yi Muborak" darvozasi yaqinida, ikkinchisi shahar yaqinidagi Chorku qishlog'ida joylashgan edi. Qo'qonda ishlab chiqarilgan qog'oz butun O'rta Osiyo bozorlariga olib ketilgan.

Xonlik shaharlarida o'simliklardan turli rangdagi bo'yoq tayyorlash va ip-gazlama, ipak hamda ipak matolarni bo'yash hunari rivojlangan edi. Xonlikda bu sohada Namangan shahri yetakchilik qilgan. Bu shaharda ipakni bo'yashda, asosan, norpus (qora anor) bo'yog'idan foydalanilgan bo'lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo'yatish uchun olib kelganlar. Qo'qon xonligida O'rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro'yan (marena) deb nomlangan butasimon o'simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo'yoq tayyorlangan va u bilan qizg'in savdo

amalgaga oshirilgan. Bu bo'yoq ham, asosan, Namanganda tayyorlangan.

Ichki va tashqi savdo. Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog'li hudud aholisi va ko'chmanchi chorvadorlar chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib chiqqan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o'sha hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarini arzon bahoda, ulgurjisiga sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirgan. O'z navbatida, hunarmandlarning mollarini sotib olib, o'zlari bozorma-bozor, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat yuritgan.

Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonliklari alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalqlar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan. Buxoro va Xivadan tashqari, Qo'qon xonligi Rossiya, qozoq dashtlari, Qoshg'ar, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Hindiston, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan.

Qo'qon xonligi bilan tashqi savdo aloqalariga ega mamlakatlardan biri Hindiston edi. Ikki davlat hududi bir biridan uzoqligiga qaramay, savdo aloqalar o'sib borgan. Qo'qon xonligidan Hindistonga, asosan, xom ipak, ipak va yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, ro'yan, echki momig'i jo'natilgan. Shuningdek, qo'qonlik savdogarlar tomonidan Hindistonga mahalliy hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida tayyorlangan va Rossiya mollari ham olib borilgan.

Qo'qon xonligi Afg'oniston bilan ham faol savdo aloqalarini o'rnatgan. Afg'oniston shaharlari bilan Qo'qon xonligini bog'lovchi karvon yo'llari, asosan, Buxoro amirligi hududidan o'tgan va amirlik bozorlari orqali ham Afg'oniston-Qo'qon xonligi savdo aloqalari amalga oshirilgan. Afg'onistondan Qo'qon xonligiga Buxoro orqali afg'on qilichi, xanjari, to'n va sallalari, gilamlar, dorivor gilyohlar, qo'y, tulki mo'ynalari, jun gazlama, buzgundj

bo'yog'i, Buxoro qorako'lidan farq qiluvchi qorako'l terisi va hind, ingliz, fors mollari keltirilgan. Xonlikning Afg'onistonga eksport qiluvchi asosiy mahsuloti ipak hisoblangan. Afg'oniston bozorlariga Xitoyda ishlab chiqarilgan chinni idishlarni sotishda Qo'qon savdogarlari ham faol ishtirok etganlar.

Qo'qon xonligidan Eronga, asosan, xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak gazlamalar va xonlik hududi orqali hamda savdogarlari tomonidan Qoshg'ar ipagi va ipak matolari, Xitoy chinni idishlari, attorlik mollari, choy va boshqa mahsulotlar olib borilgan.

Qo'qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Bu mamlakatlarga xonlik savdogarlarining har bir safari bir necha oylab, yillab davom etgan. Har yili haj mavsumida Makka va Madina ziyoratiga otlangan hojilar ham ikki hudud o'rtasidagi savdo aloqalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganlar.

Tayanch iboralar: yer egaligi, mulk yerlar, chek yerlar, tabiiy suv manbalari, sun'iy sug'orish inshootlari, tanob, xiroj, majburiyatlar, hunarmandchilik, hunarmandchilik turlari, ichki savdo, tashqi savdo.

Nazorat savollari.

1. Chek yerlar qanday yer ekanligini eslang.
2. Xonlik hududidagi asosiy tabiiy suv manbalarini ko'rsating.
3. Sun'iy sug'orish inshootlari qurilishi qanday amalga oshirilgan?
4. Xonlikdagi asosiy soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
5. Xonlikdagi hunarmandchilikning eng muhim turlari qaysilar edi?
5. Ichki va tashqi savdoga baho bering.

QO`QON-BUXORO MUNOSABATLARI

Reja:

1. XIX asrning boshlarida Qo`qon-Buxoro munosabatlarining keskinlashuvi.
2. Xonlikning Buxoro amirligi tomonidan bosib olinishi.
3. Ikkinchi yurish va xonlikning Buxoroga tobe etilishi.
4. Qo`qon xonligining mustaqillikka erishishi.

**XIX asrning boshlarida Qo`qon-Buxoro munosabatlari-ning keskinlashuvi.** Buxorodan ajralib chiqqan Qo`qon xonligi XIX asr boshlarigacha bo`lgan davrda o`z mustaqilligini mustahkamlash va chegaralarini kengaytirishga erishdi. XIX asr boshlariga kelib xonlikda markazlashish jarayoni kuchaydi. Olimxon (1798-1810) avval Farg`onani, so`ng Toshkent va Chimkentni to`laligicha qo`l ostiga birlashtirishga erishdi. Olimxondan keyin Umarxon davrida (1810-1822-y.y.) Issiqko`l, Ili vodiysigacha bo`lgan yerlar hamda Sirdaryo etaklaridagi qozoq dashtlari ham Qo`qon xonligiga bo`ysundirildi. Buxoro, Xiva va Toshkentni tutashtiruvchi hududda Oqmachit qal`asi barpo etildi.

Umarxon Buxoro amiri bilan yaxshi qo`shnichilik aloqalarini olib borgan, deyish qiyin. U avval Buxoro amiri Amir Haydar bilan ittifoq tuzgan bo`lsa-da, 1815-yilda Buxoroga qarashli bo`lgan Turkistonga yurish qilgan. Urush boshlanishining asosiy sababi, Rossiyaga boradigan savdo yo`llariga egalik qilish edi.

1817-yilda O`ratepada xonlikka qarshi qo`zg`olon ko`tarilgan. Xon qo`shinlari juda qiyinchilik bilan bo`lsa-da, qo`zg`olonni bostirgan. Umarxonning buyrug`i bilan bir necha qo`zg`olonchilar qatl etilgan. 1821-yili qozoqlar qo`zg`oloni boshlangan. Qo`zg`olonchilar vaqtincha Sayram va Chimkentni egallashga erishganlar. Davlat chegaralarini mustahkamlash va kengaytirishda muvaffaqiyatga erishgan Umarxon 1822-yili kasallikdan vafot etgan. Uning vafotidan so`ng Qo`qon taxtiga 12 yoshli (ayrim manbalarda 15 yoshli) o`g`li *Muhammad Alixon* (Madalixon) o`tirdi.

Madalixon taxtga chiqqanidan so`ng ishni otasi hokimiyati davridagi norozi bo`lganlarni qatl etishdan boshladi. Buning oqi-

batida xonga qarshi muxolifat vujudga kelgan. 1826-1832-yillarda Madalixon Sharqiy Turkistonda Xitoy imperiyasiga qarshi urush olib borgan. Bunga bahona bo'lgan voqea Xitoy hukumatining Sharqiy Turkistonda xojalar va musulmonlarga tazyiqi edi. Muhammad Alixonning Sharqiy Turkistonda musulmonlar himoyasi uchun uyushtirgan yurishlari Buxoro amirining nazari-dan chetda qolmagan. V. Nalivkinning yozishicha, amir Haydar 1826-yili xon huzuriga Ismatullabiy boshchiligidagi elchilarni sovg'a-salomlar bilan jo'natgan.

Muhammad Alixon Sharqiy Turkistondagi muvaffaqiyat-lardan so'ng tog'li tojiklarning yerlarini bosib olishni reja-lashtirgan. 1834-yilgacha Qorategin, Ko'lob va Daroz viloyatlarini bo'ysundirgan hamda Vahon, Shug'on, Roshon hududlariga qo'shin tortgan. Ma'lumki, bu yerlar Buxoro amirli-giga qarashli yoki unga qaram hududlar edi. Y. Qosimovning ta'kidlashicha, 1745-1746-yillarda qalmoqlarning Farg'ona vodi-yiga hujumi va qo'qonliklarning qalmoqlar ustidan g'alabasidan so'ng Buxoro xonligi Qo'qon xonligini mustaqil davlat sifatida tan olishga majbur bo'lgan. Shunday bo'lsada, Buxoroning Qo'-qon xonligiga nisbatan munosabati yaxshilanmadi. Qo'qon xonining Qorategin, Ko'lob, Daroz, Vahon, Shug'on, Roshon hududlariga yurishi, O'ratepa hamda Jizzax yerlariga da'vosi munosabatlarni yanada chigallashtirgan.

Madalixon tashqi siyosatda bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, Qo'qon xonligida xondan norozi guruhlar harakati pasaymagan. Bosib olingan hududlardagi norozilik, xonlikdagi etnik xilma-xillik masalaning chigallashishiga yordam berdi.

Xonlikning Buxoro amirligi tomonidan bosib olinishi. Buxoro taxtiga amir *Nasrulloxomning* (1826-1860-y.y.) kelishi bilan Buxoro-Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashgan. V. Nalivkinning ma'lumotiga ko'ra, Nasrulloxonning yaqin qarindoshlaridan biri Umarxon amir tazyiqidan qochib, Qo'qonga kelgan. Uni qo'qonlik mansabdorlar juda yaxshi kutib olganlar. Hatto, xonning yaqin amaldorlaridan biri – Is'hoq devonbening qiziga uylantirganlar. Nasrulloxon ham o'z navbatida Madalixondan norozi bo'lgan shaxslarni Buxoroga to'play

boshlagan edi. Madalixonning Qo`qondan quvilgan ukasi Sulton Mahmud ham amir saroyidan panoh topgan edi. Tarixiy adabiyotlarda ko`rsatilishicha, u amir buyrug`i bilan O`rmitonga hokim qilib tayinlangan.

G`ayridinlarga qarshi kurashda g`ozi unvonini olgan Madalixonning marhum otasining xotini, ya`ni o`gay onasi Xonposhsha oyimga uylanishi faqat saroydagina emas, butun xonlikda ham uning obro`sini tushirib yuborgan. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada og`irlashgan. Qo`qonga yurish uchun qulay paytni kutib turgan Nasrulloxonga Xonposhshaoyim voqeasi juda qo`l kelishi mumkin edi.

Y. Qosimovning yozishicha, 1840-yil (*ayrim adabiyotlarda bu voqealar 1842-yilda bo`lib o`tganligi yozilgan*) Madalixon saroydagi muxolifat kuchlar Qo`qonda xon boshchiligidagi shariat qonunlari buzilayotganligi haqida xat yozib, shariat qonunlarini tiklanishi uchun (*go`yoki*) Nasrulloxondan yordam so`raydilar. Nasrulloxon esa o`z elchilari orqali Madalixonga maktub yo`llab, uni o`gay onasiga uylanganlikda ayblagan va haqorat qilgan. Shundan so`ng Madalixon Buxoroga yurish boshlagan. Qo`qon va Buxoro qo`shinlari o`rtasidagi dastlabki jang 1840-yil avgustda chegara yaqinidagi Peshagar qo`rg`onida bo`lib o`tgan. Y. Qosimovning yozishicha, Peshagar Buxoroga qarashli bo`lib, u yerda amirning 800 askari mudofaada turgan. Buxoro askarlari Madalixon o`zining 400 ta askari bilan sayrga chiqqan paytida to`satdan hujum qilib, xonga zarba berganlar. Madalixon qurshovdan zo`rg`a qochib chiqishga ulgurgan. Ushbu jang haqida tarixiy manbalarda boshqacha ma`lumotlar ham berilgan. Masalan, V. Nalivkin Peshagar Qo`qon xonligi istehkomi bo`lganligi va Madalixon qo`rg`on mudofaasini Gadoybiy dodxoh boshchiligidagi 1000 nafar himoyachilarga topshirganligi haqida yozgan. Uning yozishicha, amir qo`shinlari bir necha ming kishilik qo`shin bilan qo`rg`onga hujum qilganida, Gadoybiy dodxoh Buxoro avangardini tor-mor keltirgan. Lekin, ertasi kungi hujumga dosh bera olmay, Peshagarni tashlab chiqishga majbur bo`lgan. Bu voqeadan so`ng buxoroliklarning g`alabali yurishlari boshlandi.

1841-yil sentabrda amir Nasrulloxon boshchiligidagi 60 ming kishilik qo`shin Jizzaxdan chiqib, Iomani qurshovga oldilar.

Buxoroliklarning 470 ta to'p bilan uch kunlik qamali qo'rg'onni vayron qilgan. 22-sentabrda buxoroliklar O'ratepa qamalini boshlagan. Shahar begi taslim bo'lishini bildirib, amirga elchi yuborgan. Xuddi shu paytda shaharga yaqinlashib qolgan Madalixon 15 ming kishilik qo'shini bilan amir qo'shinlariga zarba bermoqchi bo'lgan. Lekin, xon qo'shini mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'lgan.

Ayrim tarixiy manbalarda 1840-1841-yilgi voqealar turlicha berilgan, ya'ni, Peshagar qo'rg'onining Buxoro qo'shinlari tomonidan egallanishi Madalixonga og'ir ruhiy zarba bo'lgan. Natijada xon mudofaani tashlab, Xo'jandga, undan poytaxtga qaytib ketgan. Jangchilar orasida ham sarosima boshlanib, boshqaruv izdan chiqqan. Ilgari chegara hududlarida bo'lgan harbiy harakatlar endi butkul xonlik hududlarga ko'chgan.

Qo'qonliklar qo'shinidagi sarosimadan foydalangan amir Nasrulloxon askarlarining bir qismi Sulton Mahmud boshchiligida Xo'jandga yurish qilgan, biroq shahar jangsiz taslim bo'lgan. Sulton Mahmud va Nasrulloxon qo'shinlari Xo'jandda birlashib, Toshkentni zabt etish uchun tayyorgarlik ko'ra boshlagan, lekin bu gal ham ularning jang rejasi amalga oshmadi: Toshkent mansabdorlari Buxoroga o'tishni ixtiyor etgan edilar. Osonlik bilan g'alabaga erishgan Buxoro qo'shinlari tez orada Toshkentdan so'ng Konibodom, Mahram, Beshariqni egallaganlar va Qo'qon shahridan 30 chaqirim masofada qarorgoh qurganlar.

Nasrulloxon Qo'qon shahrini jangsiz taslim bo'ladi, deb o'ylagan edi. Biroq, qo'qonliklar butun harbiy kuchlarini shahar atrofiga to'plab shahar mudofaasiga tayyorgarlik ko'rgan. Vaziyat amir kutganidek bo'lib chiqmagan: urush uzoqqa cho'ziladigan bo'ldi. Qish yaqinlashganligi sababli, Buxoro qo'shinida oziq-ovqat va kiyim-kechak tanqisligi sezilib, ahvol og'irlashgan. Qo'shinning asosiy qismini dehqonlar tashkil etganligi uchun o'z yerlaridagi hosilni yig'ishtirib olish g'ami jang qilishdan ustun kelib, qo'shinda norozilik sezila boshlangan. Shunday sharoitda Nasrulloxon uchun sulh tuzish eng maqbul yo'l edi. Madalixonning ahvoli ham Nasrulloxonnikidan yaxshi emasligi uchun keli-shuvga rozi edi. Amir va xon o'rtasida sulh shartnomasi tuzilib, kelishuvga ko'ra, bosib olingan O'ratepa, Toshkent, Zomin, Ioma

va Kan yerlari Buxoroniki, deb tan olindi. Xo'jand va uning atrofidagi yerlar alohida mustaqil davlat sifatida tan olindi. Sulton Mahmud yangi davlatning hukmdori, deb e'lon qilindi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Madalixon o'z ukasi foydasiga taxtdan voz kechgan). Amir Nasrulloxonning rejasiga ko'ra, Xo'jand Buxoro nazorati ostida bo'lishi kerak edi. Amir Nasrulloxon sharqiy chegaralarning mustahkamligiga ishonch hosil qilib, Buxoroga qaytib ketgan.

Bo'lib o'tgan voqealar Madalixonning obro'sini tushirib yuborgan. Quyi tabaqa ham, saroy a'yonlari ham urushdagi og'ir yo'qotishlardan norozi edilar. Yangi Xo'jand davlati hukmdori *Sulton Mahmud* o'z akasi hokimiyatini tan olishni istamagan. U davlatni mustahkamlash choralarini ko'rgan. Hatto, Peterburgga va Sibir general-gubernatori Gorchakovga elchi jo'natib, Rossiya-Qo'qon (yangi Qo'qon) munosabatlarining rivojlanishiga xayrixoh ekanligini bildirgan.

Ikkinchi yurish va xonlikning Buxoroga tobe etilishi. Xonlikning ikkiga bo'linishi va ularning mustaqil shakllanishi minglarning kelajagi uchun to'g'anoq edi. Buni o'z vaqtida tushunib yetgan Nodirabegim o'g'illarini yarashtirish maqsadida saroy a'yonlari bilan kichik o'g'li Sulton Mahmud huzuriga – Xo'jandga kelgan va uni akasi bilan yarashishga ko'ndirgan. Nodirabegim o'g'illari Madalixon va Sulton Mahmud o'rtasida kelishuvga erishgan. Kelishuvga ko'ra, Sulton Mahmudning yerlari yana Qo'qonga qo'shib olinib, o'zi Toshkentga bek etib tayinlangan. Nodirabegimning sa'y-harakatlariga qaramay, Qo'qon saroyida ahvol yaxshilanmagan. Saroy a'yonlarining bir guruhi Sheralini, bir guruhi Murodbiyni, uchinchi guruhi esa Sulton Mahmudni xon qilib ko'tarishga zimdan harakat qila-yotgan edilar.

Nasrulloxon Madalixon va Sulton Mahmud o'rtasida keli-shuvga erishilganidan xabar topgach, qattiq g'azablangan va yangi yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlagan. 1842-yil 2-aprelda Nas-rulloxonning Qo'qonga *ikkinchi yurishi* boshlangan. Xiva-Buxoro chegarasida ahvolning murakkabligi sababli amir qo'shinlarining bir qismi Buxoroda qoldirilgan. Qo'qon yurishiga bor-yo'g'i 18 ming askar jalb etilgan. Qo'shinda askar sonining ozligiga qara-

masdan, qisqa muddat ichida Nasrulloxon o'z qo'shini bilan Buxorodan Qo'qongacha bo'lgan masofani bosib o'tib, 17-aprelda xonlik poytaxtidan 15-16 chaqirim (*bir chaqirim, tahminan, 1,07 km. ga teng*) masofada qarorgoh qurdirgan. O'z kuchiga ishonmagan Muhammad Alixon amir huzuriga sulh tuzish maqsadida katta o'g'li Muhammad Amin boshchiligida elchi jo'natgan. Saroydagi parokandalikdan, xonning yakkalanib qolganligidan xabardor bo'lgan Nasrulloxon elchilarga og'ir shartlar qo'ygan. Bu shartlar Qo'qonning Buxoroga tobeligini bildirar edi: Qo'qon masjidlarida amir nomiga xutba o'qitirish, tilla va kumush tangalarni amir nomi bilan zarb etish va h.k. Sulh tuzish uchun Nasrulloxon huzuriga Madalixonning o'zi kelishi ta'kidlangan. Xon esa o'limi yaqinlashganini sezib, mol-mulkini aravalarga orttirgan va 1000 ta sarbozi bilan Namangan tarafga qarab qochgan. Sarbozlarning faqat 3 tasi xonga sodiq bo'lib chiqqan. Qolganlari yo'lda xon mulkini talab, Qo'qonga qaytib kelgan. Boshqaruvsiz qolgan poytaxtni qushbegi va qozikalon Nasrulloxonga ochib berganlar. Amir poytaxtga kirgach, o'z qo'shiniga shaharni 4 soat talashga ruxsat bergan. Nasrulloxonning 18 ming askari shu vaqt ichida oddiy dehqon va hunarmanddan tortib, to saroy amaldorlarigacha talab, shaharni shipshiydam qilganlar.

Nasrulloxon oldingi xatolar qaytarilmasligi uchun qat'iy choralar ko'rish kerak edi. U Buxoroning va Qo'qonning yuqori mansabdorlari ishtirokida kengash chaqirib, o'z farmonini o'qib eshittirgan. Farmonga ko'ra, Qo'qon xonligi Buxoro amirligiga butunlay qaram bo'lishi kerak edi. Taxtga da'vo qiluvchi xon avlodlarining barchasi qatl etilishi, bundan keyin amir hokimiyatiga qarshi norozilik harakatlari yoki qo'zg'olon ko'tarilmasligi uchun Qo'qonning yirik mansabdorlari, umuman, yuqori tabaqa vakillari farzandlaridan bir nechasi garov sifatida Buxoroga olib ketilishi e'lon qilingan.

Nasrulloxonning amriga ko'ra, Muhammad Alixon, uning ukasi Sulton Mahmud, o'g'illari Muhammad Amin, Muzaffar, onasi Nodirabegim va xotinlari qatl etilgan. Yuqori tabaqa vakillaridan 250 kishini garov sifatida Buxoroga jo'natildi. Nasrulloxon g'alaba bilan Buxoroga qaytar ekan, xonlikni boshqarish

uchun Ibrohim dodhohni noib etib tayinlab, uning ixtiyoriga 6000 kishilik qo'shin qoldirgan.

Ibrohim Xayol Qo'qondagi hukmronligini ko'pgina uy-joylarni, buyumlarni musodara qilish, soliqlarni oshirish kabi tadbirlar bilan boshlagan. Bunday siyosatdan faqat kambag'al dehqon va hunarmandlargina emas, yirik feodallar ham norozi edilar. Buning ustiga davlat va diniy mansablarga buxoroliklar tayinlangan edi.

Qo'qon xonligining mustaqillikka erishishi. Ibrohimning talonchilik siyosati javobsiz qolmagan. Shaharda boshlangan hunarmandlarning norozilik harakatiga dehqonlar ham qo'shilgan. Tez orada xonlikning sharqiy hududlaridagi qipchoqlar ham harakatga kelganlar. 1842-yil yozida norozilik harakati qo'zg'olonga aylanib ketdi. Qo'qon taxtiga davogar bo'lgan *Sheralibek ibn Hojibek* Talasdan chiqib, hozirgi Kosonsoy hududiga yetib kelgan. Turkiylarning odatiga ko'ra, oq kigizga o'tqazilib, xon qilib ko'tarilgan Sheralixon qirg'izlar, qipchoqlar va o'zbeklarning qo'llab-quvvatlashi bilan tez orada To'raqo'rg'onga yetib kelgan. Bu paytda xon qo'shinlarining yetib kelishini kutmagan qo'zg'olonchilarning Buxoro askarlari bilan shahardagi to'qnashuvi natijasida uch ming buxorolik askarlar o'ldirilgan. "Sheralixon Talasdan chiqib, To'raqo'rg'onga yetib kelibdi, u Muhammad Alixonning qo'shini va mol-mulkini talab qilar emush" degan xabar tarqalgach, Ibrohim Xo'jand hokimi Tilov Qobilga chopar jo'natib, Sheraliga qarshi birlashishga chaqirgan. Lekin, uning urinishlari natija bermagan. Ibrohim Xayol bilan Sheralixon qo'shinlari poytaxt yaqinidagi Navbahor qishlog'ida to'qnashganlar. Jang Sheralixonning to'la g'alabasi bilan yakunlandi.

Qo'qonni qo'ldan chiqarib, Buxoroga qochib kelgan Ibrohim va ukasi Isoq Nasrulloxonning buyrug'i bilan qatl etilib, mol-mulklari musodara qilindi. Amir 20 minglik qo'shin bilan yana Qo'qonga yurishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qo'qonliklar amirning yangi yurishiga tezlik bilan tayyorgarlik ko'rib, qisqa muddat ichida – 18 kunda poytaxt atrofida himoya devorini barpo qilganlar. Vaziyat xavfli tus olgan edi: g'arbdan amir o'z qo'shinlari bilan, Toshkent tarafdan esa uning ittifoqchilari bo'lgan

toshkentliklar qo'shin tortishgan. Sheralixon o'z qo'shinini ikki frontga joylashtirishga majbur bo'lgan. Konibodom yaqinida Buxoro qo'shinlari bilan, Ashtda esa Toshkent qo'shini bilan bo'lgan dastlabki to'qnashuvlar qo'qonliklarning mag'lubiyatlari bilan yakunlangan. Qoratepa qishlog'i yaqinida bo'lgan asosiy janglarda amir qo'shinlari bir necha marotaba mag'lubiyatga uchratilgan bo'lsa-da, poytaxt devorlari atrofidagi janglar 40 kun davom etgan.

Qo'qonliklarning amirga qarshi urishi oldingilaridan farq qilgan. Madalixonning xazinasi to'la bo'lishiga qaramasdan qo'shinda birlik yo'q edi. Endi esa xazina bo'sh bo'lsa-da, butun Qo'qon aholisi millati, tabaqasidan qat'iy nazar, Sheralixon boshchiligida dushmanga qarshi birlashganlar. Islom dini vakillari, ayniqsa, hoji va eshonlar ham xonni qo'llab-quvvatlaganlar.

Amir qo'shinlari dastlabki janglarda muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, keyingi harakatlari to'xtatilgan: xonlik hududiga ichkariroq kirib borishning yoki poytaxtni egallashning imkoniyati bo'lmagan. Buning bir qator sabablari bor edi: xonlikning barcha aholisi tashqi dushmanga qarshi yagona ittifoqqa birlashgan edilar. Buning ustiga Qo'qon aholisi urushlardan va ikki oylik istibdoddan achchiq xulosa chiqargan edi. Yagona ittifoqqa birlashgan aholi va davlat boshqaruvida Sheralixon boshchiligida markazlashgan hokimiyat shakllantirildi.

Buxoro amirining noqulay vaziyatda qolishida qipchoqlar, ayniqsa, ularning yo'lboshchisi Musulmonqulning ta'siri sezilarli bo'ldi. Buxoroga asir etib olib ketilgan feodallar ichida qipchoqlar orasida katta obro'ga ega bo'lgan Musulmonqul yuzboshi bor edi. U amirni, Sheralixonni Qo'qondan quvib chiqarib, qayta hokimiyatni tiklay olaman, deb ishontirgan va Qo'qonga yaqinlashgach, qipchoqlardan tuzilgan qo'shini bilan Sheralixonga qo'shilib ketgan. Buning ustiga u hiyla ishlatib, amir amaldorlaridan biriga maxfiy xat yo'llagan. Xatda "siz shu urush vaqtida amirni o'ldirishga va'da bergan edingiz, o'sha va'dani bajarish vaqti keldi" deyilgan edi. Oldindan rejalashtirilganidek, xat amir qo'lga tushgan va qarorgohda parokandalikni keltirib chiqarishga yordam bergan.

Buxoroning Xiva bilan chegarasi ham notinch edi. Olloqulixon ikki oy mobaynida Buxoroga qarashli shahar va qishloqlarga bir necha marotaba yurish qilib, aholini talagan. Buxoro poytaxtiga hujum ham ehtimoldan holi emas edi. Amir vaziyatdan xulosa chiqarib, Qo`qondan voz kechib, ortga qaytishga majbur bo`lgan.

Qo`qon xonligi Buxoro zulmidan to`la ozod etilgach, Sheralexon davlat boshqaruv ishlarini yo`lga qo`yishni boshlagan bir paytda yana bir yangi muammoga duch kelgan: Toshkent hokimi Muhammad Sharif Otaliq Sheralexon hokimiyatidan bosh tortgan edi. Xon o`g`li va Yusuf mingboshi boshchiligidagi Toshkentga qo`shin jo`natgan. Toshkent uchun urush haqida Mulla Olim Mahdum Xoji o`zining "Tarixi Turkiston" asarida keng ma`lumot bergan. Toshkent egallangan, Muhammad Sharif Otaliq oilasi va yaqinlari bilan birga Qo`qonga jo`natilgan, Toshkentda esa Muhammad Karim hokim etib tayinlanadi. Asta-sekin Qo`qonning 1840-yilgi chegaralari qayta tiklangan.

Tayanch iboralar: Madalixon, Nasrulloxon, Sulton Mahmud, saroy muxolifati, xonlikka birinchi yurish, ikkinchi yurish, qatl, Ibrohim Xayol, Sheralexon.

Nazorat savollari.

1. Muhammad Alixon ichki va tashqi siyosatining asosiy xususiyatlarini ko`rsatib bering.
2. Buxoro-Qo`qon urushining sababi nimada?
3. Qo`qon qo`shinlari mag`lubiyatining sabablarini ko`rsating.
4. Nasrulloxonning 3-yurishiga to`squinlik qilgan sabablar qaysilar?

QO'QON XONLIGINING ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK HAMDA SAVDO ALOQALARI

Reja:

1. Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik munosabatlari.

2. Xonlikning Rossiya bilan savdo aloqalari.

Qo'qon xonligi tashkil topganidan to XVIII asr oxirlarigacha mustaqil davlat sifatida Rossiya bilan diplomatik munosabatlar olib borgan bo'lsa-da, bu haqda ma'lumotlar uchratish qiyin. Har ikki davlatlarning dastlabki elchilik aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar XIX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, aynan shu davrdan boshlab Qo'qon-Rossiya munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Har ikki davlat o'zaro *elchilik aloqalarining* o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Birinchidan, elchilik aloqalari Toshkent va qozoq juzlari yerlari orqali amalga oshirilganligi uchun bu hududlar alohida ahamiyat kasb etgan. Ikkinchidan, har ikki davlatning o'zaro munosabatlardan eng asosiy manfaatlari turlicha edi. Rossiyaga rivojlanib kelayotgan sanoat uchun xom ashyo va bozor kerak bo'lsa, Qo'qon xonligi uchun esa Buxoro, Xitoy kabi davlatlarga qarshi kurashishda homiy kerak edi. Uchinchidan, *Qo'qon-Rossiya diplomatik aloqalarida* Toshkent alohida vakolatlarga ega bo'lgan. Rossiya tomonidan shunday vakolatlarni Orenburg va G'arbiy Sibir general-gubernatorliklarida sezish mumkin edi.

N. Topildiyev arxiv hujjatlarida 1810-yil Sibir liniyasi boshlig'i general-leytenant Glazenep Qo'qon xonligiga savdo aloqalarini yo'lga qo'yish haqida murojaat qilganligi haqida ma'lumotlar borligini ma'lum qilgan. 1811-yilda esa Rossiya vakillari shunday taklif bilan Toshkent orqali Qo'qonga kelganlar. Oradan ko'p o'tmay, Qo'qon xoni Shakurbek Otaliq boshchiligidagi elchilarni Peterburgga jo'natgan. Elchilar uchun imperator huzurida muhokama qilinishi kerak bo'lgan asosiy masala Rossiya shaharlarida qo'qonlik savdogarlarga erkin savdo qilishlariga ruhsat

berishga erishish bo'lgan. Bundan tashqari qo'qonlik savdogarlarning xavfsizligi masalasi ham ko'rilgan.

1813-yil Qo'qonga qaytayotgan elchilar bilan birgalikda Filipp Nazarov boshchiligidagi rus elchilari Toshkent orqali Qo'qonga kelganlar. F. Nazarov elchilik sohasida yirik ishlarni amalga oshirmagan bo'lsa-da, Qo'qondagi bir yillik kuzatuvlari natijasida xonlik tarixiga oid muhim manba bo'lgan "Записки о некоторых народах и землях средней части Азии Филиппа Назарова" asarini chop etgan.

1816-yilda Usov boshchiligidagi general Glazanep jo'natgan elchilar kelgan. Ularning oldiga qo'yilgan asosiy vazifa, savdosotiqni jonlantirish masalasi edi. Avval Toshkentda, so'ng Qo'qonda bo'lgan elchilar xon huzuriga yorliq hamda sovg'alar bilan keldilar. Elchilar 1817-yil Rossiyaga qaytganlar.

Madalixon va Toshkent qushbegisi 1824-yilda imperator huzuriga yuborgan elchilarga Xonkeldi Bobojonov va Zulfiqor eshon boshchilik qilgan. Elchilar sovg'a bilan birga imperatorga xonning xatini ham topshirishlari kerak edi. Xatda Karkarali okrugi aholisi tomonidan Qo'qon karvonlari talanayotganligi ma'lum qilinib, qaroqchilarga qarshi qat'iy choralar ko'rish iltimos qilingan edi. Elchilar Omsk shahriga yetib kelgach, mahalliy ma'murlar tomonidan kutib olingan, lekin noma'lum sabablarga ko'ra poytaxtga borishga ruxsat berilmagan. Omskda ularning to'xtatilishi sabablarini aniqlash masalasida 1825-yil mayda *Soatbek Sultonbekov* boshchiligidagi navbatdagi elchilar jo'natilgan. Yo'lda ko'chmanchi qozoqlar tomonidan talangan elchilar iyun oyida Omskka yetib kelganlar. Ular general-gubernatorlik ma'murlaridan talonchilarni jazolashni talab qilgan. Elchilar Toshkent qushbegisi sovg'asi (2 ta ot) va xatini topshirganlar. Xatning asosiy mazmuni shundan iborat ediki, Qo'qon xonligi ixtiyorida bo'lgan va soliq to'layotgan qozoqlarning Rossiya ixtiyoriga o'tkazilayotganligidan xon norozi edi. General-gubernator javob xati yozar ekan, qozoqlar majburlab emas, o'z ixtiyorlari bilan Rossiya tobe'ligiga o'tayotganligini ma'lum qil-

gan. Qo`qonlik elchilar karvonlar xavfsizligi va savdo-sotiqni rivojlantirish chora-tadbirlarini ham muhokama qilganlar.

Madalixon tomonidan *Tursunxo`ja* va *Mirqurbon* boshchiligidagi elchilar guruhi 1828-yili Rossiya poytaxtiga jo`nagan. Elchilar podsho Aleksandrning vafoti munosabati bilan ta`ziya izhor qilib, Nikolayning taxtga o`tirganligi bilan tabriklaganlar. Shu bilan birga Qo`qon xonligi taxtiga Madalixon o`tirganligini ma`lum qilib, xonning podsho nomiga yozgan yorlig`ini topshirganlar. Elchilar rus hukumati a`zolari bilan savdo va diplomatik munosabatlarni rivojlantirish, ikki davlat o`rtasidagi – qozoq cho`llaridan o`tadigan chegaralarni aniqlash uchun qat`iy qarorga kelganlar.

Qo`qon xonligi 1829, 1830-yillarda ham Rossiya poytaxtiga elchilar jo`natishga ulgurgan. 1829-yilda yuborilgan elchilar hal qilishi kerak bo`lgan masalalar savdo, diplomatik aloqalar va ikki davlat fuqarolarining ko`chib o`tishiga to`squinlik qilmaslik choralari bo`lsa, 1830-yil Peterburgga kelgan elchilarga undanda muhimroq masalalar yuklatilgan edi. Peterburgga xon maktubi bilan kelgan elchilar imperatorga xonning iltimosini yetkazganlar. Xatda yer osti boyliklarini o`rganish va foydali qazilmalarni qidirishda yordam berish uchun ikki kon muhandis (injener)ini jo`natish so`ralgan edi. Ikkinchi masala, Qo`qon-Xitoy munosabatlari keskinlashganligi munosabati bilan to`plar va tajribali zobitlarni jo`natish so`ralgan. Rus hukumati Rus-Xitoy munosabatlari yaxshilanayotganligini hisobga olib, bu iltimosga rad javobini berdilar.

1830-yili Qo`qonga N. Potanin boshchiligidagi rus elchilari kelgan. Elchilar savdo va diplomatik aloqalar yuzasidan tadbirlarni amalga oshirganlar. Rus hukumatining elchilar oldiga qo`ygan asosiy vazifalaridan biri – xonlikning iqtisodiy, siyosiy hayotini o`rganish, shu jumladan, xonlikning qo`shni davlatlar bilan munosabatlarini tahlil qilish edi. N. Potanin elchilik safari haqida kitob yozib qoldirgan (“Записки о Кокандском ханстве хоронжего Потанина”).

Madalixon 1831-yili Rossiyaga yana elchilar jo'natgan. Ularga *Xo'ja Mirqurbon Qosim o'g'li* rahbar etib tayinlangan edi. Elchilar rus imperatoriga xon yorlig'i va sovg'alarni topshi-rishi kerak edi. Lekin ular Tobol'sk shahrida to'xtatilgan. Hukumat Rus-Xitoy munosabatlari buzilmasligi uchun elchilarga Peterburgga borishga ruxsat bermaganlar. Karantin bahona qilinib, ulardan xon yorlig'i va sovg'alar olib qolinib, Tobolskdan qaytarib yuborilgan. Ma'lumotlarda xon jo'natgan sovg'alar orasida 2 ta fil bo'lganligi keltirilgan. Lekin, ayrim ma'lumotlarda fil emas, balki Qo'qon-Xitoy urushida asirga olingan 2 ta xitoylik bo'lganligi haqida yozilgan.

1836-yili Madalixon Sibirga tajribali Soatbek Sultonbekov boshchiligidagi elchilarni jo'natgan. Elchilar Akmolinsk, Petropavlovsk orqali Omsk shahriga borganlar. Ular Omsk viloyat boshlig'i va Sibir' general-gubernatori huzurida bo'lib, xon va Toshkent qushbegisi xatlarini topshirganlar. Asosiy masalalar 1831-yilgi xon elchilarining qaytarib yuborilishi va qozoqlar masalasi edi (qozoqlarning xonlik tomonidan talanishi). Toshkent beklarbegi xatida ham shu masala aks ettirilgan edi. Elchilar va Sibir' general-gubernatorligi vakillari muhokama qilingan masalalar bo'yicha shartnomalar imzolaganlar.

1841-yili Peterburgga *Muhammad Halil Sag'ibzoda* boshchiligida elchilar guruhi kelgan. Qo'qon elchilari rus hukumati vakillariga sovg'a-salomlarni topshirganlar. Muzokaralarda elchilar Qo'qon-Buxoro munosabatlarining yomonlashib borayotganligi, Nasrullo Sulton Mahmud (Madalixonning ukasi)ni O'rmingtonga hokim qilib tayinlaganligi va uni Qo'qon taxtiga chiqarish niyati borligi, xonning bu voqealardan norozi ekanligi haqida ma'lumot berganlar. Muzokaralarda ilgari hal bo'lmagan masala – tog' muhandislarini yordamga jo'natish yana ko'tarilgan va aniq qarorga kelingan. Xon elchilari 1842-yil 10-iyulda Peterburgdan Omskka kelgan. Lekin, bu paytgga kelib Qo'qon-Buxoro munosabatlariga putur yetgan edi. Shu tufayli ular ko'targan ayrim masalalar chippakka chiqqan.

1842-yil 25-avgustda elchi Muhammad Halil Sag'ibzoda G'arbiy Sibir' general-gubernatori Gorchakovga xat yozib, Qo'-qonda hokimiyat almashgan bo'lsa ham, imzolangan shartnomalar va do'stona munosabatlar o'zgarmay qolishini ma'lum qilgan. Elchilar Sheralixon taxtga chiqqanidan so'ng vatanlariga qaytib kelganlar.

Sheralixon davrida ham elchilik munosabatlarini tiklash va rivojlantirishga harakat qilingan. 1844-yil 3-iyulda Niyozmuhammad Ne'mat boshliq elchilar Semipalatinskka yuborilgan. Ular ruslarga xon ilgari munosabatlarni davom ettirish va yangi shartnomalarni imzolash niyatida ekanligini bildirganlar.

1845-yili Xudoyorxon taxtga chiqqach, yosh bo'lganligi uchun davlat ishlari qaynotasi Musulmonqul qo'lida bo'lib, xonlik tashqi siyosatini ham u belgilagan. 1847-yilga kelib Rossiya Qo'qonga qarashli yerlarni egallab, harbiy maqsadlarda maxsus qo'rg'onlar qura boshlagan. 1847-yil 28-noyabrda Mulla Abdulla boshchiligidagi elchilar yorliq bilan Omskka kelganlar. Ularning asosiy vazifasi savdo, iqtisodiy va chegara masalalarini hal qilish edi. Lekin, elchilar ruslar tomonidan Sirdaryoning quyi oqimida Rossiya tomonidan qurilgan Raim qo'rg'oni kabi istehkomlarning qurilishiga panja ortidan qaraganlar, go'yo ular bu istehkomlar rus fuqarolari va savdo karvonlarini himoya qilish uchun qurilgan edi.

1853-yilda Xudoyorxon tomonidan Rossiyaga jo'natilgan elchilarga Yo'ldoshboy Mirzajonov ismli shaxs boshchilik qilgan. Bu paytga kelib Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tashqi siyosati yetarli darajada aniq edi. Qo'qonlik elchilarning harakatlariga qaramasdan, ular Omskdan ortga qaytarilgan.

Har ikki davlatning o'zaro elchilik aloqalari tahlili shuni ko'rsatadiki, Rossiya Qo'qon xonligi bilan yaxshi niyatli, teng huquqli diplomatik munosabatda bo'lmagan. Rossiyaning asl maqsadi, Qo'qon xonligini bosib olish edi.

Xonlikning Rossiya bilan savdo aloqalari. Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari ham faol edi, tashqi savdo har ikkala davlat va savdogarlar uchun ham foydali bo'lgan. 1845-yildan boshlab xonlikning ichki va tashqi savdosida o'sish yuz

bergan. Y. Qosimovning ma'lumotiga ko'ra, 1833-yili Qo'qondan Rossiyaga chiqariladigan mollar 1888445 rublni tashkil etgan bo'lsa, 1855-yili bu ko'rsatkich 6530083 rublni tashkil etgan. Eksport qilinadigan mollar, asosan, paxta va kalava ip, quruq mevalar, gazlamalar, kiyimlar bo'lgan. Asosiy eksport mahsuloti bo'lmish paxta, Haydarbek Bobobekovning yozishicha, 1840-1850-yillar davomida 18119 rubl miqdorni tashkil etgan. Ipak mahsulotlari miqdori 1862-yili 32831 rublni tashkil etgan bo'lsa, 1863-yilda 10036 rubllik, 1866-yilda esa 4009 rubllik miqdorga tushgan. Lekin, ipak xom-ashyosi chiqarish 1863-yilda 264 rubllik, 1867-yilda 20820 rubllik darajaga yetgan. Bu raqamlar asta-sekinlik bilan xonlikning ipak xom-ashyosi bazasiga aylanib borishiga misoldir. Qo'qonning tashqi savdosida xon va yirik feodallar muhim o'rin tutganlar. Misol uchun, 1809-yili Olimxon 300 ta tuyaga mol yuklatib, Toshkentda o'z odamlari orqali kar-von jo'natgan.

Rus sayyohlari, amaldorlari qoldirgan hujjatlardan shuni bilish mumkinki, Rossiya Qo'qon xonligini o'z tovarlari uchun qulay bozor, deb hisoblagan. V. V. Velyaminov-Zernov 1854-yili Qo'qon sanoatsiz mamlakat, uning atrofidagi xalqlar ham shu yoki past darajada rivojlanganligini, xonlik qo'shnilari orasida eng rivojlangan davlat Rossiya ekanligi va bu Rossiya uchun savdoda qulaylik tug'dirishini ta'kidlagan edi.

Chernyayev ham 1865-yil 23-aprelda O'rta Osiyo davlatlari bilan Rossiyaning savdo aloqalari savdogarlar uchun qulay va xatarsiz bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, Rossiyadan Qo'qonga temir, mis, po'lat, cho'yan va temir buyumlar, chit va sifatsiz gazmollar, baxmal, fayansli kosalar, kichik oynaklar va chirm olib kelingan. Rus savdogarlarining foydalari bojxona tufayli kamaygan bo'lsa-da, Rossiyaning xonlik bilan savdo aloqasi miqdori oshib borgan: 1758-yildan 1855-yilgacha eksport 174000 dan 2171000 kumush rublga, import esa 37000 dan 676000 kumush rublga oshgan.

XIX asrning 40-50-yillarida O'rta Osiyo bozorida rus tovarlari bilan, asosan, ingliz tovarlari raqobat qilgan. Rossiyadan

keltirilgan tovarlarning ko'payishi ingliz savdosini sindirgan. Rossiyadan, ayniqsa, metall va metall qurollar, asbob-uskunalar va bo'yoqlar ko'p keltirilgan.

Xonlikdagi, chegaradagi ayrim voqealar vaqti-vaqti bilan savdo ishlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Misol, Buxoro-Qo'qon urushining boshlanishi oqibatida 1845-yilgacha savdo munosabatlari sustlashgan. 1850-1860-yillardagi taxt uchun kurash ham shunday oqibatlarni keltirib chiqargan edi. Chegarada noqonuniy boj olish va qaroqchilarning ko'payishi ham 1860-yillarda savdoga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 1853-yillardan boshlab Rossiyaning harbiy harakatlari ham savdoga yomon ta'sir etgan.

Umuman, Qo'qon xonligining Rossiya bilan savdo aloqalari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlar keltirib chiqargan. Qo'qonda savdo tufayli qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlari yaxshi rivojlandi, Yevropa madaniyati kirib kelgan. Lekin, shu bilan birga xonlik asta-sekin xom-ashyo bazasiga aylana borgan, rus sanoat korxonalarining arzon, lekin sifatli bo'lmagan buyumlari mahalliy hunarmandchilikning ayrim tarmoqlarini sindirgan.

Tayanch iboralar: 1830-yillardagi Qo'qon- Rossiya elchilik aloqalari, 1840-yillardagi Qo'qon-Rossiya elchilik aloqalari, Soatbek Sultonbekov, Xo'ja Mirqurbon Qosim, Muhammad Xalil Sag'ibzoda, Qo'qon-Rossiya savdo aloqalari.

Nazorat savollari:

1. 1831-yildagi Xo'ja Mirqurbon Qosim boshchiligidagi elchilar qanday natijaga erishgan?
2. 1845-yildan boshlab Qo'qon-Rossiya munosabatlarida qanday o'zgarishlar yuz bergan?
3. Ikki davlat o'rtasidagi savdo munosabatlarining asosiy xususiyatlarini ko'rsating.
4. Qo'qon xonligidan Rossiyaga qanday savdo mollari jo'natilganligi haqida gapirib bering.

QO`QON - SHARQIY TURKISTON MUNOSABATLARI

Reja:

1. Qo`qon xonligining Sharqiy Turkistondagi siyosati.
2. Savdo munosabatlari.

**Qo`qon xonligining Sharqiy Turkistondagi siyosati.** Qo`qon xonligining Xitoy bilan munosabati to`g`risidagi dastlabki ma`lumotlar Erdona (1753-1763-y.y.) davri bilan bog`liq. Sharqiy Turkiston manchjurlar tomonidan istilo qilgunga qadar (1759-yil) hokimiyat Maxdum A`zamning avlodlari bo`lmish xojalar qo`lida bo`lgan. Manchjurlar istolosi tufayli Yorkent xoni Burhoniddin-ning o`g`li Sarimsoqxo`ja 9 ming oila bilan Qo`qon xonligi hududiga ko`chib o`tishga majbur bo`lgan. Sarimsoqxo`ja, keyin uning o`g`illari Muhammad Bahoviddin, Muhammad Yusufxo`ja, Jaxongirxo`ja Sharqiy Turkistonda xojalar hokimiyatini tiklashga harakat qilganlar. Ayniqsa, 1784-yil Sarimsoqxo`ja boshchiligida, 1797-yilda esa Yusufxo`ja boshchiligida Sharqiy Turkistonga uyushtirilgan hujumlardan so`ng manchjurlar Norbo`tabiydan aybdorlarni Xitoy xukumatiga topshirishni talab qilganlar. Tabiiyki, talab rad etilgan. Bu voqealardan ancha ilgariroq Xitoy Qo`qonga nisbatan siyosatini o`zgartirishga majbur bo`lgan. Xitoy imperiyasi Sharqiy Turkistondagi tinchlik Qo`qon xonligi bilan bog`liq ekanligini tushungan holda xonlik bilan yaxshi qo`shnichilik aloqalarini o`rnatishga harakat qilgan. Manchjuriya qo`shinlari qo`mondoni Chjoey Xuaya tomonidan Erdona saroyiga 1759-yilda Daketan boshchiligidagi elchilarning jo`natilishi ham shundan dalolat beradi. Saroyda elchi juda yaxshi kutib olingan va o`z navbatida general saroyiga To`xta Muhammad va Boymuhammad boshchiligidagi Qo`qon elchilari katta sovg`a-salomlar bilan jo`natilgan. Bu tashrifdan so`ng Qo`qon xonlari tomonidan Pekinga 20 dan ortiq, Sharqiy Turkistondagi manchjur noiblariga 50 dan ortiq elchilik karvonlarini jo`natganlar. Natijada xojalardan yashirincha, Sharqiy Turkistondagi tinchlik xususida Qo`qon xonligi va Xitoy o`rtasida kelishuvga erishilgan. Shart-noma Norbo`tabiy, Olimxon va Muhammadalixon davrida ham amal qilgan.

XVIII asrning 80-yillarida Norbo'tabiy Farg'ona vodiysi qirg'izlari ustidan siyosiy hokimiyatni o'rnatgan. 1785-yili qirg'izlarning Sait Batir boshchiligidagi saru qabilasi Norbo'tabiyning ruxsati bilan Sharqiy Turkistondan Qo'qon homiyligi (proteksiyasi)ga o'tganlar. Norbo'tabiyning bunday xatti-harakatlari Xitoy imperiyasining Sharqiy Turkistondagi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

XIX asrning boshlarida Sharqiy Turkistonda uyg'ur, dun-gan, qozoq, qirg'iz kabi musulmon aholining Xitoy imperiya-sining bosqinchilik siyosatiga nisbatan norozilik harakatlari kuchaygan. 1814-yili Tillaqirg'iz boshchiligidagi qirg'izlar, 1816-yilda esa Ziyovuddin boshchiligidagi uyg'urlar qo'zg'oloni bo'lib o'tgan. Keyinchalik bu qo'zg'olonlarni xojalar jamoasi davom ettirdi. Xojalar Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatlarini tiklash uchun kurashda Xiva va Buxoro hukmdorlari, ayniqsa, Qo'qon xonlari qo'llab-quvvatlashiga umid qilgan edi. Qo'qon hukmdor-lari Sharqiy Turkistondagi musulmonlarga yordam berishni asosiy vazifalardan biri deb bilsalarda, ularning bu hududda boshqa manfaatlari ham bor edi. Qo'qon xonlariga o'zlarining rejalarini amalga oshirishda xalqlarning etnik, xo'jalik, madaniy va, ayniqsa, diniy aloqalari yordam bergan.

Xitoy va Qo'qon o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, Qo'qonda tutqunlikda saqlanayotgan Jahongirxo'ja 1822-yilda qochishga muvaffaq bo'lgan va tez orada Oloy qirg'izlari bilan birgalikda Qoshg'arga hujum uyushtirgan. Manbalarda Jahongir-xo'jaga yordam bergan qirg'izlar Suronchi boshchiligidagi cho'nbag'ish urug'i bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Jahongir-xo'ja Xiva, Buxoro, Qo'qon, Sharqiy Turkiston va qo'shni hududlarda yashovchi musulmon aholini manchjurlarga qarshi kurashga da'vat etgan. 1826-yilda Sharqiy Turkiston shaharlarida milliy ozodlik harakatlari boshlandi. Bundan foydalangan Jahongirxo'ja Sharqiy Turkistonga yana yurish boshlagan. Jahon-girxo'ja qo'shiniga qirg'izlar, tojiklar va uyg'urlar yordamga kel-ganlar.

Sharqiy Turkistonda boshlangan voqealar Madalixonni ham befarq qoldirmagan. U kengash chaqirib, Xitoyga yurish qilish uchun fotiha olgan va bir qism qo'shin bilan qisqa fursatda

Qoshg'arga yetib kelgan. Madalixon Qoshg'ar yurishida katta muvaffaqiyatlarga erishmagan va tez orada Qo'qonga qaytib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan, u xalq orasida "din uchun kurashuvchi" sifatida hurmat qozongan. Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistonga hujumi shu bilan yakunlanmagan. Keyingi yurishda Madalixon qo'shinga Haqquli mingboshi va Muhammad Sharif Otaliqni bosh qilib, O'sh shahridan kuzatgan. Qo'shin Xitoy chegarachilarini tor-mor etgach, dastlabki to'qnashuvda xitoyliklarning 10 ming kishilik qo'shinini mag'lub etgan. Qoshg'ar egallanib xitoyliklar mahkam o'rtnashib olgan Gulbog' qal'asi qamali boshlangan. Qoshg'arning egallanganligi ma'lum bo'lgach, Yangisaroy, Xo'tan, Yorkent kabi shaharlar aholisi Xitoy garnizonlariga hujum boshlaganlar.

1826-yil imperator Dougan buyrug'iga ko'ra, Sharqiy Turkistondagi qo'shin kuchaytirilgan. Bir yildan so'ng Jahongirxo'ja Oloyga chekinishga majbur bo'lgan. Imperatorning 20 minglik qo'shini Jahongirxo'jani hibsga olish maqsadida ta'qib qilib borgan. Bundan xabar topgan Madalixon Jahongirxo'jaga yordam jo'natgan, lekin ulgurmagan. Jahongirxo'ja hibsga olinib, Pekinga jo'natilgan va 1828-yili qatl etilgan. Ammo Sharqiy Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari so'nmadi. Sharqiy Turkiston aholisidan farqli Qo'qon xonligi uchun ham, Xitoy imperiyasi uchun ham tinchlik sulhi ma'qul edi. Shuning uchun 1832-yil *Pekinda tinchlik shartnomasi* imzolangan. Shartnomaga ko'ra, Qo'qon Sharqiy Turkistonda boshqaruv tizimi, boj va savdo masalalarini hal qilish huquqlarini qo'lga kiritgan.

Sharqiy Turkistonda Xitoy imperiyasi istibdodiga qarshi kurashgan xalqlardan biri dunganlar edi. Ular XIX asrning 60-yillarida Xitoydagi taypinlar qo'zg'olonidan foydalanib, o'zlari yashayotgan, Xitoyning shimoli-sharqiy provintsiya (viloyat)lari She'nsi va Gan'suda qo'zg'olon ko'targanlar. Qo'zg'olon natijasida Sharqiy Turkistonda Xitoy hokimiyati ag'darilgan. Taypin qo'zg'oloni bostirilganidan so'nggina general Tszo Tszutan boshchiligidagi jazo otryadi dunganlar qo'zg'olonini bostirgan. Qo'zg'olonchilarning bir qismi Rossiya hududiga, bir qismi esa Madajin boshchiligida Farg'ona vodiysiga ko'chishni boshlagan. Ularning umumiy soni 6 ming kishini tashkil etgan.

Savdo munosabatlari. Qo`qon xonligi va Xitoy o`rtasidagi Sharqiy Turkiston uchun kurashning asosiy sababi hududga egalik qilish bilan bog`liq. Bu hudud Xitoydan G`arbga borish uchun asosiy savdo yo`lida joylashgan. Sharqiy Turkistonni Tyan-Shan tog`i ikki tabiiy geografik zonaga bo`lib turgan. Shimoliy qismi Jung`oriya bo`lsa, Janubiy qismi Yettisuv, Qoshg`ar deb atalgan. Qoshg`arning shaharlaridagi bozorlar gavjum bo`lib, ular turli tomondan savdo yo`llari bilan tutashgan. Bu yerga sharqdan xitoylik savdogarlar, shimoldan Rossiyadan kelgan tatar savdogarlari va g`arbdan Qo`qon, Buxoro savdogarlari o`z mahsulotlarini olib kelib sotgan.

Qo`qondan Sharqiy Turkistonga boradigan uchta asosiy yo`l mavjud edi. Birinchisi, Tyan-Shan va Oloy tog`laridan Terek dovoni orqali o`tuvchi eng qulay hamda qisqa yo`l. Ikkinchisi, Toshkent, Turkiston va Qulja orqali o`tuvchi xavfsiz, lekin uzoq yo`l. Uchinchisi, Pomir va Badaxshon orqali o`tuvchi xavfli dovon bo`lib, karvonlar nisbatan kam qatnagan. Sharqiy Turkistondagi savdodan Qo`qon xonligi xazinasiga juda katta miqdorda daromad tushar edi. Xitoy manbalariga ko`ra, XVIII asr oxirlarida xonlikka savdodan tushadigan daromad 60-70 ming tillani tashkil etgan.

Ch. Valixonovning ma`lumotiga ko`ra, Qoshg`arda savdogarlarning umumiy soni va ahamiyati jihatdan birinchi o`rinda qo`qonliklar, keyin buxoroliklar turgan va xitoyliklar ularni "andtszidjon" (andijonliklar) nomi bilan ataganlar. 1832-yili tuzilgan shartnomaga ko`ra, Qoshg`arni rezident va konsul huquqiga ega bo`lgan oqsoqol boshqargan. *Oqsoqol* Qo`qon xoni tomonidan tayinlangan va uning xazinasiga 500 kumush yombi jo`natib turgan. Ushbu oqsoqol huzurida qozi, imom va qo`rboshilar bilan birga "xon dalloli" deb ataluvchi mansabdor bo`lgan. Bu mansabdor muxojir savdogar bilan bo`ladigan savdo-sotiq ishlarida dallollik qilgani uchun, agarda, bu savdo yombi bilan bo`lsa, har yombidan 3 tilla, agar oltin bilan bo`lsa, o`ndan bir ulushini olgan. Qoshg`ardan chiqib ketayotgan karvondagi har bir ulovdan 2 tangadan boj olingan. Dallollar xazinaga yiliga 3600 kumush pul to`lab turganlar. Buning evaziga oqsoqol qo`rboshilar yordamida savdogarlarni yo`l qaroqchilaridan himoya qilgan.

Sharqiy Turkistonning Buxoro, Xiva, Hindiston, Afg'oniston, Rossiya kabi davlatlar bilan tashqi savdosi Qo`qon orqali olib borilgan. Qo`qondan Qoshg`arga, asosan, rus temiri, qizil charm, mato, movut, Rigada ishlangan duxobalar, oynalar, qalampirmunchoq, novshadil, simob, bo`yoqlar, oltin olib borilgan. Qoshg`ardan Qo`qonga esa, asosan, gilam, nashatil, choy va kigiz keltirilgan. Qoshg`ardan Qo`qonga har yili 30000 otida choy, 200 otida oq rangli mato, 50 otida attorlik buyumlari keltirilgan.

Qo`qon va Qoshg`ar o`rtasidagi savdo aloqalari, albatta, siyosiy voqealarga bog`liq bo`lgan. Ayniqsa, 1826-1832-yillardagi urush vaqtida savdoda pasayish kuzatilgan bo`lsa, 1832-yilgi tinchlik shartnomasidan so`ng katta o`sish yuz bergan.

Qo`qon va Sharqiy Turkistonning diplomatik va savdo aloqalari o`z navbatida asrlar davomida shakllangan madaniy aloqalarning rivojlanishiga ta`sir ko`rsatgan. Sharqiy Turkistonda O`rta Osiyo xalqlarining ta`sirini sezish bilan birga Qo`qonda ham qoshg`arliklar madaniyati namunalari o`z o`rniga ega bo`lgan. Me`morchilikda, tikuvchilikda "qoshg`archa" nomli usullar paydo bo`lgan. Xo`jalik yuritish, ayniqsa, oziq-ovqat masalasida Sharqiy Turkiston xalqlarining milliy taomlari muhim o`rin egallay boshlagan.

Tayanch iboralar: Qo`qon xonligining Sharqiy Turkistondagi siyosati, Madalixonning Qoshg`arga yurishi, ko`chish, Pekin tinchlik shartnomasi, savdo munosabatlari.

Nazorat savollari:

1. Xonlikning Sharqiy Turkistondagi siyosatiga baho bering.
2. Qo`qon-Xitoy munosabatlari haqida ma`lumot beruvchi qaysi manbalarni bilasiz?
3. Madalixonning Qoshg`arga yurishi qanday natija bilan yakunlangan?
4. Sharqiy Turkistondan Qo`qonga qanday mahsulotlar keltirilgan?

QO'QON XONLIGIDAGI XALQ HARAKATLARI

Reja:

1. Qo'qon xonligidagi xalq harakatlarining umumiy sabablari.
2. XVIII-XIX asrlarning birinchi yarmidagi xalq harakatlari.
3. XIX asrning ikkinchi yarmidagi xalq harakatlari.
4. Po'latxon qo'zg'oloni.

Qo'qon xonligidagi xalq harakatlarining umumiy sabablari. Qo'qon xonligi tashkil topganidan boshlab, to tugatilishigacha bo'lgan vaqt (1709-1876 y.y.) oralig'ida bir necha qo'zg'olonlar bo'lib o'tgan. Bu qo'zg'olonlar haqidagi ayrim ma'lumotlarni Mulla Olim Mahdum Hojining "Tarixi Turkiston", Mirza Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", V. P. Nalivkinning "Краткая история Кокандского ханства" kabi manbalarda uchratish mumkin. Sho'rolar davrida nashr etilgan bir necha asarlarda ham Qo'qon xonligida yuz bergan xalq harakatlari o'ld ayrim ma'lumotlar uchraydi. Bu asarlar qatoriga R. N. Nabiyeovning "Ташкентское восстание 1847 г. и его социально-экономические предпосылки", "Из истории Кокандского ханства", A. A. Hasanovning "Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства", T. K. Beysembiyevning "Тарихи Шахрухи" как исторический источник" kabi asarlarni kiritish mumkin.

Qo'qon xonligida bo'lib o'tgan xalq harakatlari haqida yetarli darajada keng ma'lumotlar bera olgan muallif H. Bobobekov hisoblanadi. Uning "Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX в.в.)", "Qo'qon tarixi", "История Коканда" kabi asarlari xalq harakatlari haqidagi ma'lumotlari bilan alohida ajralib turadi. H. Bobobekov xonlik hududida yuz bergan xalq harakatlarini o'rganar ekan, avvalo, ular haqidagi manbalar, qo'zg'olonlarni keltirib chiqargan sabablar, shart-sharoitlar, tarkibi va harakatlantiruvchi kuchlari, ahamiyati yoki salbiy ta'siri kabilarni tahlil qilgan. Muallif "Народные движения в Кокандском

ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX в.в.)” asarida har bir qo`zg`olonning o`ziga xos sabablarini ko`rsatish bilan birga *umumiy sabablarini* ham keltirib o`tgan. Ular quyidagilardan iborat:

a) *Hududi va aholisi*. Qo`qon xonligi tashkil topgan vaqtdan boshlab xonlik hududi boshqa yerlar va shu yerlarning egasi bo`lgan mahalliy aholi hisobiga kengayib borgan. Yerlarning zo`rlilik bilan bosib olinishi hokimiyatga nisbatan dushmanlikni kuchaytirgan. Hududning kengligi esa boshqaruvni qiyinlashtirgan, shu bilan birga qo`zg`olonlarni uzoq vaqt davom etishini ta`minlagan. Xonlik hududida faqat o`zbeklar emas, qipchoq elati, qozoqlar, qirg`izlar, tojiklar va boshqa xalqlar ham istiqomat qilar edi. Bu quramalik milliy-ozodlik harakati kabilarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Masalan, 1821-yilgi saribag`ishlar qo`zg`oloni, 1839-yildagi Qorategin qo`zg`oloni, 1843-yilgi Issiqko`l qirg`izlari qo`zg`oloni, 1853-yildagi qipchoqlar qo`zg`oloni, 1858-yildagi Xo`jand tojiklari qo`zg`oloni.

b) *Davlat tizimi*. Qo`qon xonligi o`ziga xos bo`lgan tipik mutlaq monarxiya tizimidagi feodal davlat edi. Xon, uning qarindoshlari, saroy amaldorlari va boshqa feodallar dehqonlar ustidan mutlaq hukmron edi. Bunday boshqaruv ma`lum bir davrlarda shariat va davlat qonunlarining buzilishiga olib kelgan.

v) *Yer egaligi*. Yer egaligi eng asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Davlat iqtisodi qishloq xo`jaligiga asoslanganligi uchun yerga egalik qilish bilan asosiy masalalar hal qilingan. Feodallar va diniy muassasalar yerning aksariyat qismini egallab olganligi kambag`al tabaqaning ularga qaramligini oshirgan.

g) *Hunarmandchilik va savdo*. Qo`qon xonligida mavjud bo`lgan feodal tartiblar qishloq xo`jaligining ham, hunarmandchilikning ham, savdoning ham rivojlanishiga to`squinlik qilgan. Ko`rsatilgan barcha sohalar yirik feodallar boshqaruvida bo`lib, qattiq ekspluatatsiya qilishar edi.

d) *Soliq va majburiyatlar*. Xonlikda xuddi Buxoro va Xivada bo`lganidek, o`nlab soliqlar va majburiyatlar mavjud edi. Ma`lumki, soliqlar va majburiyatlarning ko`pligi hamda ularning tartibga solinmaganligi kambag`al tabaqaning yanada qashshoq-

lashuvi, xo'jalikning esa barbod bo'lishiga olib kelgan. Urush davrida esa bu ahvol yanada og'irlashgan.

e) *Tashqi omil*. Chet davlatlarning xonlik ustiga bostirib kirishi aholining ikki tomonlama ekspluatatsiya qilinishiga olib kelgan, ijtimoiy ahvol ham og'irlashgan. Masalan, Buxoro amiri Nasrulloxonning yoki Rossiya imperiyasining bostirib kirishi.

XVIII-XIX asrning I yarmidagi xalq harakatlari. Qo'qon xonligida yuz bergan dastlabki qo'zg'olonlardan biri haqida V. P. Nalivkinning "Краткая история Кокандского ханства" asarida quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Tez orada Andijonda qo'zg'olon boshlandi. Abdurahimbiy qo'shini bilan yetib keldi va qiyinchiliksiz qo'zg'olonn bostirdi". H. Bobobekov qo'zg'olon 1721-yili bo'lib o'tganligi va uning Abdurahimbiy tomonidan shafqatsizlarcha bostirilganligi to'g'risida ma'lumot bergan.

1748-1749-yilgi qipchoqlar qo'zg'oloni. Ushbu qo'zg'olon Abdukarimbek davrida bo'lib o'tgan. Qo'zg'olon to'g'risidagi ayrim ma'lumotlar "Ansob us-salotin va tavarix ul-xavoqin" asarida berilgan. Abdukarimbek davrida qipchoqlar da'vogar bo'lishiga qaramasdan davlat mansablariga o'zbek va tojiklar qo'yilgan edi. Bu qipchoqlarning noroziligiga sabab bo'lgan. 1745-1746-yillarda qalmaqlarning Farg'ona vodiysiga bostirib kirishi iqtisodiy ahvolni og'irlashtirgan. Qipchoq feodallari kambag'alarni hukumatga qarshi tashviqot qila boshlagan. Bundan xon xabar topib qipchoqlarga qarshi tashviqot qilishga buyruq berdi. Natijada, bozor kuni aholi qipchoqlarni qirg'in qilishni boshlagan. Qochib qutulgan ayrim qipchoqlar voqeani o'z urug'-doshlariga yetkazganlar. Qipchoqlar Sayfiddin to'rani xon qilib ko'targanlar va hokimiyatni egallash uchun qo'shin tuzganlar. Tez orada ular To'raqo'rg'onni jangsiz egallagan. G'urumsaroy hokimi xavfni bartaraf qilish maqsadida qo'zg'olonchilarga qarshi yurish boshlagan. Qipchoqlar esa Namangan hokimidan yordam so'raganlar. Namangan hokimi ularni aldab, qo'zg'olon faollari-dan bir nechtasini qo'lga tushirib, xonga xabar bergan. Qo'zg'olonchilar shafqatsiz jazolangan.

Norbo'tabiy 1763-yilda taxtga chiqqach, o'z ukalarini bir necha viloyatlarga hokim etib tayinlagan. Lekin, O'ratepaga hokim etib jo'natilgan *Xo'jabek* o'z akasi taxtini egallash uchun

harakat boshlagan. U o`ratepaliklar qo`llab-quvvatlashi yordamida Norbo`tabiydan norozi bo`lgan Qurama va Qirovchi aholisini o`ziga og`dirgan. Tez orada Xo`jabek To`raqo`rg`onda tarafdorlari ko`pligidan foydalanib, u yerni ham jangsiz egallagan. Xo`jabekning keyingi harakati Andijonga qaratilgan. Andijonliklar unga bo`ysunishdan bosh tortganlar va xonga xabar berganlar. Bir necha kundan keyin xon yetib kelgach, aka-ukalar yarash bitimini imzolagan. H. Bobobekov bu voqea 1799-yilda sodir bo`lganligi haqida ma`lumot bergan/

Xon taxtiga qarshi qo`zg`olonlardan biri Chustda ro`y bergan. Unga Chust hokimi *Buzrukxo`ja* boshchilik qilgan. U Qo`qon qo`shinlarining Toshkent bilan band ekanligidan foydalanib, hokimiyatni egallash maqsadida 1800-yilda qo`zg`olon ko`targan. Buzrukxo`ja hatto unga qarshi jo`natilgan jazo otryadini tor-mor keltirgan, lekin Olimxon o`z qo`shinlari bilan kelayotganidan xabar topgach Chotqolga qochgan. U Toshkent hokimi Yunusxo`jadan yordam so`rab uning qo`shinlari yordamida Chustni egallagan. Bo`layotgan voqealardan Chust aholisi norozi bo`lgan ko`rinadi, ko`p o`tmay ular Buzrukxo`jani xonga tutib berganlar. Xon uni osib o`ldirishga buyruq bergan. Faqatgina Buzrukxo`ja manfaatlari ko`zlanganligi va aholining noroziligi sababli qo`zg`olon uzoq cho`zilmagan.

Olimxon taxtga chiqqach, Toshkent, Chimkent, Turkiston kabi yerlar hisobiga xonlik hududlarini kengaytirishga erishgan. Olimxonning Toshkentni bosib olishi Toshkent qo`zg`olonining ko`tarilishiga sabab bo`ldi. Toshkent amaldorlari aholining Qo`qon qo`shinlari tomonidan talanishidan foydalanib, xalqni xonga qarshi qo`zg`olon ko`tarishga da`vat etgan. 1808-yil xon qo`shini bilan Toshkentga yurish boshlagan va shaharni zabt etgan. Toshkent taslim bo`lishiga qaramay, shahar atrofida yashovchi aholi, ko`chmanchi qozoqlar orasida uzoq vaqtgacha norozilik harakatlari davom etgan.

1821-yil qishda Umarxonning buyrug`i bilan Namangan hokimi qozoq cho`llaridagi ko`chmanchilardan soliq yig`ishtirish maqsadida kelgan. Soliqlardan norozi bo`lgan qozoqlar *Tentak To`ra boshchiligida qo`zg`olon* ko`targan. Tez orada Turkiston yaqinida unga 12 ming qozoq ko`chmanchilari qo`shilgan.

Sayram qo'zg'olonchilar tomonidan egallanib, tayanch punktga aylantirilgan. Xon qo'shinlari kelayotganidan xabar topgan qo'zg'olonchilar ikki guruhga bo'linganlar: birinchi guruh Tentakto'ra rahbarligida Sayram qal'asi himoyasi bilan, ikkinchi guruh esa Chimkent qal'asi himoyasi bilan band bo'lganlar. Har ikki qal'alar xon qo'shinlari tomonidan qamal qilingan. Uzoq davom etgan qamaldan so'ng kelishuvga erishilgan. Shartnomaga ko'ra, qo'zg'olonchilar rahbari xon hokimiyatini tan olgan va o'z o'g'lini poytaxtga garov sifatida jo'natishga majbur bo'lgan.

H. Bobobekov XIX asrning 20-yillarida Turkiston va Toshkent oralig'idagi hududda Qobul boshchiligida qozoqlar qo'zg'oloni bo'lib o'tganligi to'g'risida ma'lumot bergan

Qo'zg'olon Bog'istonda boshlangan. Umarxon qo'zg'olon dan xabar topishi bilan Toshkentdan jazo otryadini jo'natgan. Og'ir janglardan so'ng qo'zg'olonchilar Bog'iston qal'asiga chekinganlar. Qal'a uzoq vaqt himoya qilingan. Xon qo'shinlari tomonidan qal'a zabt etilgach, Qobul Toshkentga olib kelinib, Chorsu maydonida qatl etilgan. Qo'zg'olon mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, ko'chmanchi qozoqlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Xonlik qo'shinlari tomonidan bosib olingan Darvoz, Shug'on, Roshon kabi hududlar aholisi bosqinchilar tomonidan yangi soliq va majburiyatlar bilan og'ir ahvolga solingan. Qorategin aholisi ham shunday og'ir ahvolda edi. Natijada aholi 1839-yili qo'zg'olon ko'tarishga majbur bo'lgan. Madalixon Qorategin ga jazo otryadini jo'natib, qo'zg'olonne bostirgan. Qorategin qo'zg'oloni haqida ma'lumotlar juda kam.

1841-yilda Qo'qonda ajoyib bir voqea bo'lib o'tgan. Bunday voqea tarixda kamdan-kam ro'y beradi. 1842-yil Buxoro amiri Qo'qon yerlarining bir qismini egallab, poytaxt yaqinida qarorgoh qurgan. Madalixon sulh tuzish maqsadida amir huzuriga o'z o'g'li Muhammad Amin boshchiligida elchi jo'nat-gan. Nasrulloxon esa shartnoma tuzish uchun elchilarga shaxsan Qo'qon xoni Madalixonning o'zi kelishini aytgan. Madalixon saroy a'yonlarini maslahatga chaqirgan. Shu payt xon huzuriga Qo'qonda mashhur bo'lgan misgar hunarmand *Xo'ja Qalandar* keladi. U agar o'ziga bir kunga xonlik vakolati berilsa, Buxoro amirini Qo'qondan

haydab chiqarishi haqida xonni ishontirgan. Xonning boshqa chorasi yo'qligi sababli rozi bo'lgan. Bu xabar yashin tezligida shahar aholisiga tarqalib, ikki soat mobaynida xonga eng yaqin bo'lgan o'n sakkizta yirik feodallarning uyi talon-taroj qilingan. Buxoro amirining elchisi ham o'ldirilgan. Tartibsizlik feodallarga qarshi qo'zg'olonga aylanib ketgan. Natijada saroy a'yonlari xondan o'z qarorini bekor qilishni iltimos qilganlar. Xon xalq oldida obro'si baland bo'lgan Azimboy va Asqar dodhohlarni xalqni tinchlantirish uchun jo'natib, Xo'ja Qalandarni hibsga olishga buyruq bergan. Qo'zg'olon tez orada bostirilgan.

1843-yilda Qo'qonda qipchoqlar qo'zg'oloni boshlangan. Qo'zg'olonga hokimiyatni egallash uchun harakat boshlagan Musulmonqul mingboshi boshchilik qilgan. Bunday voqealarga tayyor bo'lmagan xon qo'shinlari uyushgan qipchoqlardan mag'lub bo'lgan. Natijada Qo'qonda qipchoqlarning shafqatsiz hokimligi boshlangan.

Xonlikda navbatdagi qo'zg'olon Issiqko'l qirg'izlari tomonidan ko'tarilgan. H. Bobobekov qo'zg'olon 1843-yili bo'lganligi va hatto, xon qo'shinlarining bir nechitasi ustidan g'alaba qozonilganligi haqida ma'lumot bergan. Umuman olganda, qo'zg'olon haqida ma'lumotlar yetarli darajada emas.

1845-yili Oloy va Uchqo'rg'on qirg'izlari qo'zg'olon ko'tarib, O'sh shahrini egallaganliklari to'g'risida xabar kelgan. Musulmonqul qo'shin to'plab, qo'zg'olonni bostirish uchun O'shga jo'nagan. Lekin, u yetib kelgunicha Shahrixon begi Ko'ro'g'li qipchoq o'z qo'shini bilan qo'zg'olonchilarni tor-mor keltirgan edi. Shunday bo'lsa ham, Musulmonqul Ko'ro'g'li qipchoq bilan uchrashish maqsadida yo'lida davom etgan. Shu orada Qo'qondan Rahmatullo dodhoh, Sotiboldi dodhoh va Qosimbek otaliq o'g'li kabilar Murodxonni taxtga o'tqazganligi haqida xabar keladi va Musulmonqul Qo'qonga qaytishga majbur bo'lgan. Murodxon voqeasi aynan shu paytga to'g'ri kelganligi tufayli O'sh qo'zg'oloni Musulmonqul tomonidan uyushtirilganligi to'g'risidagi taxminlar ham mavjud.

1847-yilgi *Toshkent qo'zg'oloni*. Qo'zg'olon haqidagi ma'lumotlar V. P. Nalivkin asarida berilgan (*Наливкин В. П. Краткая история Кокадского ханства. – Казань, 1886. – С. 167-168.*).

Asarda yozilishicha, qo'zg'olonga soliqlarning ortib ketishi sabab bo'lgan. Qo'zg'olonga aholi orasida katta obro'ga ega bo'lgan va hunarmandchilik (tikuvchilik, shoyi) ustaxonalarining egasi Mayusupboy boshchilik qilgan. Shahar ko'chalarida barrikadalar-dan o'ta olmagan Toshkent hokimi Azizbek qo'shinlari qo'zg'o-lonchilarni to'pga tutgan. Bir necha kundan keyin yana yangi kuch bilan qo'zg'olon boshlangan. Xon Toshkentda bo'layotgan voqealar haqida xabar topgach, u yerga qo'shin jo'natgan. Qo'-qon qo'shinlari Toshkentni zabt etib, Azizbekni Qo'qonga jo'nat-gan. Azizbek qatl etilib, Normuhammad Toshkent hokimi qilib tayinlangan.

XIX asrning II yarmidagi xalq harakatlari. 1852-yilda Xudoyorxon qipchoqlar hokimiyatini tugatish uchun amaliy harakat boshlagan. Qo'shinni kuchaytirish maqsadida Normuham-madga o'z yigitlari bilan Qo'qonga yetib kelishini buyurgan. Xonning niyatidan xabar topgan qipchoqlar ham qo'shin to'plab, Chotqoldan Musulmonqulni chaqirtirganlar. Toshkent qo'shinlari Qo'qonga yetib kelmasdan xonning mahfiy buyrug'iga ko'ra, Normuhammad o'ldirilib, qo'mondonlikni Qosim o'z qo'liga ol-gan va tezlik bilan Qo'qonga jo'naganlar. Xijriy 1269-yil Qurbon oyining 27-kuni O'rdada ertalabki marosimdan so'ng qipchoqlar xonga o'z noroziliklarini bayon qilganlar. Suhbat asta-sekin xonga nisbatan tazyiqqa aylanib, janjal boshlangan. Shu payt Toshkent qo'shini O'rdaga kirib kelib qipchoqlarni otib, chopib o'ldirgan. Qo'qon aholisi voqeadan xabar topgach, xon qo'shiniga qo'shil-ganlar va shaharda qipchoqlar qirg'ini boshlangan.

1852-yilning 10 oktabr kuni Xudoyorxon qo'shini qipchoq-lar bilan asosiy jang bo'lishi kerak bo'lgan Bilqillamaga yetib kelgan. Asosiy to'qnashuv xon qo'shinlari foydasiga hal bo'lgan. Qochib ketgan Musulmonqul Uychida asir olingan va kishanlan-gan holda Qo'qonga olib kelingan. Bir necha kun mobaynida poytaxt va boshqa viloyatlarda qipchoqlar qirg'ini bo'lib o'tgan. Minglab odamlar qatl etilgan. Qatl etilganlar orasida Musulmon-qul ham bor edi. Shu tariqa bir necha yil davom etgan qipchoqlar hukmronligiga barham berilgan. Bo'lib o'tgan voqealar vaqti tarixiy adabiyotlarda turlicha ko'rsatilgan. H. Bobobekov manbalar va arxiv hujjatlariga asoslanib, voqealar 1853-yilning

fevral va aprel oylari oralig'ida sodir bo'lganligini bayon qilgan (Бабабеков Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII–XIX вв.). – Ташкент: Фан, 1990. – С. 69.).

1854-yil qipchoqlar qo'zg'oloni boshlangan. H. Bobobekovning ma'lumotiga ko'ra, qo'zg'olonga O'tanboy qipchoq boshchilik qilgan. Qo'zg'olonchilar Andijon va Marg'ilon shaharlarini egallagan. Keyinroq qo'zg'olonga qirg'iz urug'lari ham qo'shilganlar. Muallifning xabariga ko'ra, qo'zg'olon olti oydan ko'proq davom etgan.

Xudoyorxonning ukasi, Andijon hokimi So'fibek to'y qilish maqsadida akasini taklif etgan paytda, Qo'qonda yana bir qo'zg'olon ko'tarilgan. Qo'zg'olonga Maxdum A'zam avlodidan bo'lgan Rustamxonxo'ja boshchilik qilgan. V. P. Nalivkinning yozishicha, xon xalq orasida ta'siri katta bo'lgan xojalar va to'ralarni xuddi qipchoqlar kabi tugatishni maqsad qilgan edi (Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – С. 185). Xonning maqsadidan xabardor bo'lgan Rustamxonxo'ja poytaxtda uning yo'qligidan foydalanib, xojalarni to'plagan va xavfdan xabardor qilgan. Shu yig'inda ona tomondan xonlarga qarindosh bo'lmish Rustamxon xon qilib ko'tarilgan. Xon Qo'qonga Qosim mingboshi va Qambar ponsodni qo'zg'olonchi Rustamxonni jazolash maqsadida jo'natgan. Qo'qon aholisi Rustamxonning tarafini olib, xon vakillarini poytaxtdan quvib yuborgan. Shu yerda qo'zg'olonga sabab bo'lgan bir voqea eslangan. Musodora qilingan qipchoq yerlari masa-lasi edi. Bu harakatga Mirza Munavvar boshchilik qilgan. Tarixiy adabiyotlarda bu voqea 1855-yilda sodir bo'lganligi yozilgan.

Toshkent hokimi Mirzaahmad qozoq qabilalariga og'ir soliqlar solibgina qolmay, voyaga yetmagan bolalarni qullikka sotar edi. Natijada 1857-yil Avliyootada qozoqlar qo'zg'oloni boshlangan. Qozoqlar Mirzaahmad qo'shinlari tomonidan tarqatilgan bo'lsa-da, keyinroq katta kuch bilan Avliyootani qamal qilgan. Bu ma'lumotlar V. P. Nalivkinning "Краткая история Кокандского ханства" asarida berilgan. Lekin, bizga ma'lumki, bu voqealar bo'lib o'tayotgan vaqtda Avliyoota ruslar tomonidan bosib olingan edi.

1857-yilda Alatrov yaqinidagi Jetisuv hududida qozoqlarning qipchoq urug'i qo'zg'olon ko'targan. Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirish uchun 500 kishilik qo'shin bilan yo'lga chiqqan. Lekin, Mallaxonning hokimiyatni qo'lga kiritish uchun qilgan harakati tufayli ortga qaytishga majbur bo'lgan.

Qozoqlarning dulat, beshtamg'al va changlin urug'lari 1858-yil qo'zg'olon ko'targan. Toshkent parvonachisi chorvadorlardan soliq yig'ish maqsadida o'z odamlarini jo'natgan. Soliq faqatgina chorva hayvonlaridangina emas, balki har bir qiz bola uchun 20 rubl to'lanishi kerak edi. Soliq yig'uvchilar boshlig'i Mirzaboy qiz bolalarni ro'yxatdan o'tkazish paytida erkaklar telpagi kiyib yurgan Qanayboyning qizini payqab qolgan. Qanayboydan jarima to'lashni talab qilganida, Mirzaboy o'ldirilgan. Boshqa chorvadorlar soliqchilarga hujum qilib, ularning aksariyatini o'ldirganlar. Shu tariqa qo'zg'olon boshlanib ketgan.

Po'latxon qo'zg'oloni. Qo'qon xonligida masshtabi bo'yicha eng yirik va eng oxirgi qo'zg'olon *Po'latxon qo'zg'oloni* hisoblanadi. Qo'zg'olon dastlab Jalolobod va Xonobod qishloqlarida qirg'izlar tomonidan xon soliq yig'uvchilarining o'ldirilishi bilan boshlangan. Qo'zg'olonga O'sh, keyin boshqa qishloqlar va ovullar aholisi ham qo'shib, kengayib borgan. Qo'zg'olonchilar bir necha marotaba xon qo'shinlariga zarba berdilar. Shunday janglardan biri To'raqo'rg'on yaqinida bo'lib o'tgan.

1873-yilning bahorida boshlangan qo'zg'olon kuzga kelib vaqtincha to'xtagan. 1874-yilning bahorida yana boshlangan. Qo'zg'olon noyabr oyining oxirlariga borib vaqtincha to'xtagan va 1875-yilning bahorida yana yangitdan boshlangan. Ularga qarshi xon tomonidan jo'natilgan Abdurahmon oftobachi, Iso Avliyo va Sarimsoqiy o'z qo'shinlari bilan birin-ketin qo'zg'olonchilar tomonga o'tganlar. 1875-yil 18-iyulda xonning o'g'li Nasriddinbek, 20 iyulda esa Sulton Murodbek qo'zg'olonchilar tomonga o'tib ketishgan. Qo'zg'olonchilar O'sh, Namangan, Andijon, Asaka kabi yirik shaharlarni ishg'ol qilganlar. Xudoyorxon tang ahvolda qolib, 1875-yil 20-iyul kuni Turkiston gubernatoriga yordam so'rab, maktub yozgan. Qo'zg'olon milliy ozodlik harakatiga aylanib ulgurgan edi.

1875-yilning iyulida Xudoyorxon qochib ketganidan keyin taxtga Nasriddinbek o'tirgan. Po'latxon esa bu vaqtda o'z kuchlarini muttassil oshirib borish uchun katta janglardan saqlangan. U xalqni o'ziga qaratish va qo'llab-quvvatlashiga erishish maqsadida yerlarni mehnatkash xalqqa bo'lib bera boshlagan. Po'latxondan o'rnak olgan mahalliy aholi feodallarning yerlarini bo'lib olishga kirishgan. Bu siyosat aholi orasida Po'latxonning harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashga yordam bergan. Natijada milliy-ozodlik harakati yangi kuch bilan yangi hududlarga yoyilib ketgan. Milliy-ozodlik harakati general-gubernatorlik chegaralariga yaqin kelib qolgach, tashvishga tushganlar. Turkiston general-gubernatori fon Kaufman ozodlik harakatining shiddat bilan kuchayib ketayotganligini anglab, jazo kuchlarini kuchaytirgan. General-leytenant Golovachyov qo'mondonligidagi 1-Sibir jazo polki, 2-o'qchi batoloni, otliq askarlar divizioni kabi qo'shinlar jangga kiritilgan. Jazo otryadlari qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch ola boshlagan.

Kaufman ozodlik harakatini bostira olishiga ko'zi yetmay, Sankt-Peterburgga harbiy yordam so'rab murojaat qilgan. Podsho mahalliy xalq bilan chinakam urush boshlanganligiga ishonch hosil qilib, Turkiston harbiy okrugini kuchaytirish uchun katta mablag' va harbiy kuchlar ajratishga farmon bergan.

Turkiston general-gubernatori buyruqdan so'ng, 1875-yil 9-avgustida milliy-ozodlik harakatini bostirish uchun urush harakatlarini boshlagan. Qo'zg'olonchilar butun avgust oyi davomida podsho qo'shinlariga qarshi qaxramonlarcha kurash olib borganlar. Bu vaqtga kelib ularning soni 50 ming kishiga yetgan edi. Lekin, qo'zg'olonchilar yagona kuch bo'lib birlashmaganliklari, zamonaviy qurol-yarog' va tayyorgarlikka ega bo'lmaganliklari tufayli katta qiyinchiliklarga duch kelganlar.

Rus qo'shinlari rejasiga ko'ra, Norin va Qoradaryo orasida qo'zg'olonchilarning asosiy kuchlari qopqonga tushirilishi va ularning yirik kuchlarini mayda bo'laklarga ajratib, alohida-alohida tor-mor keltirish hamda qirib tashlanishi kerak edi. Bu reja shartli nom bilan "ikki suv orasi operatsiyasi" deb yuritilgan.

1876-yil 8-yanvarda rus qo'shinlari Andijonga yetib kelgan. Shahar to'plardan tinimsiz o'qqa tutilgach, piyoda askarlar hujum-

ga o'tgan. Po'latxon Marg'ilonda turganligiga qaramay, andijonliklarga yordamga kelmagan. Dahshatli janglardan so'ng ruslar katta talofat bilan shaharni egallagan. Shu voqealardan so'ng Abdurahmon oftobachi dushmanga taslim bo'lgan. Uning qo'shinlari 1876-yil 24-yanvarda tarqatib yuborilgan. Ruslarning keyingi zarbasi Asakada joylashgan Po'latxon qo'shiniga qaratilgan. Bir necha hujumlardan so'ng Po'latxon mag'lubiyatga uchrab, Uchqo'rg'onga chekingan. Uning ortidan Uchqo'rg'onga Miller Zakmelskiy qo'mondonligidagi alohida kazaklar otryadi va Kuropatkin boshchiligidagi otliq otryad jo'natilgan. Holdan toygan qo'zg'olonchilarning asosiy qismi qirib tashlangan, hech kim asir olinmagan. 18-fevraldan 19-fevralga o'tar kechasi Po'latxon xoinlar yordamida ushlanib, rus qo'mondonligiga topshirilgan. U 1876-yil 1-martda Marg'ilon bozori maydonida xalq oldida dorga osilgan. Uning safdoshlari ham ayovsiz jazolangan. Shu tariqa Po'latxon qo'zg'oloni bostirilgan.

Tayanch iboralar: xalq harakatlarining sabablari, qipchoqlar qo'zg'olonlari, qozoqlar qo'zg'olonlari, qirg'izlar qo'zg'olonlari, tojiklar qo'zg'olonlari, Po'latxon qo'zg'oloni.

Nazorat savollari:

1. Qo'zg'olonlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablarini ko'rsating.
2. 1845-yilgi O'sh qo'zg'oloni qanday yakun topdi?
3. Milliy-ozodlik ruhidagi qo'zg'olonlarni ko'rsatib bering.

TURKISTONNING ROSSIYA TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

Reja:

- 1. Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni bosib olishi sabablari.**
- 2. Qo`qon xonligi yerlarining bosib olinishi.**
- 3. Qo`qon xonligining tugatilishi, Turkiston general - gubernatorligining tashkil topishi.**

**Rossiya imperiyasining O`rta Osiyoni bosib olishi sabablari.** Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olish uchun harakat Pyotr I davridan boshlangan. Pyotr I ning afsonaviy Hindiston yerlariga ega bo`lishi uchun olib boradigan yo`l hozirgi Markaziy Osiyo orqali o`tar edi. Shuning uchun qozoq juzlari va O`rta Osiyo xonliklarini zabt etish imperator uchun bajarilishi kerak bo`lgan asosiy vazifa hisoblangan. 1714-yilda turkman zodagonlarining vakili Xo`ja Nafas Peterburgga borib, Amudaryoda oltinli qumlarining ko`pligi to`g`risidagi ma`lumotni Pyotr I ga yetkazgach, Rossiyada O`rta Osiyoga qiziqish yanada ortgan. Ma`lumotlarni aniqlashtirish maqsadida 1715-yilda kapitan I. Buxgolts rahbarligidagi birinchi ekspeditsiya jo`natilgan. Ammo, mahalliy aholining katta to`sqinligiga uchragan ekspeditsiya tez orada barbod bo`lgan. Pyotr I ning Kaspiy dengizi sharqiy qirg`oqlarida istehkomlar qurish to`g`risidagi buyrug`idan so`ng Avliyo Pyotr va Krasnovodsk istehkomlari barpo etilgan. Xiva xonligi hududlarini o`rganish jadal sur`atlarda boshlab yuborilgan.

Pyotr I 1717-yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi 3000 kishilik qo`shin jo`natgan. Ammo, Xiva xoni Sherg`o`zixon tomonidan bu ekspeditsiya batamom qirib tashlandi. Pyotr I ekspeditsiyalar amalga oshmagan bo`lsa-da, o`z harakatlarini to`xtatmagan, josuslik maqsadida elchilarni Buxoro, Xiva hududlariga jo`natib turgan.

1732-yil Kichik juz, 1740-yilda O`rta juz, 1747-yilda esa Katta juz Rossiya tobe`ligiga o`tgan. Turkistonga yurish qilish

maqsadida qozoq juzlarining zabt etilgan yerlarida harbiy qal'alar va istehkomlar qurdirgan. Shu maqsadlarda 1717-yil Omsk, 1718-yil Semipalatinsk, 1720-yil Ust-Kamenogorsk, 1724-yil Orenburg qal'alari vujudga kelgan. Faqatgina XVIII asrning o'zida qozoq juzlari hududlarida 46 ta katta va 96 ta kichik qal'a hamda istehkomlar qurilgan.

XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida Rossiya-Turkiya urushi hamda Napoleonning Rossiyaga bostirib kirishi kabi voqealar rus xukumatining Turkistonga qiziqishini vaqtincha to'xtatib qo'ygan.

XIX asr boshlarida Nikolay I davrida yana ruslarning aktiv harakatlari boshlangan. Shu asrning 30-yillarida Qo'qon xonligi nazorati ostida bo'lgan yerlarda Sarisu daryosi va Ulutovda xonlik tomonidan qurilgan harbiy qo'rg'onlar buzib tashlangan.

1839-1840-yillarda podsho Nikolay I ning homiyligi va fatvosi bilan Orenburg harbiy gubernatori V. A. Perovskiy katta qo'shin bilan Xivani bosib olish niyatida yo'lga chiqqan. Qo'shin tarkibida 2 ta zambarak, 40 ta arava, 5325 nafar askar, 10 ming tuya bor edi. Ammo, ob-havo sharoiti va oziq-ovqat tanqisligi Perovskiy qo'shinining Xivaga yurishini to'xtatib, orqaga qaytishga majbur qilgan.

Rossiya imperiyasining Turkiston yerlarini bosib olishga intilishining yangi to'lqini 1847-yilda boshlangan. Shu yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi – Raim qal'asi egal-lanib, Orol harbiy qal'asi barpo etilgan.

Qo'qon xonligi yerlarining bosib olinishi. 1852-yilda rus qo'shinlari Oqmachitga hujum qilgan, lekin uni qo'lga kiritish mag'lubiyat bilan yakunlangan. 1853-yilda general Perovskiy boshchiligidagi ikki ming qo'shin Oqmachitga ikkinchi marta hujum uyushtirgan. 22 kunlik qurshov va jangdan so'ng bosqinchilar istehkomni egallaganlar. So'ng ruslar istehkomni "Perovskiy forti" nomi bilan atay boshlaganlar. Qo'qonliklar bir necha marotaba Oqmachitni qaytarib olish uchun kurashganlar, lekin bu harakatlar samarasiz yakunlangan. 1854-yilda Olmaota o'rnida Verniy harbiy qal'asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o'rin tutgan istehkomlaridan bo'lgan. 1860-yilda pol-

kovnik Simmerman qo'shini Qo'qon xonligining 5 ming kishilik qo'shinini tor-mor keltirib, To'qmoq va Pishpak qal'alarini egallagan. Ili orti vodiysi Alatov okrugi deb o'zgartirilgan. 1861-1863-yillarda chor qo'shinlari Qo'qon xonligiga bir necha marta zarbalar berdilar. Bu davrda Qo'qon xonligiga qarashli Yangi Qo'rg'on, Din Qo'rg'on, Merka va ikkinchi marta Pishpak egalangan. 1863-yil yozida polkovnik Chernyayev Sirdaryo yoqasidagi Suzoq qal'asini qo'lga kiritgan va uni "Rossiya mulki" deb e'lon qilgan.

1864-yil boshida Chernyayev 2500 kishilik qo'shin bilan Avliyootani egallagan. Polkovnik Veryovkin guruhi 12 kunda Turkiston qal'asini bosib oldi. 1864-yil 21-sentabrda Chernyayev Chimkentni jang bilan egallagan. Chernyayev garchi podsho Aleksandr II taqiqlagan bo'lishiga qaramay, 1864-yil 27-sentabrda Toshkentni zabt etishga kirishgan, lekin toshkentliklarning qattiq qarshiligiga dosh bera olmaganligi oqibatida Chimkentga qaytishga majbur bo'lgan. 1865-yil 28-aprelda Chernyayev Chirchiq yonidagi Niyozbek qal'asini jang bilan ishg'ol qilgan. Bir xoin maslahati bilan Chernyayev Kaykovus arig'i to'g'onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuborgan. Toshkentliklar og'ir ahvolda qolgan. Chernyayev qo'shini 9-may kuni hal qiluvchi hujumga o'tib, 14-iyunda shaharga yorib kirgan. 17-iyunda himoyachilar shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlagan.

Qo'qon xonligining tugatilishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. Toshkentni strategik jihatdan Qo'qon xonligining yuragi deyish mumkin edi. Toshkentning egallanishi Qo'qon xonligiga yo'lning ochilishini anglatardi. 1865-yilda Toshkent egallangan. 1867-yilga kelib hududda Rossiya boshqaruv tizimi o'rnatildi. Qo'qon xonligida boshlangan Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon keyingi bosqichda milliy-ozodlik harakatiga aylanib ketgan. Xudoyorxon esa o'z ixtiyorini general-gubernator Kaufmanga topshirgan. 1875-yil sentabrda Kaufman qo'shini Maxramdan chiqib, Qo'qon shahriga yo'l olgan. Asta-sekinlik bilan Andijon, Namangan shaharlari egallanib, 1876-yil 18-fevralda Qo'qon xonligi tugatilganligi

eʼlon qilingan. Xonlik hududlari Fargʻona viloyati sifatida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi 1865-yil 6-avgustda imperator Aleksandr I tomonidan tasdiqlangan “Turkiston viloyatini idora qilish toʻgʻrisidagi nizom”i asosida boshqarilgan. Nizom bir necha marotaba qayta-qayta ishlanib, oʻzgartirishlar kiritilgan. 1886-yil “Turkiston oʻlkasini boshqarish toʻgʻrisidagi nizom”i loyihasi eʼlon qilingan. Unga koʻra, oʻlka markaziy, oblast, uezd, uchastka, qishloq va shahar shaklida boshqarilgan. Markaziy oʻlka boshqaruvi general-gubernator, kengash va mahkamadan iborat boʻlgan. Maʼmuriy jihatdan oʻlka Fargʻona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlariga boʻlingan.

Tayanch iboralar: Oʻrta Osiyo-Rossiya munosabati, istilo, istilo sabablari, Toshkentning zabt etilishi, Turkiston general-gubernatorligi, xonlikning tugatilishi.

Nazorat savollari:

1. XIX asrning oʻrtalarigacha Rossiya-Oʻrta Osiyo munosabatlari qay darajada edi?

2. Rossiya imperiyasi istilosining asosiy sabablarini koʻrsating.

3. Qoʻqon xonligi qachon tugatilgan?

QO`QON XONLIGIDA MADANIY HAYOT

Reja:

1. Qo`qon xonligida ta`lim.
2. Ilm-fan taraqqiyoti.
3. Adabiyot va san`at.
4. Qo`qon xonligida me`morchilik.

Qo`qon xonligida ta`lim. Qo`qon xonligida ta`lim maktablar, madrasalar va qorixonalardan iborat bo`lgan. Maktablar, asosan, masjidlar qoshida hamda ruhoniylar va boylarning uylarida tashkil etilgan. H. Bobobekovning qayd etishicha, xon o`rda-sida xonzoda va zodagonlarning bolalarini o`qitish uchun maxsus maktab ochilgan. Odatda, maktablarda o`quvchilarning soni o`rtacha 10-30 ta bo`lgan. Shahar maktablarida o`quvchilar soni qishloq maktablariga nisbatan ko`proq edi. O`quvchilar yaxshi yoritilmagan xonalarda sholcha va bo`yralarda o`tirib o`qiganlar. Y. Qosimov maktablarda ta`lim uch bosqichda olib borilganligi haqida ma`lumot bergan: "...ta`limning birinchi bosqichida arab alifbosi o`rgatilgan, ikkinchi bosqichda "Haftiyak" (arab tilida)ni hijjalab o`qiganlar. Uchinchi bosqichda esa "Chorkitob" o`qilgan. Unda Hofiz, So`fi Olloyor, Fuzuliy, Ahmad Yassaviy va boshqalarning asarlari (she`rlari) o`qitilgan". Bundan tashqari, arifmetika, namoz o`qish qoidalari ham o`rgatilgan. Qiz bolalar maktabdor boylar va ruhoniylarning uylarida tashkil etilgan maktablarda o`qitilgan. O`qish xarajatlari vaqf daromadlari, xayriya va otionalarning mablag`lari tomonidan qoplangan. Maktablardan tashqari ko`zi ojiz bolalar uchun alohida qorixonalar tashkil etilgan. Qorixonada ta`lim olgan bolalar Qur`onni yod olganlar.

Maktabni tamomlagan bolalar madrasalarda o`z bilimlarini chuqurlashtirib, o`qishni davom ettirganlar. Tabiiyki, bunday imkoniyatga faqatgina boylar va ruhoniylarning bolalari ega bo`lgan. Madrasada arab, fors va turkiy til mukammal o`rgatilgan. Tabobat, matematika, geometriya, adabiyot, falsafa, mantiq, tarix, geografiya kabi fanlar o`qitilgan. Qur`onni o`qish uslublari, qiroat va tavsifga hamda fiqh ilmiga alohida e`tibor qaratilgan.

Madrasalarda o`qish *adno* (boshlang`ich), *avsat* (o`rta) va *a`lo* (yuqori) deb nomlangan uch bosqichda olib borilgan. Har bir

bosqich o'rtacha 3-4 yil davom etgan. Lekin, o'zlashtirmagan talabalar ko'proq muddatda o'qishga majbur bo'lganlar. Y. Qosimov o'quv yili muddati haqida quyidagi ma'lumotlarni bergan: "Madrasalarda o'quv-yili 120 kundan iborat bo'lgan. Haftada 4 kun mashg'ulot bo'lib, chorshanba va payshanba bo'sh kunlari, juma esa dam olish kuni deb belgilangan. Ramazon oyida 30 kun, Qurbon hayiti kunlarida ikki xafta dars bo'lmagan. Yozgi dam olish – ta'til kunlari may oyi oxirlari – iyun oyi boshlaridan boshlab, sentabr oyigacha davom etgan. Yozgi dam olish vaqtlarida mullavachcha (talaba)lar o'z uylarida yohud boshqa yerlarda ishlab, tirikchilik qilganlar" (Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari. – Namangan, 1994. – B. 60.).

Talabalar imkoni boricha juma namozida, (ayniqsa, jome' masjidida) bo'lishga harakat qilganlar. Juma namozida yirik ruhoniylar, olimlar va mulkdorlar ham jam bo'lgan. Namozdan so'ng Qur'on va shariat qonunlari borasida bahs-munozaralar bo'lgan. Bu talabalar uchun o'z bilimlarini oshirishda foydali bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning o'zlari ham shu munozaralarda qatnashishlari va yirik amaldorlar, ruhoniylar, mulkdorlar hamda olimlarning nazarlariga tushishi mumkin edi.

Madrasani tamomlagan talabalar davlat ishlarida turli mansablarda, maktab va madrasalarda ish bilan ta'minlangan. Ayrim bitiruvchilar turli sohalarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar, ayrimlari esa Buxoro, Samarqand kabi shaharlardagi nufuzli madrasalarda o'qishni davom ettirgan.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab va madrasalarda o'qitishning ayrim kamchiliklari ham bor edi. Masalan, maktablarda ham, madrasalarda ham yagona o'quv standarti bo'lmagan. Mudarrislar o'z uslublariga ko'ra, o'zlari xohlaganidek dars olib borganlar. O'quv xonalari-ning sifati ham talab darajasida bo'lmagan. O'quvchi va talabalar sholcha va bo'yralarda o'tirib o'qigan, talabalarning hujralari qorong'u va o'qish uchun noqulay bo'lgan. Bundan tashqari, o'quvchilar kaltaklangan va bu o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, deb tushunilgan. Aksariyat ma'lumotlar tushunish o'rniga faqat yod olingan.

Ilm-fan. Xonliklar davrida, xususan, Qo'qon xonligida madaniyat haqida so'z yuritilganida, avvalo, islom diniga to'xtalib o'tish kerak. Chunki, Movarounnahrda madaniyat, aholining

turmush tarziga islom shubhasiz, katta ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, Movarounnahrda Naqshbandiya, Kubroviya va Yassaviya tariqatlarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi xonliklar davri madaniyatiga ta'sir ko'rsatmay qolmagan.

Tariqat insonning islom diniga munosabatini yanada chuqurlashtirgan. Undagi tenglik, bag'rikenglik, birodarlik, mehnatkashlik, poklik kabi g'oyalar barcha tabaqalar orasida jamiyatga munosabatni o'zgartirmoqda edi. Tariqat vakillari xonlikda endigina ko'chmanchilar hamda o'troqlasha boshlagan yarim ko'chmanchilar orasida islom dinining keng va chuqur kirib borishiga yordam bergan. Natijada o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, tipik feodal davlat bo'lgan Qo'qon xonligida kambag'al tabaqa vakillari tenglik va birodarlik targ'ib etilayotgan tariqatdagina katta obro' e'tiborga ega bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun shayxlarning muridlari va tariqatni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p bo'lgan.

Qo'qon xonligida naqshbandiya tariqati vakillaridan biri Mahdumi A'zamning obro'si yuqori bo'lgan. Asl nomi Shayx Sayiid Ahmad Xo'jagon Kosoniy (1461–1542) bo'lgan shaxs XVI asr boshlarida Farg'ona vodiysining Kosonsoy hududida tug'ilgan, o'z davrining tasavvufiy olimlari Muhammad Qozi, Xo'ja Ahror Valilardan naqshbandiylik g'oyalarini o'rgangan. Shayx Sayid Ahmad Xo'jagon Kosoniy tasavvuf va uning nazariy-amaliy muammolari haqida 30 dan ko'p asar yozib qoldirgan. Uning tasavvufiy g'oyalari Buxoro xonligi va Yorkend xonligi aholisi orasida tarqalgan. Uning faoliyati natijasida Farg'ona vodiysi va Sharqiy Turkistonda tasavvufning naqshbandiylik tariqatiga asoslangan ta'limoti keng tarqalgan. Temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur, shayboniylardan Iskandarxon, Yorkend xonligi hukmdorlaridan Abdurashidxon kabilar Mahdumi A'zamni o'zlariga pir bilib, unga katta ixlos qo'yanlar.

Maxdumi A'zam avlodlarining ta'siri Qo'qonda ham katta edi. Ma'sumxon To'ra bobolari kabi xonlikdagi eng obro'li shaxslardan biri bo'lgan. U Olimxon va Umarxon davrida shayxulislom lavozimini egallagan bo'lib, saroyda xon maslahatchisi hisoblangan.

Ma'sumxon To'ra Qo'qon xoni Norbo'tabiyning qiziga uylangan. Shu nikohdan tug'ilgan o'g'li Hakimxon To'ra Namangan-da hokim lavozimiga ega bo'lganligi ma'lum. Shunga o'xshash holatni O'ratepada ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, O'ratepa Buxoro va Qo'qon o'rtasida talash hudud bo'lib, yuz urug'i vakillari uzoq vaqt hokimiyatni boshqarganlar. Ular orasida Naqshbandiya tariqati vakillari ham bor edi. O'ratepada Buxoro amirining ta'siri sezilarli bo'lganligi sababli Qo'qon xonlari ular bilan hisoblashishga majbur bo'lganlar. Qo'qon xoni Olimxon davrida Xo'ja Ahror avlodidan bo'lgan Mahmud Xoja (Mahmudxon to'ra Ahroriy) xonga dushman bo'lishiga qaramasdan, O'ratepa hokimi lavozimiga ega bo'lgan. Hatto, 1820-yilda Umarxon tinchlikni saqlab turish maqsadida jiyani, Olimxonning qizi Oftobxonni Mahmud xojaning o'g'li Sayidxon to'raga nikohlab bergan. Mahmud xojaning o'ziga Andijon yoki Marg'i-londa hokimlik qilish taklif etilgan. 1842-yil Qo'qon Buxoro amirligi tomonidan egallangach, jo'ybor xojalaridan ayrimlari yirik mansablarga tayinlanganlar. Masalan, Xoja kalon Qoshg'ariy Andijonga hokim etib tayinlangan edi. Tariqat Qo'qon xonligida ruhoniylar va siyosiy hokimiyat vakillari, hukmron va kambag'al tabaqa, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida aloqalarni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shgan. Ijtimoiy tizim sifatida shakllangan tariqat jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiy bo'lgan shaxsiy va ommaviy axloq hamda diniy me'yorlarni shakllantirgan.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida ijtimoiy fanlar, shu jumladan, *tarix fani* ham doimo muhim o'rin egallab kelgan. Qo'qon xonligi davrida yirik tarixchilar yetishib chiqqanligi tarixnavislik sohasida sezilarli darajada muvaffaqiyatlarga erishilganligini ko'rish mumkin. Junayid Mullo Avazmuhammad Mullo Ro'zi Muhammad So'fi o'g'li, Abdulkarim Fazliy Namangoniyy, Xo'ja Muhammad Xakimxonto'ra Ibn Said Ma'sumxon, Mirza Shams Buxoriy, Mulla Niyoz Muhammad Ho'qandiy, Muhammad Solihxo'ja ibn Qoraxo'ja, Muhammad Yunus Toib Muhammad Amin o'g'li, Shavqiy Namangoniyy kabi xonlik hududida yashagan yoki vaqtincha yashab ijod qilgan shaxslarni shunday tarixchilar qatoriga qo'shish mumkin. Junayid Mulloning "Tarixi Jahonnomayi", Fazliy Namangoniyyning "Majmuat ut-shuaro", "Shoxnoma",

“Umarnoma”, “Zafarnoma”, Hakimxon toʻraning “Muntaxab at-tavorix”, Buxoriyning “Buxoro, Xoʻkand va Qoshgʻarda baʼzi bir hodisotlar”, Niyoz Muhammad Hoʻqandiyning “Tarixiy Shoh-ruhiy”, Muhammad Solihning “Tarixi jadidi Toshkand”, Muhammad Yunusning “Xadoyiq ul-anvor”, Shavqiy Namangoniyning “Jomeʼ ul-havodis”, “Tarixi Hoʻqand”, “Pandnomai Xudoyorxon” kabi asarlar tariximizni oʻrganishda muhim manbalar boʻlib xizmat qiladi.

Qoʻqon xonligida adabiyot va sanʼat. Qoʻqon xonligi davrida oʻzbek adabiyotining rivojlanishiga hissa qoʻshgan isteʼdodli yozuvchilar, shoir va shoirlar yetishib chiqqan. Oqibatda, tariximizda mashhur boʻlgan Qoʻqon adabiy muhiti vujudga kelgan. Adabiyotning rivoj topishiga Akmal, Amiriy, Boqixon-toʻra, Gulxaniy, Yoriy Hoʻqandiy, Zavqiy, Zoriy, Mahjub, Maxmur, Muqimiy, Muxtazzib, Mushrif, Muhsiniy, Nasimiy, Nizomiy, Nodir, Nozil, Pisandiy, Rojiy, Sadoiy, Umidiy, Furqat, Shuhrat kabi isteʼdodli shoirlar hamda Anbar Otin, Baxri Otin, Dilshod, Zebiniso, Zunnat, Karomatoy, Nodira, Saidabonu, Toʻtiqiz, Uvaysiy, Fazilatbonu, Hafiza otin, Xayriniso kabi shoirlar katta hissa qoʻshganlar.

Qoʻqon xonligida *teatr sanʼatining* qiziqchilik, masxarabozlik, askiya, qoʻgʻirchoq teatri kabi turlari keng rivojlangan. Sahnalashtirilgan koʻrinishlar aholiga zavq berishdan tashqari, jamiyatda mavjud boʻlgan kirdikorlarini ochish uchun ham qoʻllanilgan. Aktyorlar turli obrazlar orqali xon saroyi vakillari, qozi, hokim, tanobchi kabi hukmron tabaqa vakillarining kamchiliklari ustidan kulib, ularning kirdikorlarini fosh qilganlar. Ayniqsa, XIX asrda Zokirjon, Zokir eshon, Matxoliq qiziq, Saʼdi Maxsum kabi taniqli aktyorlar yetishib chiqqan edi. Bundan tashqari, xonlikda dorbozlik, akrobatika, ot oʻyin kabi mahalliy aholi qadrlaydigan sanʼat turlari mavjud ediki, ular bozorlarda, bayramlarda, sayllarda oʻz koʻrinishlari bilan estetik zavq bagʻishlagan.

Qoʻqon xonligida adabiyot va sanʼat oʻz navbatida xattotlikning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatgan. Shoirlar, yozuvchilar, miniatyurachilar ijodlari oʻziga xos *xattotlik* maktabining vujudga kelishiga sabab boʻldi. H. Bobobekov xattotlik sanʼati haqida maʼlumot berar ekan, Muhammad Latif, Mirzo Sharif Dabir, Abdul-

g'ozī Xo'ja Ho'qandiy, Turdi Ali, Mirza Bobokalon Ho'qandiy, Mirza Mir Mahmudiy, Mir Afzal Ho'qandiy, Muqimiy, Muhammad Tohir Ho'qandiy, Abduqodir Qori, Mirmuhammad Qori, Mir Olim, Rojiiy, Husayinjon Hoji, Mirzo Xayrullo, Abdulmajid Qori Muhrkan, Mavlonqul Qori, Muhammad Yusuf, Ahmadjon, Nosirhoji Muhammad, Muhammad Aminjon kabi ko'plab xattotlik san'ati bilan shug'ullangan shaxslarning nomlarini keltirib o'tgan. Shu bilan birgalikda xattotlar tomonidan bajarilgan ayrim namunalar ham berilgan: "Zafarnomai Xudoyorxonī", "At-tasrif al-Izzi", "Al-qofiya", "Gulshan roz", "Devoni Lutfiy", "Haft avrang", "Chohar devon Amir Alisher Navoiy", "G'aroyib al-sag'ir", "Devoni Fuzuliy", "**Qulliyoti Dedil**", "Al-Qur'on" shular jumlasidandir.

Qo'qon xonligi davrida me'morchilik. Qo'qon xonligi davrida me'morchilik san'ati rivojlangan. Madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, hammom kabi imoratlar qurilishida Turkiston me'morchiligiga xos uslublardan foydalanilgan bo'lsa-da, ayrim o'ziga xos xususiyatlari mavjud edi. Bu mahalliy sharoit, qurilish materiallari, qolaversa, urf-odatlar ta'siridan kelib chiqqan. Masalan, Qo'qonda barpo etilgan jome' masjidi haqida, bir tomonga uzun cho'zilgan, ustunlari ko'p va baland joylashgan ayvonli, yarim yopiq, derazalari kam, ya'ni Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan uslubda qurilgan, deb yozilgan.

Qo'qon xonligida bunyod etilgan eng yirik inshootlar qatoriga shahar devori va xon o'rdasini kiritish mumkin. Shaharning ajralmas qismi bo'lgan, muhim me'moriy yodgorlik hisoblangan shahar devori hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. Shahar devori haqida Qo'qonda bo'lgan F. Nazarov, I. Potanin, A. Xoroshxin kabi rus elchilarining esdaliklaridan ma'lumot olish mumkin. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan Xudoyorxon o'rdasi XIX asrga oid bo'lgan muhim me'moriy obida hisoblanadi. O'rdaning qurilishida Mir Ubaydullo usta, Usta Soli hoji, Mullo Suyarqul, Fozilxoja, Usta So'fi Yo'ldosh kabi qo'qonlik yoki boshqa hududlardan taklif etilgan usta hamda naqqoshlar bilan minglab xonlik aholisi vakillari ishtirok etganlar.

Xonlikning Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh, Xo'jand kabi yirik shaharlarida yuzlab madrasalar qurilgan. H. Bobobekov "Qo'qon tarixi" asarida madrasalarning bir nechasiga

ta'rif bergan. Norbo'tabiy madrasasi, Madalixon madrasasi, Hazrat Kalon Sohib madrasasi, Madrasai Oliy, Madrasai Hokim oyim, Madrasai Kamol qozi, Madrasai Tunqator, Madrasai Haqquli mingboshi, Mohlar oyim madrasasi kabilar shular jumlasidandir. Madrasalarning ayrimlarigina hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Xonlik davrida barpo etilgan imoratlarning yana bir turi maqbaralardir. Maqbaralarning barchasi bir necha qismdan iborat majmuadir, ya'ni go'rxonadan tashqari ziyoratxona, masjid kabi imoratlari bo'lgan. Dahmai shohon, Dahmai Modarixon, Xo'ja Amin, Maxdumi A'zam kabi maqbaralar qurilishining har biri o'z tarixiga ega. Masalan, Xo'ja Amin maqbarasi XVIII asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan bo'lib, maqbarani bezashda XIV asr boshida O'rta Osiyolik me'morlar foydalangan rang-barang sirkor qoplamadan siqib chiqargan o'yma sopol qo'llangan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, XVI asrning oxirlarida Shayx Hovandi Tahur avlodlaridan bo'lgan Iminxo'ja Eshon Toshkentdan Naman-ganga kelib, o'rnashib qoladi. Unga ixlos qiluvchi kishilar ko'payib ketadi. Iminxo'ja Eshon qaynotasidan meros qolgan boyliklar evaziga Ibrohimxo'ja xotiralari uchun taxminan XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Ibrohimxo'ja qabrining oldi tarafiga maqbara bunyod etgan. Maqbara qurilishiga o'sha davrning mohir me'morlari jalb qilinib, u juda nozik did bilan qurilgan.

Qo'qon xonligida bunyod etilgan jamoat inshootlari qatoriga bozorlar, karvonsaroylar, ko'priklar kabi qurilmalarni ham kiritish mumkin. Bunday inshootlar xonlikning iqtisodiy, ijtimoiy hayotida ham muhim o'rin tutgan.

Tayanch iboralar: xalq maorifi, maktablar, madrasalar, ilm, tariqat, san'at, tarixnavislik, adabiyot, me'morchilik.

Nazorat savollari:

1. Xonlikda maktab va madrasalarning ahvoli qay darajada edi?
2. Qo'qon xonligida islom dini va tariqatning ta'siri qanday bo'lgan?
2. Amiriy kim? Uning qanday asarlarini bilasiz?
3. Qo'qonlik tarixchilar va ularning asarlari haqida ma'lumot bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда. – Тошкент, 1995.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент, 1998. – 32 б.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, 2008. – 176 б.
4. Абдуллаев У.С. Фарғона водийсида этнослар аро жараёнлар. (XIX-XX аср бошлари). – Тошкент, 2005.
5. Аҳмедов Б. А. Ўзбекистон тарихининг манбалари. –Т.,Фан, 1991.
6. Бейсембиев Т. К. «Тарихи – Шахрухи» как исторический источник. – Алма-ата: Наука, 1987.
7. Бабабеков Х. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII-XIX вв.). – Ташкент: Фан, 1990.
8. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996
9. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., Шарқ, 2000.
10. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX-начале XX в. (этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991.
11. Гуревич Б. П. Международные отношения в Центральной Азии (в XVII - первой половине XIX в.). – Москва: Наука, 1979.
12. Ибрат. Фарғона тарихи. Мерос. – Тошкент, 1991.
13. История народов Узбекистана. Том II. – Ташкент, 1947.
14. Илҳомов З. А. Аликули амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий ҳаётида тутган ўрни. Тарих фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2004.
15. Кулдашев Ш. Т. Политические, экономические и культурные связи между Кокандским ханством и Восточным Туркестаном (XVIII - сер. XIX вв.). Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата исторических наук. – Ташкент, 2009.
16. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари. Тарих фанлари номзоди... дисс.. – Тошкент, 2009.
17. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи.– Монография. – Тошкент: Yangi nashr, 2014.

18. Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.). Тарих фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007.
19. Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: Насаф, 1992.
20. Мушриф Мирзаолим. Ансоби ус-салотин ва таворих ул-хавокин. – Тошкент, 1995.
21. Набиев Р. Н. Ташкентское восстание 1847 г. и его социально-экономические предпосылки. – Ташкент, 1960.
22. Набиев Р. Н. Из историй Кокандского ханства (Феодальное-хозяйство Худаяр-хана). – Ташкент: Фан, 1973.
23. Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.
24. Народы Средней Азии и Казахстана. Том II. – М., Наука, 1963.
25. Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханство.– Фрунзе, 1977.
26. Топилдиев Н. Р. Қўқон хонлигининг Россия билан дипломатик алоқалари тарихидан (XIX аср – 1876 йилларгача). – Тошкент, 2007.
27. Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70-йилларигача). Тарих фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2006.
28. Усенбаев К. Общественно-экономические отношения киргизов в период господства Кокандского ханства: (XIX век – до присоединения Киргизии к России). – Фрунзе, 1961.
29. Хасанов Х. А. Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. – Москва, 1977.
30. Ўзбек Совет энциклопедияси. 3 том. – Тошкент. 1972.
31. Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709–1876 йй.). – Наманган, 1994.
32. Гаффоров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар. (XIX асрнинг 1- ярми 60 – 70 й). – Тошкент. 1970.

MUNDARIJA

<i>Soʻz boshi</i>	3
<i>Qoʻqon xonligi tarixi tarixshunosligi</i>	5
<i>Qoʻqon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi</i>	13
<i>Qoʻqon xonligida davlat boshqaruvi</i>	23
<i>Qoʻqon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar</i>	30
<i>Qoʻqon-Buxoro munosabatlari</i>	39
<i>Qoʻqon xonligining Rossiya bilan diplomatik hamda savdo aloqalari</i>	48
<i>Qoʻqon - Sharqiy Turkiston munosabatlari</i>	55
<i>Qoʻqon xonligidagi xalq harakatlari</i>	60
<i>Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi</i>	71
<i>Qoʻqon xonligida madaniy hayot</i>	75
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>	82

Ilmiy-ommabop nashr

Ikromjon KUZIKULOV

QOʻQON XONLIGI TARIXI

(oʻquv-uslubiy qoʻllanma)

Muharrir: Ibrohim Mahkamov

Tex. muharrir: Akmalxon Xalilov

Musahhih: Shahnoza Mamatova

2014-yilning 21-aprelida terishga berildi. 2014-yilning 18-июнида bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/16. Hajmi 5,25 bosma taboq. Oq qogʻozga ofset usulida chop etildi. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«Namangan» nashriyoti

Namangan shahri, Navoiy koʻchasi, 36-uy.

Litsenziya: AI №156, 2009-yil 14-avgustda berilgan.

“Start Print Poligraf” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Namangan shahri, Margʻilon koʻchasi, 5-uy.

ISBN 978-9943-434-30-8



9 789943 434308